

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

AL-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

Qo'l yozma huquqida

UDK 94(575.1)

Matkarimov Xamidbek Olimbaevich

***Xiva xonligida elchilik va qabul marosimlari: an'analari va o'ziga
xos jihatlari***

***5A120302 «Tarix» (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan***

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy raxbar:
t.f.n U.Abdullaev**

Urganch – 2013 y.

MUNDARIJA

Kirish	3
I-bob. Xiva xonligida davlat boshqaruv tartiblari.....	12
1.1. Xonlikda davlat boshqaruv tizimi, saroy unvon va mansablari.....	12
1.2. Xonlikda amaldorlarni mansabga tayinlash tartiblari.....	21
1.3. Kengash instituti va uning davlat boshqaruvini amalga oshirishdagi ahamiyati.....	31
II-bob. Xonlikda saroy qabul marosimlari: an'ana va o'ziga xosliklar.....	35
2.1. Xonlikda taxtga merosxurlik an'anasi, Xonni taxtga o'tqazish marosimi va uning o'ziga xos jihatlari.....	35
2.2. Xonning mahalliy amaldorlar va fuqoralarni qabul qilish tartiblari.....	42
III-bob. Xorijiy mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari va elchilarini qabul qilish tartiblari.....	45
3.1. Xiva xonligining xalqaro aloqalari rivojida elchilik munosabatlarining ahamiyati.....	45
3.2. Xorijlik elchilarni va fuqoralarni qabul qilish tartiblari.....	56
Xulosa	71
Ilovalar.....	74
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	85

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Xorazm vohasi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Prezident Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, "O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam aynan Xorazm vohasida qo'yilgan... Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir"¹. SHu sababli ham Xorazm vohasining, xususan Xiva xonligining milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rnini o'rganish dolzarb mavzu sifatida katta ahamiyatga ega.

Tarix fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida, tariximizni, milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda O'zbekiston tarixini jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda². SHu jihatdan olganda o'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos inqirozli davr sifatida qaraladigan so'nggi o'rta asrlar davri tarixini, davlatchilik va boshqaruv an'analarini, saroy hayotini, saroy mansabdorlarining markaziy va mahalliy boshqaruvni, tashqi aloqalarni, elchilik munosabatlarini amalga oshirishdagi o'rni masalasini chuqurroq o'rganish vatanimiz tarixshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Mavzuning dolzarbligi mavjud ma'lumotlarni yangi kontseptual-uslubiy asosda tizimlashtirish va umumlashtirish, o'rganilayotgan muammoga tegishli ilmiy qarashlar va kontseptsiyalarni qiyosiy tahlil etish, ma'lumotlarni ilmiy doiralarga kiritish uchun interpretatsiya qilish zaruriyati bilan ham belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Xiva xonligida saroy qabul marosimlariga xos an'analar va o'ziga xosliklarni yoritish, bu masalaning davlatchilik rivojida tutgan o'rnini ilmiy tadqiq etish va umumlashtirish magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Magistrlik ishi doirasida quyidagi ilmiy vazifalarni hal etish rejalashtirilgan:

¹ Каримов. И.А. Хива шахрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Каримов. И.А. Асарлар. 6-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 375.

² Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998; Ўша муаллиф. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008..

- Xiva xonligida davlat tizimi, xonlikda davlat boshqaruviga xos an'analar va ularning shakllanishining tarixiy asoslarini o'rganish;
- Xonlikda mavjud bo'lgan saroy unvon va mansablari masalasini yoritish, Markaziy davlat boshqaruvida saroy mansabdorlarining ishtiroki va o'rnini tahlil qilish;
- Xonlikda saroy qabul marosimlariga xos an'analar va ularning davlatning siyosiy mavqeini ko'tarishdagi o'rnini masalasini ilmiy tadqiq etish;
- Xonlikning xalqaro aloqalari, xorijiy elchilarni qabul qilishdagi o'ziga xosliklarni yoritish, bu masalalar bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtirish;
- ilmiy adabiyotlar va yozma manbalar ma'lumotlarini, yangi to'plangan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va natijalarni fanga joriy etish;

Tadqiqotning manbaviy asoslarini so'nggi o'rta asrlar davrida fors va o'zbek tilida mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan asarlar, shuningdek rus va boshqa yevropa tillarida yaratilgan yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari, arxiv hujjatlari tashkil etadi.

Mavzuni yoritishda muhim o'rin tutgan yozma manbalarni hududiy va davriy jihaatdan quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Mahalliy mualliflar asarlari. Mavzu bo'yicha bir qancha qimmatli ma'lumotlarni Abulg'ozii Bahodirxon tomonidan yozilgan "SHajara-i turk"³ asaridan, Munis tomonidan yozilgan va Ogohiy tomonidan nihoyasiga yetkazilgan "Firdavsul iqbol"⁴, Ogohiy qalamga mansub "Riyoziy davlat", "Jomeal-voqeati Sultoniy", "Zubdatut tavorix", "Gulshani davlat", "SHohidul iqbol"⁵, Boyoniyning "SHajarai

³ Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

⁴ Мунис ва Огохий. Фирдавсул иқбол. – Тошкент, 2010.

⁵ Огахий, Муҳаммад Ризо Мироб Эрнӣзбек ўғли. Риёзут давлат. // Асарлар. VII жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. VII жилд; Ўша муаллиф. "Жомеал-воқеати Султоний"дан // Асарлар. VII жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. VII жилд. – 7-126; Ўша муаллиф. Зубдатут таворих. – Тошкент, 2009; Ўша муаллиф. Шохидул иқбол. – Тошкент, 2009; Ўша муаллиф. Гулшани давлат. – Тошкент, 2012.

xorazimshohiy”⁶, Kamyobning “Tarixi xavonin”⁷ va boshqa asarlardan olish mumkin.

Xiva xonligi tarixini o’rganishda Bobojon Safarovning asarlari ham juda qimmatlidir. Bobojon Safarov XIX asrning oxirlarida Xivada tug’ulib, madrasa ta’limidan so’ng mufti a’lam bo’lib ishlagan. Uning shartli ravishda nomlangan “Xorazm tarixi”, “Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar”, “Xorazmda o’tgan o’zbek podshohlarining nasablari, xonliklari, avlodu oilalari, mol-mulklari, xulqu odatlarining voqea ahvollari”, “Xorazmda bo’lub o’tgan qulchilik ahvollarining voqealari”, “Isfandiyorxonning xonliq vaqtidag’i qilg’on ishlaridan ba’zi voqealar” asarlari va yozishmalari yetib kelgan. Mazkur asarlarning barchasi O’zbekiston FA SHarqshunoslik instituti xazinasida (– №№10231, 11117, 11254/I1254/II, 11254/III) saqlanadi.

Safarov Bobojonning asarlari sho’rolar davrida yozilgani va ularning mazmunida davrning g’oyaviy ta’sirini inobatga olish lozim. Ularning biryoqlama voqelarga baho berishi bilan undagi ko’p tarixiy voqealar tafsilotlaridan yangi va o’ta muhim ma’lumotlarni olish mumkin.

“Xorazm tarixi” asarida B. Safarov Xorazmda yuz bergan 1864-1934 yillardagi voqealar bayon etilgan. Asarda ayniqsa 1920-1922 yillardagi siyosiy voqealar kengroq yoritiladi. Asarda keltirilgan geografik hamda Xiva xonligining etnik tarixiga oid ma’lumotlar juda qimmatlidir. Asar muqaddima va 36 bobdan iborat. Boblar nomlari quyidagacha:

“Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar”da xonlik davriga oid o’ta muhim ma’lumotlar mavjud. Unda xonlik tarixi XVII asrdan XX asrning boshlarigacha yoritilgan. Asarda soliqlar, xiroj, zakot, boj olish haqida ma’lumotlar keltirib, unda Muhammadrahimxon II va Asfandiyorxon davrlari kengroq yoritiladi. Asar nasta’liqda, oddiy qalamda Xivada yozilgan va 16 varaqdan iborat.

“Xorazmda o’tgan o’zbek podshohlarining nasablari, xonliqlari, avlodu oilalari, mol-mulklari, xulqu odatlarining voqea ahvollari” nomli asarini B. Safarov

⁶ Баёний Мухаммадюсуф. Шажараи Хоразимшоҳий / Мерос. Тўплам. . – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 175–265.

⁷ Сайид Ҳомид Тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. – Тошкент: Академия, 2002..

O'zbekiston FA Tarix instituti buyurtmasi bilan yozgan. Unda xonlik tarixi Eltuzarxon davridan (1804-1806) boshlab Asfandiyorxon davrigacha (1918 yili o'ldirilgan) bo'lgan voqealar bayon etiladi. Asar 81 sahifadan iborat.

Bobojon Safarov oxirgi ikkita asarida Xorazmda qulchilik masalasini (12 sahifada) va Isfandiyorxon davri tarixini (4 sahifada) yoritgan.

2. Yevropalik sayyohlar, elchilik missiyalari a'zolari, savdogarlar, jasuslar va boshqalar tomonidan yozilgan asarlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo mintaqasiga, xususan Xiva xonligiga bog'liq ma'lumotlarni to'plashda Yevropalik tadqiqotchilar, ayniqsa rus geograflari, sayohatchilari, sharqshunoslari katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Ular ichida Moskva knyazi Ivan Grozniyning elchisi sifatida Buxoroga kelgan Angliya fuqarosi A. Jenkinson (XVI asr)⁸, rus fuqarasi F. Yefremov (XVIII asr)⁹ asarlari va 1714-1717 yillarda Rus hukumati tomonidan Aleksandr Bekovich Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga uyushtirilgan harbiy ekspeditsiya davrida to'plangan ma'lumotlarni¹⁰ muhim manbalar sifatida qayd qilish mumkin.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib Rossiya hukmron doiralarida Turkistonga bo'lgan qiziqish o'zbek xonliklarini izchil o'rganishga undadi. Ayniqsa, rus hukumatini Xiva xonliga bo'lgan qiziqishi yuqori edi. Bu davrda yozilgan asarlar ichida Butenov elchilik missiyasi bilan 1841 yilda Buxoro amirligida bo'lgan sharqshunos N. Xanikov¹¹, 1858 yilda Xiva xonligiga rasmiy elchilik missiyasi rahbari sifatida kelgan N. Ignatev¹², B.I. Nebolsin¹³ va boshqalarning asarlarini ta'kidlab o'tish kerak¹⁴.

⁸ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. / Перевод с английского Ю.В. Готье // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – Л.: Полиграфкнига, 1937. – С. 167-192.

⁹ Ефремов Ф.С. Странствование Филиппа Ефремова в Киргизской степи, Бухари, Хиве, Перси, Тибете и Индии и возвращение его оттуда через Англию в Россию. Третье вновь переделанное, исправленное и умноженное издание. – Казан: В Университетской Типографии, 1811. – 160 с.

¹⁰ Bu ekspeditsiya yo'nalishi Kaspiy bo'yidan Xiva xonligi hududiga olib keluvchi karvon yo'llari orqali amalga oshirilgani ma'lum. Bu haqda qarang: X.G. Дипломатическая отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX в. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 55-58.

¹¹ Ханыков Н. Описания Бухарского ханства. – СПб., 1843.

¹² Игнатьев Н. Поездка в Хиву и Бухарию. – СПб., 1858.

¹³ Небольсин П.И. Очерки торговли России со Средней Азией. ЗИРГО. – СПб., 1855. Кн. X. – С. 1-335

¹⁴ Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. – СПб, 1909. – № 9.

SHunisi e'tiborlik, Rossiyadan O'rta Osiyoga kelgan har bir kishi – elchilik missiyasi a'zosi, savdogar va boshqalar hukumat idoralaridan maxsus ko'rsatmalar va yo'riqnomalar olib, ularda saroy hayoti, mahalliy amaldorlarning nufuzi va ularning xonga ta'siri masalalarini o'rganishga e'tibor qaratish kerakligi alohida ta'kidlangan¹⁵.

Ma'lumki, XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya ham Hindistondan Afg'oniston orqali O'rta Osiyoga kirib kelishga va mintaqada o'z ta'sirini o'rnatishga intila boshladi. Natijada O'rta Osiyoga bir necha marta rasmiy elchilik missiyalari, savdogarlar va sayyohlar niqobi ostida Ost Indiya kompaniyasi harbiy razvedka bo'limi topshirig'i bilan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan josuslar tashrif buyurdilar. Bu sayohatlar tafsilotlari aks etgan asarlarda mavzuga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Mavzuga tegishli ma'lumotlar aks etgan kitoblar ichida 1863 yilda Xiva xonligi va Buxoro amirligiga sayohat qilgan A. Vamberining asari muhim o'rin tutadi. Unda Xiva xonligida saroy qabul marosimlari haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi¹⁶.

3. XIX asrning o'rtalarida Erondan Xiva xonligiga kelgan Eron elchilari tomonidan yozilgan hisobotlar, sayohatnomalarda ham mavzuga oid muhim malumotlar mavjud¹⁷.

Vatanimiz davlatchligi tarixida o'z o'rniga ega Xiva xonligining XIX asr siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y bergan voqealar haqidagi ma'lumotlar bizgacha o'sha davr vatandosh tarixnavislar va arxiv hujjatlari orqali yetib kelgan. SHuningdek, jumladan, bu kabi materiallar mazkur asrda Xivaga kelgan xorijiy mamlakatlar diplomatlarining xotira-kundalik va hisobotlarida ham

¹⁵ Соловьев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участие натуралиста А. Лемана. – М.–Л., 1939. – С. 16-18.

¹⁶ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самаркандъ, предпринятое в 1863 году с научною целью, по поручению Венгерской Академии в Пешть, членомъ ея А. Вамбери. – М.: Изд-во А.М. Мамонтова, 1867. – 369 с.

¹⁷ Мухаммад Алихон Гофур. Хоразм сафари кундалиги (Мухаммадшоҳ Қожор ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 13–52; Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Мухаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 53–231.

aks etgan bo'lib, ularning ayrimlari o'sha davrdayoq chet o'lkalarda nashrdan chiqqan. Albatta, bu kabi asarlarda muayyan bir davlatning Xiva hukumati bilan siyosiy aloqalari masalasi ko'proq aks etgan. Afsuski, keyingi ko'p yillar davomida 19-asrdagi Xiva, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining bir-biri yoki Rossiya, Eron kabi qo'shni yoki Turkiya, Angliya singari qudratli davlatlar bilan siyosiy munosabatlari Rossiya va xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy aloqalar doirasida o'rganib kelindi. Mamlakatimiz mustaqilligi voqelikka bunday yasama ilmiy yondashishga butunlay chek qo'yib, tarixshunoslikdagi bu singari cheklanish yo'q qilindi va har bir ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisa o'z nomi bilan ataladigan bo'ldi. SHu tufayli ajdodlardan qolgan yozma yodgorliklar ma'lumotlari, arxiv hujjatlari va chet el elchilarining mazkur qaydlari O'zbekiston Respublikasi tarixini haqqoniy o'rganish jarayoniga jalb etilib, endilikda Xiva xonligining o'sha davrda boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalari tarixini o'rganishda Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komyob, Bekjon Rahmon o'g'li, Herman Vamberi qalamiga mansub asarlar bilan bir qatorda rus, ingliz va eronlik diplomatlar xotiralari ma'lumotlari ham kengroq ravishda ilmiy iste'molga kiritilmoqda hamda bu kabi qimmatli manbalar o'zbek tilida chop etilmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz davlatchiligi tarixi bilan qiziquvchilar uchun keng tahlil va erkin nuqtai nazar imkonini tug'diradi.

Rus diplomati N. Muravyovning XIX asrning 20-yillari O'rta Osiyoga sayohati va eron elchilari Muhammad Alixon G'afurning 1842 yil Xivaga Olloqulixon, Abbos Qulixonning 1844 yili Buxoro amiri Nasrulloxon huzuriga kelishiga doir xotiralari o'zbek tilida ham chop etildi.

SHu tariqa, Xiva xonligining davlat tizimi, saroy qabul marosimlari masalasiga oid ma'lumotlar so'nggi o'rta asrlarda yaratilgan ko'p sonli manbalarda qisman o'z aksini topgan. Ular o'rganilayotgan masalaning o'ziga xos qirralarini, saroy hayoti, qabul marosimlari bilan bog'liq yetakchi an'analarni anglashda katta o'rin tutadi.

Mavzuning o'rganilishi. Mavzuning o'rganilishini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin: 1. Sovet davrida o'rganilishi; 2. Mustaqillik davrida o'rganilishi.

1. Sovet davrida yaratilgan turli ilmiy tadqiqotlarda Xiva xonligidagi unvon va mansablar masalasi birmuncha yoritilgan. XIX asrda Xiva xonligida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy jonlanish ro'y berib, uning yon-atrof va uzoq-yaqin mamlakatlar bilan siyosiy munosabatlarida ham faollik vujudga kelgan davr hisoblanadi. Bu faktlar xorazmlik muarrixlar va chet ellik olimlar, harbiy, diplomatlar va sayyohlar kundaliklarida, bizgacha yetib kelgan hujjatlarda ozmi-ko'p aks ettirilgan. O. Sodiqov, M. Yo'ldoshev, T. To'xtametov, B. Mannonov, F. Abdullaev, Q. Munirov kabi olimlarimiz tomonidan ma'lum mavzu va yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Bu masalada sobiq ittifoq davrida yaratilgan ishlar ichida M.I. Yo'ldoshevning Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy tarixi, davlat tuzilishi masalalari keng yoritilgan yirik monografik asarini¹⁸, B. Safarovning "Xorazm tarixi" kitobini¹⁹ va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Xususan, Safarov Bobojonning "Xorazm tarixi" asarining "Amaldorlarning belgilangan vazifalari" deb ataluvchi 7-bobi Xiva xonligidagi unvon va undagi mansablarni o'rganish masalasida muhim o'ringa egaligi bilan ahamiyatlidir. Bu asarda boshqa kitoblarda keltirilmagan ba'zi unvon va mansablar (devona, mashshoq, talqonchi, hojirav) haqida ham ma'lumotlar mavjud.

2. Mustaqillik yillarida Xiva xonligi tarixiga, xususan davlat boshqaruvi, saroy mansab va unvonlari masalasiga bag'ishlangan ko'plab asarlar, maqolalar, darsliklar chop etildi²⁰. O. Mutalov, SH. Saidov, M. Qayumov, Z. Rahmonqulova, O. Masolieva va boshqa tadqiqotchilar maqolalarida ham bu masalalar qisman aks etgan.

Mavazuga oid muhim ma'lumotlar aks etgan ishlar ichida SH. Vohidov va S. Saburovalar tomonidan yozilgan maqola katta ahamiyatga ega. Qo'lyozma

¹⁸ Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.

¹⁹ Сафаров Б. Хоразм тарихи. – Тошкент, 1957. ЎРШИ-1, № 10231, – Б. XII-XVI.

²⁰ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарк, 2000; Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият таракқиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 241-243; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126-128; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

manbalar ma'lumotlari va tahlili asosida yozilgan bu ishda Xiva xonligidagi 147 ta unvon va mansablar ro'yxati keltirib o'tilgan²¹. Ayrim unvon va mansablarga keng ta'riflar berilgan. So'nggi yillarda bu masalada N.Polvonov²² va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yozilgan maqolalarda ham biz o'rganayotgan masalalar qisman ko'rib chiqilgan.

Bundan tashqari bu masala yuzasidan mahalliy tarixchi olimlar A.Abdurasulov, Sh.Matrasulov, M.Matniyozov, M.Mahmudov, K.Xudoyberganovlarning tadqiqotlarida alohida mulohazalar keltirib o'tiladi.

Lekin shunga qaramasdan bu masalaga tegishli barcha ma'lumotlar yetarlicha tahlil qilinmagan. Yagona ilmiy mavzu sifatida, magistrlik dissertatsiyasi darajasida ham o'rganib chiqilmagan. Bu ham tanlangan magistrlik ishining ahamiyatini ko'rsatuvchi muhim omildir.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Magistrlik ishida Xiva xonligida, saroy qabul marosimlarining o'ziga xos jihatlari va uning davlat boshqaruv tizimida tutgan o'rni, ta'siri masalalari ilk bor kompleks ravishda o'rganib chiqildi.

Ishda, xususan, xonlikda saroy unvon va mansablari, amaldorlarni mansabga tayinlash tartiblari bilan bog'liq masalalar keng yoritildi;

Mazuning XIX-XX asr boshlarida o'rganilishi natijalari davrlashtirilib, umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqildi;

Xonlikda saroy qabul marosimlari qoidalari shakllanishining tarixiy sharoitlari va ijtimoiy-siyosiy omillari haqidagi ma'lumotlar tizimlashtirildi va ilmiy muomalaga kiritildi;

Xonlikda taxtga merosxo'rlik an'anasi, Xonni taxtga o'tqazish marosimi va uning o'ziga xos jihatlari, belgilari ko'rsatib berildi;

Kengash instituti va uning Xiva xonligida davlat boshqaruvini amalga oshirishdagi ahamiyati qiyosiy-tarixiy tahlil asosida, davriy izchillikda ko'rsatib berildi,

²¹ Воҳидов Ш., Сабурова С. Хива хонлигида унвон, мансаблар ва уларнинг вазифалари (XIX-XX асрнинг бошларида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, № 3. – Б. 39-46.

²² Полвонов Н. Хива хонлигида давлат мансабларига тайинлаш тартиби // Жамият ва бошқарув, 2009, № 4. – Б. 48-50; Ўша муаллиф. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида мансаблар (Сафаров Бобожоннинг “Хоразм тарихи” асари асосида) // ТДЮИ Хабарномаси. 2010, № 3. – Б.32-38.

Xonning mahalliy amaldorlar va fuqarolarni qabul qilish tartiblari bo'yicha ma'lumotlar tizimlashtirildi va ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Xiva xonligining xalqaro aloqalari rivojida elchilik munosabatlarining ahamiyati hamda xorijlik elchilarni va fuqarolarni qabul qilish tartiblarining shakllanishi va rivojlanishi masalasi belgilangan tarixiy davr doirasida, umumlashtiruvchi tadqiqot sifatida kompleks o'rganildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Keng doiradagi ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida Xiva xonligida saroy qabul tartiblari va marosimlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi, umumlashtirildi.

Dissertatsiya natijalaridan, umumlashtirilgan xulosalaridan oliy o'quv yurtlari talabalariga ma'ruzalar o'qish jarayonida, xalqaro aloqalar tarixi bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilishda, O'rta Osiyo tarixining tegishli bo'limlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yozishda, shuningdek O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni o'rganish va targ'ib qilish, yangi turistik yo'nalishlar tashkil etish va turizmni rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va natijalari 2 ta chop etilgan maqolalarda o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob va yettita bo'lim, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Ishga o'rganilgan mavzuga bag'ishlangan jadvallar va fotosuratlar ilova qilingan.

1 bob. Xiva xonligida davlat boshqaruv tartiblari.

1.1. Xonlikda davlat boshqaruv tizimi, saroy unvon va mansablari.

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat bo'lib, uning boshqaruv tizimi Buxoro va Qo'qon xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Xonlikdagi eng yuqori unvon Xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Buxoro va Qo'qon xonligidan farqli ravishda XIX asr boshlariga kelib xon xuzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) bor edi²³. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar – Inoq, SHayxulislom, Devonbegi, Yasavulboshi, Mehtar va boshqalar a'zo bo'lgan bu Kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini ham e'tirof etish zarur. O'zaro siyosiy nizolarni bartaraf etadigan, joylarda mahalliy boshqaruvni amalga oshiradigan va markaziy hokimiyatning mavqeini ta'minlab turadigan bu amaldorlar amalda davlat boshqaruvida katga kuchga ega edilar. Ayniqsa, markaziy davlat hokimiyati zaiflashgan davrlarda bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki har qanday davlatning siyosiy boshqaruv tizimida mavjud unvon va mansablar alohida o'rin egallaydi. Biroq turli davrlarda saroylardagi unvon va mansablar hamma vaqt ham bir xil ma'noda qo'llanilmagan, mavjud siyosiy va ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, ularning mavqei va ahamiyati o'zgarib turgan²⁴. Xiva xonligida amalda bo'lgan unvon va mansablar haqida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yozilgan mahalliy muarrixlar asarlarida va xorijdan kelgan elchilik missiyalari a'zolari, sayyohlar, darvishlar, savdogarlar va boshqalar asarlarida muhim ma'lumotlar mavjud.

Muhammad Rahimxon I davrida o'tkazilgan islohotlar natijasida davlat boshqaruvi asosan, ikki bo'g'inli, markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat

²³ Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126-128.

²⁴ Полвонов Н.Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924 йиллар): Тарих фанлари номзоди ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2005. – Б. 13; Ўша муаллиф. Хива хонлигида давлат мансабларига тайинлаш тартиби // Жамият ва бошқарув, 2009, № 4. – Б. 48-50.

bo'lib, ularning har biri musulmon davlatlarga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlarga, ko'p sonli mansabu lavozim va unvon sohiblariga ega edi²⁵.

Bu lavozimlarni hammasi merosiy sanalsada, albatta, xon tomonidan tasdiqlanishi shart edi. Xon ba'zan boshqa «urug'»dan bo'lgan shaxsni ham biror mansabga tayin qila olar edi. SHuni ta'kidlash lozimki, katta vakolatlarga ega bo'lgan hokimlarning turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlarni ichki ishlariga xonning ruxsatisiz aralashish huquqi bo'lmagan.

Hozirga qadar Xiva xonligidagi mansablar masalasi kam yoritilgan mavzulardan bo'lib qolmoqda. Bu masala bo'yicha chop etilgan ishlar kam sonli. Xususan, tadqiqotchilar SH.Vohidov, S.Saburovalar tomonidan yozilgan maqolada Xiva xonligidagi 147 ta unvon va mansablar ro'yxati keltirib o'tilgan. Ayrim unvon va mansablarga ta'riflar berilgan²⁶.

Xiva xonligidagi unvon va mansablar masalasi o'z davrida sharqshunos olim S. Bobojonning “Xorazm tarixi” asarida ham yoritilgan edi²⁷. Mazkur asar 1957 yilda yozilgan bo'lib, xonlikdagi hayotni turli jihatlardan aks ettirishga qaratilgan. SHular jumlasiga xon saroyidagi mansablar ham kiradi. Bu va boshqa asarlardan foydalangan holda Xiva xonligidagi mansabdorlar va ularning vazifalariga to'xtalib o'tamiz. Muallif o'z asarida Xiva xonligidagi mansablarni ikki guruhga ajratadi:

1. Ulamo²⁸ amaldorlar (mansablar).
2. Sipoho (harbiy va ma'muriy) amaldorlar (mansablar).

Ulamo amaldorlarga quyidagilar kiradi: qozikalon, qozio'rda, qoziyul xos, a'lamul ulamo, rais, muftilar (9 ta), oxunlar (70 ta), xatib (2 ta), voiz (2 ta), sadr (musaddir) (4 t), muxbirlar (4 ta). Bu amaldorlarning vazifalari o'rta asrlar davrida boshqa islom davlatlari, xususan qo'shni Buxoro amirligi va Qo'qon

²⁵ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 241-243.

²⁶ Воҳидов Ш., Сабурова С. Хива хонлигида унвон, мансаблар ва уларнинг вазифалари (XIX-XX асрнинг бошларида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, №3. Б. 39-46.

²⁷ Сафаров Бобожон. “Хоразм тарихи”. ЎРШИ-1, №10231, XII-XVI-бетлар.

²⁸ Ulamo – olim so'zining ko'pligi bo'lib, bunda diniy olimlar nazarda tutilgan.

xonligidagidan unchalik farq qilmagan. Ularning davlat boshqaruvida tutgan o'zni masalasi boshqa ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan²⁹.

Harbiy amaldorlar³⁰: amirul umaro, qo'shbegi, inoq, mehtar, naqib, otaliq, beklarbegi, shayxul islom, devonbegi, zakotchi, bojbon, xazinachi, mirzaboshi, mingboshi, sarhang, shig'ovulbegi, yasovulboshi, og'a, arbob, karvonboshi, dorg'abegi, parvonachi, sarrof, sartif, hojirav, mirshab, eshikog'alari (10 nafar), mirob, mushrif, mutavalli, yuzboshi (10 kishi), dahboshi, sais (2 kishi), o'tar, biy, to'shakchi, dasturxonchi, talqonchi, devona (2 kishi), shotir (10 kishi), surnaychi (2 kishi), karnaychi, jarchi, jallod (40 odam), mashshoqlar (100 odam), yasovulboshi, oqsoqol.

Asarning 7-bobi "Amaldorlarning belgilangan vazifalari" deb ataladi va unda mansablarning vazifalariga ta'rif beriladi³¹. Ammo ayrim mansablar umumiy ro'yxatda sanalgan bo'lsa-da, asarda muayyan mansabga ta'rif berilgan o'rinda keltirilmagan. Masalan, "mashshoqlar (100 odam)", deb ko'rsatilgan bo'lsa ham, mansablar ta'riflangan o'rinda ularning vazifasi nimadan iborat ekanligi to'g'risida hech nima deyilmagan.

Asarning 7-bobi "Amaldorlarning belgilangan vazifalari" deb ataluvchi qismini asliyat tilini saqlagan holda, izohlar bilan to'lig'icha keltiramiz³²:

1. Ulamo mansablar.

Qozikalon – tamomi qozilarning hukmlarin yozubliqdin³³ qiluvchi ham ulamo, amaldorlarni suluk³⁴ nasab qilishda xonga maslahat beruvchi.

Qozi idora – xonning oldida bo'ladurg'an na yerga safar qilsa hamroh yurub, xon oldidagi arzdorlarni muhokama qiladur.

Qoziyu xos – xonning, xon vazirlari va eng katta amaldorlarning nikoh taqsimotiga da'vochilarni muhokama qiluvchidur.

A'lamul ulamo – muftilar tomonidan da'vochilar haqida berilgan fatvolarni tasdiqlovchi hamda qozilarg'a shariat qonunlari yo'licha rahbarlik qiluvchi.

²⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. ... – Б. 399-400.

³⁰ Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, muallif diniy va harbiy unvon va mansablarni biroz aralashtirib yuborgan.

³¹ Сафаров Бобожон. "Хоразм тарихи". ЎПИИ-1, №10231, XII-XVI-бетлар

³² Quyida asar matnini asl tilida havola qilib, tushunarsiz so'zlar ma'nosiga izoh berib boramiz.

³³ Yozubliq – tasdiq etuvchi.

³⁴ Suluk – tasavvufiy shajara, nasl-nasab.

Rais – masjidlarga imom, muazzin³⁵ tayin qiladur hamda xalqlarni va kosib hunarmandlarni shariat yo'li bilan tekshirib, xilofi shar'³⁶ qiluchilarning qo'llarin bog'lab, urib jazo beradi.

Mufti – (9 ta) xalqlarning da'vochilarin suhbatlariga muvofiq ko'rub, shariat qonunicha fatvo yozib beradilar. Qozilar shu fatvo bo'yicha da'voni muhokama qiladilar.

Oxunlar – (70 ta) bular madrasalarda vaqf g'alla maosh olib, toliblarga³⁷ arabiy kitoblardan ta'lim beradilar.

Xatib – (2 ta) xonning masjidida xon oldida va katta masjidi jome'da namozi juma va iydi namozlarida imomatlik qiladurlar.

Voiz – (2 ta) xon masjidida va masjidi jome'da xalqqa din yo'li bilan nasihat qiluvchi.

Musaddir (sadr) – (4 ta) ular xon masjididagi namozlarda, amaldorlarning maraka, yig'ilishlarida har ikkovlari birlashib, navbatli Quron o'qiydilar.

Muxbir – (4 ta) bu xon amaldorlari bilan ulamolar orasida xabar yurituvchilardir.

2. Harbiy-ma'muriy mansablar.

Amirul umaro – bu kishi sipoho amaldorlarning amiri hisoblanadi. Xon amri bilan alarg'a buyruq, farmon tarqatuvchidir. Amirul umaro o'z mavqeiga ko'ra Inoqdan keyingi o'rinda turgan harbiy amaldor hisoblanardi³⁸.

Qo'shbegi – sipoho amaldorlarni tartibga solib, xon majlisiga kirguzib chiqaruvchidir.

Inoq – butun xonlikdan to'planadigan salg'ut, hirojlar ustidan nazoratni amalga oshirgan. Bundan tashqari nufuzli saroy ayonlaridan bo'lgan, o'z mavqei jihatidan xondan keyingi o'rinda turgan Inoq o'z xizmat vazifasiga ko'ra harbiy – ma'muriy amaldorlarga yetakchilik qilardi³⁹.

³⁵ Muazzin – masjidda azon aytuvchi.

³⁶ Xilofi shar' – shariatga zid bo'lgan ish.

³⁷ Tolib – madarasa talabasi.

³⁸ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 281–283.

³⁹ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 281–283.

Mehtar – xonliqda bo'lg'an tamomi ko'l, to'g'on, daryo, arna⁴⁰ va yer maydonlarining hisobin yurgizuvchidir.

Naqib – xonliqqa doir bo'lg'an tamomi amaldor navkarlarni hisobin yuritub, ularning ish olib borishlari ustidan xonga maslahat beruvchidir.

Otaliq – butun amaldorlarni murosot yo'lida ish olib borishlarig'a nasihat qilg'uvchidir.

Beklarbegi – umumxonzodalarning boshlug'i

SHayxul islom – islom dinining rahbari.

Devonbegi – xonliqqa doir mol-mulk hisobin yuritib rahbarlik qiluvchi.

Zakotchi – dehqonlarning yerlaridan hiroj, mol, tuya, ot, qo'ylaridin zakot to'plovchidir.

Bojbon – butun hunarvand kosib, bozorchi, savdogarlardan boj, hiroj, zakot yig'uvchidir.

Xazinachi – mamlakatdan yig'ilgan daromadlarni saqlaydur.

Mirzaboshi – xonning maxsus kotibi hamda xonliqdagi devonlarning boshlig'i.

Mingboshi – asakarlarning boshlig'i.

Sarhang – xonning safarga chiqishdag'i askariy borganining ortidan nazorat qiluvchidir.

SHig'ovulbegi – horijiy mamlakatlardan kelgan elchilarni qabul qilib, ular bilan muomala qildurur va ularni xong'a munosabat qildiradur.

Biy – xonning borib tushajak joylariga doir asboblarni tayyorlab, saranjom beruvchidir.

Hojirav – haj ziyoratiga boruvchi musulmonlarni to'plab, olib boruvchi, xonning vakilidir.

Yasovulboshi – (2 kishi) xon qaramog'idagi umumiy yasovullarning boshliqlari. Xonning arzdod qilish vaqtida har biri xon oldida navbat bilan turib dodxohlarning so'zin xonga, xonning so'zin dodxohlarga tarjima qiladilar. Yasavulboshiga bundan tashqari Xonning shaxsiy gvardiyasi boshlig'i sifatida,

⁴⁰ Arna – kanal, ariq.

Xonni va uning oila a'zolarini qo'riqlash, saroyda ichki tartib intizomni saqlash vazifasi yuklatilgan⁴¹.

Karvonboshi – savdogarlar boshlig'i bo'lub, savdogarlar mollaridan boj, hiroj olishda zakotchilarga yordam qiluvchi karvonchiliqqa doir janjallarni kalontar⁴² bilan birlashib hal qiluvchidir.

Og'a – xon sipohiylariga doir to'y yig'inlariga rag'barlik qiluvchidir.

Darg'abegi – daryo, arna, kata yoplarda⁴³ yuruvchi kemalar va kemachilarni hisobga oluvchidir.

Parvonachi – xonning farmonlarini bajaruvchidir.

Mutavaliy – madrasa, masjid, qorixonalarining vaqflaridan⁴⁴ ijara undiruvchi mutvaliylar boshlig'i.

Mushrif – xonliqqa qarashli to'g'aylaridan foydalanuvchi dehqon, chorikorlardan⁴⁵ dahyak⁴⁶ oluvchidir.

Mirob – arna, yop suvlari qazuvchilari ustida rahbarlik qiluvchi, saqolarni ochib, band etuvchidir.

Sarrof – tilla, tanga, pul foqadurg'an⁴⁷ sikkaxona (zarbxona) boshlig'idur.

Arbob – umumkosib-hunarmandlar hisoblarin yurutib, ular orasida boshliq kalontarlar tayinlash ishini olib boradur.

Sartif – urushda otiladurgan va iyd ramazon bayram kunlarida otiladurgan to'pchi mushakchilar boshlig'i.

Mirshab – xon poytaxtini va shaharlarni saqlovchi pashshoflarning hamda jallodlar boshlig'i.

Eshikog'alar – (12 nafar) xonning arzxona eshiklarin qurol bilan saqlaydurlar. Xon bir joyga otlansa, atrofida yurub, xonni hisoratini⁴⁸ qilib boradurlar.

⁴¹ Ёўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 283–284.

⁴² Kalontar – rahbar.

⁴³ Yop – ariq.

⁴⁴ Vaqf – madrasa, masjid, qorixonalar daromad olishlari uchun ularga birlashtirilgan yer.

⁴⁵ Chorikor – ishchi, xizmatchi.

⁴⁶ Dahyak – (forscha – “o'ndan bir”) daromadning o'ndan bir qismi miqdoridagi soliq.

⁴⁷ Ya'ni, yasaydigan ma'nosida.

⁴⁸ Ya'ni, muhofaza qiladilar.

Yuzboshilar – (10 nafar) har birlari 10 pashshof bilan shaharning bir uchastkasini saqlab mirshabga itoat qiladilar.

Dahboshi – (10 nafar) har biri 10 yasovulga boshliq bo'lub, dodxohlarni xon oldiga kirgizadurlar.

Saislar boshlig'i – (2 nafar) har biri 40 saisga boshliq bo'lub, xon otlarin asraydilar. Navbat bilan xonga saislik kiladilar.

O'tar – xon amaldorlarining sochlarin oluvchi maxsus sartarosh.

Dasturxonchi – xon bir joyga borsa, xonning maxsus dasturxonini ko'tarib yuruvchidir.

To'shakchi – xon bir joyga borsa, oldida xonning to'shak, ko'rpa, tika(yostiq)sini ko'tarib yurar.

Telpakchi – xon bir joyga otlansa, xonning zapas davra telpagini ko'tarib yuradir.

Devonalar – (2 odam) sochli, kokilli 2 devona xon oldida otli o'qib yuradilar.

SHotirlar – (10 kishi) tizzalariga, bilaklariga, bellariga qo'ng'iroq taqib, qo'l oyoqlari shimarilgan holda xon oldida piyoda yuruvchilardir.

Surnaychi – (2 kishi) xon bir joyga borsa, surnay chertadilar.

Karnaychi – xon oldida otli yurub, karnay chertuvchidir.

Jallodlar – (4 kishi) xon g'azabiga duchor bo'lgan gunohkorlarni urub, qiynab, bo'g'ib, chalib, osib o'ldiruvchilardir.

Pashshoflar – (100 kishi) shaharga soqchilik qiluvchilardir.

Saislar – (80 kishi) xonning maxsus otlarini boquvchilar.

Jarchi – xonning farmonlarini xalqqa e'lon qilib qichqiruvchidir.

Yasovul – (100 kishi) dodxohlarni, da'vogarlarni olib keluvchilardir. Hammalari ot, yarog'li yurub, hojati bo'lg'an odamlarni xon arkiga keltiradurlar.

Oqsoqol – xonliq doirasidagi umumqishloq, shahar oqsoqollarin hisobga olib, mirzaboshiga maslahatdosh bo'lib, yorliq olib beruvchidir.

Xulosa qilib aytganda, Safarov Bobojonning "Xorazm tarixi" asarining "Amaldorlarning belgilangan vazifalari" deb ataluvchi 7-bobi Xiva xonligidagi

unvon va undagi mansablarni o'rganish masalasida muayyan o'ringa egaligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib aytganda, Xonlikdagi barcha mansab va unvonlarni 3 toifaga: xarbiy-ma'muriy, harbiy va diniy amallarga bo'lish mumkin. Saroy unvonlari ichida Xondan keyin eng katta nufuzga inoq, otaliq va biy unvonidagilar mansub bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy hayotini nazorat qilgan. Xonlikning siyosiy-iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklar begi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasovulboshi, udaychi, mingboshi, mirroboshi va boshqa mansabdorlar ham muhim o'rin tutadi⁴⁹.

Diniy hokimiyat shayxulislom boshliq din peshvolari qo'lida edi. Mahalliy shayxlar Said Ota SHayx avlodlari, Darvish shayxlari - davlatdagi nufuzli diniy amaldorlar sirasiga kirar, barcha diniy mansablar ularning vakillariga berilardi. Xiva xonligida davlat tili o'zbek tili bo'lib, Buxoro va Qo'qon davlatlaridan farqli ravishda, bu yerda ikki tillilik xukmron emas edi. Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o'zbek tilida yozilardi⁵⁰.

Mahalliy boshqaruv beklik (ba'zi manbalarda viloyatlar deb ham ko'rsatilgan) hokimlar va noiblar qo'lida edi. Ularning ham, odatdagidek, o'z boshqaruv tizimi mavjud bo'lib, bekliklar mirshabboshi, soliq yig'uvchi amaldorlar (tanobchi, bojbon), qozi, rais kabi diniy mansabdorlar, oqsoqollar yoki katxudolar yordamida idora qilinardi. Hokim va noiblar xon tomonidan tayinlanib, o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshirganlar. Ular ma'muriy, moliyaviy, siyosiy, sud funktsiyalarini bajarganlar⁵¹.

Barcha mahalliy amaldorlarning asosiy vazifasi o'zlariga tobe hududdarda osoyishtalikni saqlash, belgilangan soliqlarni o'z vaqtida yig'ishdan iborat edi.

⁴⁹ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-кисм. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 241-243; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 1012. – Б. 395-396.

⁵⁰ Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126-128.

⁵¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395-396.

Bekliklarni ichki hayotiga tegishli barcha masalalar yechimi to'raligicha hokim ixtiyorida bo'lgan. Xonlikda olib boriladigan turli obodonchilik ishlariga, kanal va ariqlarni tozalashga, boshqa hashar ishlariga aholini jalb etish kabi boshqa xo'jalik ishlari ham to'raligicha hokim va unga tobe amaldorlarga topshirilgan edi. Bundan tashqari hokimlar beklikdagi harbiy qo'shnlarning ham boshlig'i hisoblanardilar.

Xiva xonligida noibliklarni idora etishda noiblar ham bo'lgan. Noib mansabi hokim mansabi bilan teng bo'lgan. Hokimlik mansabiga har bir shaxs xon tomonidan tayinlanishi mumkin edi va bu shaxsning hokimiyati butun viloyat uchun majburiy bo'lib, yakkabosh hokim hisoblanardi. Noiblar esa shu joyda yashovchi urug' oqsoqollardan bo'lib, ularni hokimiyati faqat urug' a'zolariga taaluqli edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, xonlikda Qiyot - Qo'ng'iro't va Beshariq noibliklar bo'lgan. Noiblar ham xon tomonidan tayinlangan.

Poytaxt shahar Xiva bevosita Xon va bosh vazir (mehtar) boshqaruvida bo'lgan. Bekliklar o'z navbatida ma'muriy birlik masjid qavmlariga bo'lingan. Masjid qavmlar (mahallalar) xonlik ma'muriy-xududiy tizimidagi iqtisodiy, xo'jalik va ijtimoiy, madaniy hayotni boshqarishda muhim quyi bo'g'in bo'lib, oqsoqol yoki katxudolar tomonidan boshqarilgan. Har bir masjid jamoasi, ba'zi hollarda bir nechta yonma-yon joylashgan qo'shni masjid jamoalari, o'zlariga oqsoqol saylashgan. Saylangan oqsoqol shu lavozimga xon tomonidan tasdiqlangan va umrining oxirigacha shu mansabda qolgan. Oqsoqolni saylash qozi ishtirokida o'tkazilib bek tomonidan kuzatilib turilgan. Bek saylov natijalarini xonga taqdim qilgan.

Xonlikda ko'chmanchilik bilan tirikchilik qiluvchi xalqlar: turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar urug' boshliqlari - vakillar va muhrdorlar (xon muxriga ega urug' boshliqlari) tomonidan boshqarilgan. O'troq hayot kechiruvchi qoraqalpoq va qozoqlar esa otaliq va biylar tomonidan idora etilgan⁵².

⁵² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. ... – Б. 393-401.

1.2. Xonlikda amaldorlarni mansabga tayinlash tartiblari.

O'zbek davlatchiligi tarixida davlat boshqaruvining monarxiya tipi nisbatan keng tarqalgan edi. Bunda davlat boshlig'i cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan yakka hukmdor bo'lib, uning mansabi va huquqlari avloddan-avlodga o'tgan. Uning atrofidagi mansabdorlar ham hukmdorga yaqin kishilar, qarindosh, urug'doshlardan tayinlangan bo'lib, ularning mansab va xuquqlari ham vafotlaridan keyin o'z avlodlariga meros sifatida qoldirilgan. Bunday boshqaruv tartibini dastlabki e'tiborga molik islohat Abulg'ozixon tomonidan amalga oshirilgan. Abulg'oziyxon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy e'tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Xiva tarixchisi Munisning ko'rsatishicha Abulg'ozixon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etdi. Ya'ni saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular tubandagicha taqsim etildi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noyib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig'atoy inoqi, 1 ta vazir va yana 1 ta qo'shbegi lavozimlaridir. SHu bilan Abulg'ozi o'zbeklarni va yerni aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma'lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustaxkamlab olishi Abulg'oziga ichki va tashqi siyosatni keng ko'lamda amalga oshirish imkoniyatini berdi. Abulg'ozixonning ichki siyosat borasida o'tkazgan eng muhim tadbirlaridan yana biri o'zbek qabilalarini butun voha bo'ylab o'troqlashtirish siyosati bo'ldi. XVII-XVIII asrlarda bunday o'troqlashish jarayoni Orol bo'yidagi o'zbeklar va Qoraqalpoq qabilalari orasida ham kuchaydi. O'zbek va qoraqalpoqlarning ommaviy o'troqlashuvi va ularning dehqonchilik hayotiga o'ta borishi bilan Xorazmda sug'oriladigan ekin maydonlarni o'zlashtirish, yangi ariqlar chiqarish, yangi shahar va qishloqlar bunyod etish zaruriyatini tug'dirdi. SHuningdek XVI asr 70 yillarida Amudaryo oqimining o'zgarishi bilan Xorazmning shimoliy qismidagi shahar va qishloqlarda yuz bergan suv tanqisligi ham Abulg'ozixonni bu borada keskin choralar ko'rishga undayotgan edi. Darhaqiqat Abulg'ozixon va o'g'li Anushaxon zamonida yangi yerlarni o'zlashtirish va yangi ariqlar chiqarish

sohasida shunday ulkan ishlar qilindiki, bu burilishlar Xorazmning bundan keyingi taraqqiysi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Abulg'ozixonning ana shu xayrli ishlarini o'g'li Anushaxon davom ettirdi⁵³.

Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi (1804-1920) davrida ham boshqaruv islohatlari o'tkazilgan. Bu borada Muhammad Rahimxon hukmronligi davri muhim o'rin tutadi. Muhammad Rahimxon I mamlakatni markazlashtirish, uni qudratli davlatga aylantirishda qattiqqo'llik bilan ish tutdi. Siyosiy tarqoqlikka harakat qilayotgan mahalliy hukmdorlarga qarshi beshafqat kurashdi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshuviga ko'p jihatdan bog'liq edi. Ana shuni yaxshi his qilgan Muhammad Rahimxon bu borada qator islohotlarni amalga oshirdi.

Muhammad Rahimxon I xonlikning ma'muriy boshqarilish tartibini tubdan o'zgartirdi. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli bekliliklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklarda hukmdorlar o'z qo'llariga juda ko'p mol-mulkni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. SHuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va mamlakatni ma'muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo'ldi. Keyinchalik 26 ta hokimlik tashkil etildi⁵⁴. Viloyat hokimliklari esa, o'z navbatida, masjid-qavmlarga bo'lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid-qavm bo'lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan, masjid-qavmlarining qozi va oqsoqollari esa viloyat

⁵³ Гулямов Я. История орошения Хорезма. – С.199-202.

⁵⁴ Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар // Қўлёзма, ЎзФАШИ. – №9320. А.Болтаевнинг маълумотларига кўра, Асфандиёрхон замонида хонликда қуйидаги бекликлар бўлган: Ҳазорасп - ҳоким Исмоилхўжа Исломжоннинг акаси, Остона - ҳоким шайх ул-ислом, Урганч - ҳоким Ол-ло-бер-танбий, Кот - ҳоким Абдулла инок, Тошцовуз - ҳоким Жуманиёз маҳрам, Қўшқўприк - ҳоким ка-товул, Оқдарбанд - ҳоким Ниёз маҳрам, Гурлан - ҳоким Муҳаммад Шарифбой, Кўк Қашка - ҳоким, Қўнғирот - ҳоким Қутлимуродбой, Кўхна Урганч - ҳоким Нурмуҳаммад девон, Илонли - ҳоким Бобо девон, Тахта - ҳоким, Хонқа - ҳоким Муҳаммадхўжа Щожибой, Шоббоз - ҳоким Бектош оталиқ, Манок - ҳоким Нуржон Баҳодир, Ғазибод - ҳоким юзбоши, Шайх - ҳоким юзбоши, Манғит - ҳоким Муҳаммад Ниёзбой, Хўжайли - ҳоким Ёрмуҳаммадбой, Хўжайли - ҳоким Азизбий хўжа, Чуманай - ҳоким Абдул Раҳимбой, Тўрчи - ҳоким, Оқтепа - ҳоким, Қороғон - ҳоким, Хитой - ҳоким. Яна қаранг. Сабурова С. С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Т., 2002. –Б. 92; Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бшқаруви тарихидан. - Б.63-64.

hokimlari tomonidan tayin etilgan. Hokim va mahalliy hukmdorlar el orasida hurmat-e'tibor qozongan kishilardan tayinlanadigan bo'ldi⁵⁵.

Xiva xonligini Rossiya bosib olgach (1873) ham ichki boshqaruvda bu tartib to'la saqlanib qolgan. Lekin aynan shu davrda, ma'lum ma'noda, davlat mansablariga tayinlash tartibida ba'zi o'zgarishlar, jumladan, poraxo'rlik nisbatan keng yoyila boshlagan.

Sovet davri tarixshunosligida aynan shu davrdagi ma'lumotlar ko'proq tahlil qilinib, butun oldingi davr davlatchiligimizda mansabga qo'yish tartibi tamoman qoralangan edi. Jumladan, Safarov Bobojonning "Xorazm tarixi" asari 8-bobi "Xonning amaldoru mansabdorlarni tayinlash tartibi" deb atalib, unda quyidagi ma'lumotlar bor: "Tamomi amaldoru mansabdorlarni xon o'zining xohlag'an odamlaridan tayin qiladur. Birovni mansabga qo'yishda, birovni mansabdan tushirishda hech birovdan maslahat so'ramaydur. Sipohi⁵⁶ amaldorlarning 95 firosanti savodsiz, omi shaxslardan edi. Xon o'z ixtiyoricha amaldorlardan birlarin bo'shatib qamoqqa olib, mol-mulklerin musodara qilishqa huquqli edi. Butun mansabdorlar naqib orqali xon devoni hisobidan o'tub, mirzaboshi tomonidan yorliq berilur edi. Mansabdorlar mansabning martabasiga qarab, oshoqi ishlardan besh yuz tillog'a qadarli amaldor tayinlanuvchidan yorliq puli olinur edi"⁵⁷. Bu ma'lumotga oid fikrlar O'zbekiston SSR tarixi, Xorazm tarixiga oid kitoblarda ham ko'plab keltirilgan⁵⁸.

Xiva xonligi davrida yozilgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlar esa o'sha zamonda bo'lib o'tgan voqealar qandayligi haqida nisbatan ishonchliligi bilan ajralib turadi. Masalan, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874) tomonidan yozilgan tarixiy asarlarda, jumladan, uning "SHohid ul-iqbol" idagi mansablarga qo'yilish bilan bog'liq ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Ogahiy Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1864-1910)ning ustoz, maslakdoshi va xonlikdagi yuqori mansabdor shaxs sifatida saroydagi ko'p voqealarning guvohi va

⁵⁵ Хива – 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. –Урганч, 1997. – 65 б.

⁵⁶ Sipohi – harbiy.

⁵⁷ Сафаров Бобожон. Хоразм тарихи. ЎЗР ФА шарқшунослик институти, 1-фонд, 10231-рақамли қўлёзма.

⁵⁸ История Узбекской ССР. Том первый. Ташкент: Фан, 1967; Ўзбекистон ССР тарихи. Иккинчи том. Тошкент, 1971; История Хорезма с древнейших времен до сегодняшнего дня. Ташкент: Фан, 1976.

ishtirokchisi edi. SHu sababli ham uning ma'lumotlari ishonchlidir. Tarixdan ma'lumki, har qanday yangi hukmdor, rahbar hokimiyat ustiga kelgach, o'ziga yaqin va ishonchli kishilarni atrofidagi muhim lavozimlarga tayinlagan. Xuddi shuningdek, Ogahiy ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, Muhammad Rahimxon II hokimiyatga kelgan dastlabki yillarida (1864 yildan boshlab) mavjud eski mansabdorlarni olib tashlab, o'ziga yaqin bo'lgan sadoqatli kishilarni xonlikdagi yuqori mansablarga qo'ygan. Bular qatoriga Muhammad Murod devonbegi, Abdullaboy mingboshi kabilarni kiritish mumkin⁵⁹:

“Jum'a oqshomi erdi hazrat zilli subhoniyy⁶⁰ saltanat umuri intizomi va mamlakat masolihi istikmoli uchun Xudoynazar devonbegini devonbegilik va muzakkiylik mansabidin ma'zul etib, aning o'rnig'a Muhammad Murod mahramnikim, ul hazrat tufuliyat zamonidin to bu saodatlig' avong'acha davlat yonglig' hamdam bo'lub, xizmatnigorlig' bobida jonsiporlig' qilg'an qadimiy xodimlarining sarbalandi va boshidin qadam qilib sadoqat rasmda havodorlig' ko'rguzgan boyiri mulozimlarining arjumandi erdi va bag'oyat donishmandu farosatpayvand va sohibviqoru diyonatosor va davlatg'a loyiqu tarbiyatg'a muvofiq kishi erdi”⁶¹.

Yana bir misol keltiradigan bo'lsak: “Yakshanba kuni hazrat zilli subhoniyyning ra'yi olamoroyining muqtazosi bila mamlakat umurining intizomi va ra'iyat behbudining iltizomi uchun Muhammad Rahim mehtarni vazirlikdin azl etti va aning o'rnig'a ixlospanoh, e'tiqoddastgoh Abdulloh mingboshining qobiliyati qomatin vazorat mansabining ziynatlig' xil'ati bila muzayyan qilib, aksar umuri mulkiya saranjomin aning royi xiradparoyig'a mufavvaz etib, o'z aqronu ashbohining qoshida, balki olam xalqining arosida quyoshdek mumtozlig' va sarafrozlig' yetkurdi. Va aning o'g'li Abdurahmon mahramni aning o'rnig'a

⁵⁹ 1281 yil jumadus soniy / 1864 yil noyabr oyi voqealari o'rnida.

⁶⁰ Zilli subhoniyy - Muhammad Rahimxon II nazarda tutilayapti.

⁶¹ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 48-бет.

mingboshilig'ning oliy mansabig'a mansub etib joh va ehtishomi boshin falak hisori zurvasidin oshurdi"⁶².

Ko'rib turganimizdek yuqoridagi misol va boshqa holatlarda mansabdor o'rniga uning o'g'lin qo'yish an'anasi ham mavjud bo'lgan. Bunga boshqa bir misol⁶³: "Orol qo'ng'irotining umarosidin Muhammad Yusufboy Qo'ngrotida marazi tab'iiy bila jahondin rihlat qildi. Mazkur oyning avositida aning vafoti xabari dargohi jahonpanoh mulozimlarig'a keldi. Hazrat zilli subhoniyy kamoli shafqat va bandaparvarlikdin aning favti fotihaxonliqi uchun o'z tarafidin arkoni davlat akobiridin Muso mutavalliyni buyurib, oshu obi uchun yuz tillo berib yibordi. Va mazkur biyning o'g'li Hayniyozbekni hamkim... hazrat zilli subhoniyy kamoli karamidin anga muruvvat va shafqat ko'rguzub, atosining o'rnig'a biylik mansabig'a nasb etti"⁶⁴. Otasi dunyodan o'tgach, podsho tomonidan o'g'lini uning o'rniga qo'yilishiga asardan boshqa misollar ham keltirish mumkin⁶⁵. SHu bilan birga agar mansabdorning o'g'il farzandi bo'lmasa, uning o'rniga ukasi yoki amakisi qo'yilganligi to'g'risidagi misollar xam asarda ko'plab uchraydi⁶⁶.

Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasidagi Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ba'zan, o'z kasbini yaxshi egallamagan yoshlar ish topishga qiynaladilar. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligida ham madrasada uzoq vaqt bilim olgan talabalar maxsus imtihonlardan o'tkazilgandan keyingina, turli diniy va dunyoviy mansablarga qo'yilganlar. Bunda shaxsan Muhammad Rahimxon II ning shaxsan o'zi diniy ulamolar bilan madrasa bitiruvchilari imtihonida ishtirok etgan⁶⁷: "SHaharda madrasalardin va xilvatguzin bo'lg'an tolibi ilmlardin dars tamom etib, masoili diniya va ulumi ayniyag'a mahorat paydo qilg'anlarning otlarin xatg'a olib, fazlu kamollarin bilmak va podshohona tarbiyatg'a maxsus

⁶² Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 51-бет.

⁶³ 1281 yil zulqada / 1865 yil aprel oyi voqealari o'rinda.

⁶⁴ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 51-55-бетлар.

⁶⁵ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 64, 122-бетлар.

⁶⁶ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 109, 124-бетлар.

⁶⁷ 1282 yil muharram / 1865 yil may-iyun oyi voqealari o'rinda.

tutub, mansabdor qilmoq uchun barchasin bir necha oqshom muborak huzuriga talab qildi. Va ulamoyi izom saromadlaridin aqza-l-quzot, mutooliyi darajot, jome'u-l-ulum va-l-masoyil qozi Abdurahim Eshon bila fazilatanis, diyonatjalis, hoviyyu-l-funun va-l-fazoyil Eshmurod raisni mummayyiz qilib, mazkur duomullolarning har biriga tanhovaqt intishob kitoblardin uch kitobnikim, biri - "Tavzeh", biri - "Hidoya" va biri - "Mutavval" dur, berib, har biridin bir mas'ala o'qutub, ma'nododlig' qildurdi. Sof va durust mutolaa qilg'anlarni iltifoti xusravonasig'a mashmul tutub, shariat ahkomin joriy qilmoq uchun mamoliki mahrusani muzofotu aqtoridag'i shaharlarning va qal'alarning burung'i qozi va rais va o'zga mansabadorlarin ma'zul etib, alarning o'runlariga qoziyu rais va muftiyu mudarris qildi"⁶⁸.

Mansabda o'tirgan, lekin azbaroyi yumshoqligi va odamlar bilan muomalani o'rniga qo'ya olmaydigan mansabdorlarni ham podsho almashtirar edi⁶⁹: "Arkoni davlat akobiridin Muhammad Ya'qub mahramkim, ko'p muddatdin beri Toshhavz qal'asining hukumati va tarokima tavoyifidin toza qo'ngrot sipohining va qarodoshlu lashkarining sarkardaligi anga mufavvaz erdi, bag'oyat devonavor va majnunshior kishi erdi. Aning bu ... af'loi va ... aqvoli va nopisandida muomala va gustoxliklari hazrat zilli subhoniyning xotiri adolat tavomonig'a yoqmay, hamul mansablaridin ma'zul etib, ostoni sipehrnishon xizmatiga kelturdi. Va aning o'rniga rabi'us soniy oyining yigirmasida, dushanba kuni umaroyi sohibshavkat uzamosidin qipchoq dumonig'a foyiqi izzatnishon Hakim Niyoz otaliqni Toshhavz qal'asining elatiga nomzod qildi. Va Qiyot xonadonining muntaxabi rif'atmakon Bobo biyni qarodoshlu ulusinng sardorliqi bila sarafroz etti"⁷⁰.

Demak, biz misollar keltirgan Ogahiyning "SHohidu-l-iqbol" tarixiy asariga asoslanadigan bo'lsak, Muhammad Rahimxon II taxtga o'tirganidan so'ng, XIX asr 60-yillari o'rtalaridan boshlab, Xiva xonligidagi ko'p mansabdorlar o'z vaziflaridan bo'shatilib, ular o'rniga nisbatan kuchliroq kadrlar qo'yilgan yoki

⁶⁸ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 57-58-бетлар.

⁶⁹ 1282 yil 20 rabius soniy / 1865 yil 11 sentyabr voqealari o'rnida.

⁷⁰ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 65-бет.

muayyan mansabga yangi kishini belgilashda bilimli mutaxassislar tanlangan. Ba'zida dunyodan o'tgan mansabdor o'ringa uning o'g'li tayinlangan. Bunda otasi ishini kuzatib yurgan farzand bu ishni uddalay oladi degan yo'ldan borilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xiva xonligida mansablarga to'g'ri kelgan layoqatsiz kishilar tayinlanmagan. Aksincha, ma'lum bir hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan, boshqarish qobiliyati va muomala madaniyati yuqori bo'lgan kishilar qo'yilgan.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshirishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Ana shuni his qilgan Muhammad Rahimxon I bu borada qator islohotlar o'tkazib, quyidagilarni amalga oshirdi:

1. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli bekliklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklardagi hukmdorlar esa o'z qo'llariga juda katta yer-mulklarni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. SHuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I xonlik hududida bekliklarga bo'linishni bekor qildi va mamlakatni ma'muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo'ldi. Keyinchalik esa 26 ta hokimlik tashkil etildi.

2. Viloyat hokimliklari esa, o'z navbatida, masjid-qavmlarga bo'lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid-qavm bo'lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan, masjidning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan. Hokim va mahalliy hukmdorlar el orasida hurmat-e'tibor qozongan kishilardan tayinlanadigan bo'ldi.

3. Davlat hokimiyatining boshqaruv tizimi tartibga keltirildi, u ixchamlandi va qisqartirildi. Ma'lumki, Abulg'oziy Bahodirxon zamonida xonlikning boshqaruv tizimida 360 ta lavozim ta'sis etilgan bo'lib, bu davlatni idora qilishda ancha qiyinchiliklarni tug'dirib kelayotgan edi. Endilikda boshqarish tizimida ortiqcha lavozimlar bekor qilindi va quyidan yuqorigacha 100 ta lavozim ta'sis etildi. Boshqaruv apparatining lavozimlariga xon tomonidan bilimli va tajribali amaldorlar tayinlanib, ularga vazifasiga qarab ish haqi belgilandi. Davlat

apparati xodimlariga to'lanadigan ish haqi uchun fuqarolardan o'zboshimchalik bilan pul to'plash huquqlari qat'iy ta'qiqlandi.

4. Oliy Kengash deb ataluvchi boshqarish organi ta'sis etildi. Oliy Kengash davlat hokimiyatining eng yuqori organi bo'lib, u qonun chiqaruvchilik, ma'muriy boshqarish va Oliy sud vazifalarini bajardi.

5. Pul muomalasini tartibga keltirish borasida ibratli ishlar amalga oshirildi. O'sha vaqtda xonlikda Buxoro xonligida zarb etilgan mis tangalar muomalada bo'lib, pulning qadrsizlanish darajasi eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan edi. Bu savdo-tijorat ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Muhammad Rahimxon I Ko'hna Arkda maxsus zarbxona tashkil etdi. Bu yerda oltin, kumush va misdan yasalgan xonlikning o'z pullari-tangalari zarb qilina boshladi.

6. Soliq tizimi tartibga keltirildi. Avvalgi mahsulot bilan yig'ib olinadigan soliq-xiroj o'rniga pul solig'i - solg'ut joriy qilindi.

Xonning maxsus yorlig'i bilan taqdirlangan mulkdorlar, saroy a'yonlari, ulamolar va navkarlar soliq va natural majburiyatlardan (qozuv, qochuv, begor kabi) ozod etildi. SHuningdek, boquvchisini yo'qotgan kambag'al oilalar, yetim-esirlar va nogironlar ham soliq to'lovidan ozod etilgan edi.

Soliq solish va uni yig'ib olish markaziy hokimiyat qo'liga o'tdi va endilikda soliq daftarlarida rasmiylashtirildi. Solg'ut avvalgidek xohlagan vaqtda emas, balki kuzda - hosil yig'ishtirib olingandan keyin to'planadigan bo'ldi. Soliq miqdorini qat'iy belgilanganligi mulkdorlarda yer mulklarini hamda undan olinadigan daromadni ko'paytirish manfaatlarini oshirdi, ularning bozor bilan aloqasining yanada yaxshilanishiga olib keldi. O'z navbatida, hukumatning soliq siyosatida vujudga kelgan muayyan tartib xonlikning moliyaviy imkoniyatini oshirdi, bu esa mamlakatda bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini yanada kengaytirishga moddiy zamin yaratdi.

7. Mamlakatning harbiy qudratini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Harbiy sohada amalga oshirilgan bir qator tadbirlar tufayli xonlikning harbiy qudrati mustahkamlandi, uning muntazam armiyasi vujudga keldi.

8. Qo'shinlarining tashkiliy tuzilishi va harbiy taktikasida ham jiddiy o'zgarishlar yasaldi. Xonlikning qayta tashkil etilgan harbiy qo'shini uning kuch-qudratining asosiy tayanchi bo'ldi.

Har bir davlatni boshqarishda amaldor shaxslarning o'rni katta. O'rta Osiyo xonliklarida ham oliy hukmdor o'z hukmronligini maxsus mansabdorlar, xodim va xizmatchilari orqali amalga oshirgan.

Biz bir qator amallar, mansab va unvonlarni, ular egalarining vazifalarini Xiva xonligida joriy bo'lib, amal qilishini ko'rdik. SHu narsa ma'lum bo'ldiki, mazkur davlatda markaziy hukumat kuchli bo'lganida aholi tinch va totuv yashagan. Davlat barqaror va kuchli bo'lgan. Aksincha qaysi davlatda markaziy hukumat zaif bo'lsa, unda o'zaro janjal va nizolar, boshboshdoqlik ko'payib xalq bunday olishuvlardan azob chekkan.

Muhammad Rahimxon I yuqoridagi muhim tadbirlarni amalga oshirishda, uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy tayanchga muhtoj edi. O'rta hol va mayda mulkdorlar toifasi, sartlar, musulmon ruhoniylari, turkman navkarlari va qoraqalpoq biylari xonning ishonchli tayanchi bo'ldi. CHunki ular kuchli hokimiyatdan manfaatdor edilar.

Muhammad Rahimxon I ning vorislaridan bo'lgan Sayid Muhammad Rahimxon II ham o'z hukmronligi davrida Xiva xonligida otadan-bolaga meros bo'lib kelayotgan ko'p mansablarni qonun yo'li bilan bekor qildi. Lekin ko'p unvonlarning egalari xazinadan olayotgan maosh va ba'zi imtiyozlaridan mahrum bo'lsalar ham unvonlarini faxriy unvon sifatida saqlab qolganlar. Aytib o'tish joizki, Xorazm o'lkasida hech bir davrda Muhammad Rahimxon II hukmronligi davridagidek ijod ahli yetishib chiqmagan. SHuningdek, bu ma'rifatparvar hukmdor davrida qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda sug'orish inshootlari qurish sohasida, me'moriy qurilishlar, ilm-ma'rifatni taraqqiy ettirish, obodonlashtirish sohalarida juda katta ishlar amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi choragi Xiva xonligi tarixida muhim o'zgarishlar davri bo'ldi. Xiva xoni Muhammadrahimxon o'tkazgan islohotlar tufayli davlat hokimiyati markazlashdi. Ma'muriy boshqarishning ancha

takomillashgan tizimi qaror topdi, xonlikning iqtisodiy va harbiy qudrati mustahkamlandi. Lekin bu jarayon uzoqqa bormadi. 1873 yilda Xiva xonligi ham O'rta Osiyoning boshqa xonliklari qatori, chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Xiva xonligi chorizmning sof mustamlakasi bo'lib qoldi. Xonning butun faoliyati Rossiya hukumati nazorati ostiga o'tdi. Xonning muntazam harbiy qo'shinlari tarqatib yuborildi. Xivada maxsus rus qo'shinlari saqlandi. Xonlikning moliyaviy ishlari, soliq tizimi va xazinasini rus harbiylari nazorati ostiga olindi. Oliy Kengash ishida ham rus ofitserlari qatnashadigan bo'ldi. Hukumat lavozimlariga ham ular ma'qullagan amaldorlarga tayinlangan. Xiva xoni davlatni idora qilishda o'z mustaqilligidan batamom mahrum bo'lgan edi.

1.3. Kengash instituti va uning davlat boshqaruvini amalga oshirishdagi ahamiyati

Qadimgi davrdan boshlab turkiy davlatchilikda Kengash, Qurultoy institutlari mavjud bo'lib, ular davlat boshqaruvini amalga oshirishda muhim o'rin tutgani ma'lum. Kengash (arabcha Mashvarat, turkcha CHonchi) instituti kabilalar ittifoqi va ilk davlatlar shakllana boshlagan davrdayoq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarishni tartibga solib turuvchi maxkama sifatida paydo bo'lgan. «Avesto»da V'yaxa – xalq yigilishi, Xanjamana – Oqsoqollar kengashi xaqida keltirilgan ma'lumotlar buni tasdiqlaydi. Xiva xonligida Kengash instituti faoliyatini yoritishdan oldin, bu davlat idorasi tarixiga qisqacha nazar solib o'tamiz.

Davan va Qang' davlatlarida davlat boshqaruvida, mamlakat hayotiga tegishli muxim masalalar bo'yicha qarorlar chiqarishda Oqsoqollar Kengashi katta o'rin tutgani haqida Xitoy manbalarida ma'lumotlar mavjud⁷¹. Turk hoqonligi davrida ham davlat ahamiyatiga ega muhim masalalarni Qurultoy (Oqsoqollar Kengashi) chaqirish orqali hal kilingan⁷². Qurultoy instituti faoliyati keyingi davrlarda ham o'z ahamiyatini saqlab keldi. U yangi xonni saylash, urush va sulh tuzish, soliqlar va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha qarorlar chiqarish xuquqiga ega bo'lib, uning qarorlarini bajarish barcha uchun shart hisoblangan.

Xorazmshohlar davlatida mutlaq hokimiyat davlat boshlig'iga, ya'ni Xorazmshohga tegishli edi. SHu bilan birga Markaziy davlat boshqaruvida “Al-majlis ul-oliy al-faxri at-toji” deb nomlangan maxkama kata o'rin tutgani ma'lum. Unga raislik qilgan Vazir Xorazmshohga bevosita buysunar va hukmdorning bosh maslahatchisi edi. Bu maxkamaga quyidagi masalalar yuzasidan Xorazmshohga maslaxat berish vazifalari yuklatilgan edi: asxob ad-davovin, ya'ni devon amaldorlarining boshlig'i sifatida kishilarni yuqori mansabga tayinlash va bo'shatish, davlat amaldorlariga nafaqa (arzak) belgilash, davlat amaldorlarining

⁷¹ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трех частях. – Алматы: ТОО “Жалын Баспасы”, 1998. Ч. II. – С. 145-348

⁷² Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – СПб.: СЗКЭО Кристалл, 2003.

ta'minotini amalga oshirish, soliq va xazinani nazorat qilish, xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarni belgilash va tashkillashtirish, xukmdorning raiyat bilan munosabatlarida vositachilik qilish, ba'zi paytlarda qo'shinga bosh qomondonni tayinlashda ishtirok qilish va boshqalar. Bu Kengash a'zolari yuqori darajadagi amaldorlar bo'lib, Bosh Vazir kabi turk tilidan tashqari arab hamda fors tilini bilishi, saroy odobi singari bilimlarga ega bo'lishi shart bo'lgan⁷³.

Amir Temur davlatining markaziy ma'muriyati bosh vazir - Devonbegi boshliq yetti vazirlikdan iborat arkoni davlat - vazirlar mahkamasi tomonidan boshqarilgan. Davlat boshqaruvida saroydagi Dargoh - Maxsus kengash ham katta o'rin tutgan. Bu kengash ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalarini, hokimiyatning yuqori amallariga mansabdor shaxslar tayinlash va boshqa masalalarni muhokama qilgan. Dargoh tizimida arzbegi, tovachi, xojib, jibachi, qushbegi, xazinador, xonsolar, bakovulboshi, kotib, munshi, bitikchi va boshqa saroy amaldorlari faoliyat ko'rsatganlar. Bu davrda boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lib, dargohni oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo'lgan⁷⁴.

Amir Temur saltanat ishlarida o'zining pirlari maslahatlaridan ham keng foydalangan. "Temur tuzuklari"da sohibqironning pirlari va ularning ko'rsatmalari bayoni berilgan. Asli xurosonlik yirik shayx bo'lgan Zaynuddin Abubakr Toyobodiy Amir Temurga davlat boshqarish ishlarida kengash, mashvaratu maslahat, xushyorlik, ehtiyotkorlik amallariga rioya etishni maslahat bergan ma'lum. SHuningdek, Sayyid Baraka, Mir Sayyid SHarif Jurjoni, Termiz sayyidlaridan Ala-al mulk, Abu-l-Maoliy va Ali Akbarlarning amir Temur davlati dargohlaridagi mashvaratu-kengashlarda faol ishtirok etganlari "Temur tuzuklari"da bayon etilgan⁷⁵.

Xiva xonligida davlat boshqaruvi tartiblarini yoritganda yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish kerak. CHunki, Xiva xonligida Buxoro amirligi va

⁷³ Батафсил қаранг. Буниятов З.М. Хоразмшоҳ Ануштегинийлар давлати. – Тошкент, 2001.

⁷⁴ Улжаева Ш. Амир Темур салтанати. – Тошкент, 2007.

⁷⁵ Темур тузуклари. – Тошкент, 2010.

Qo'qon xonligidan farqli ravishda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash amal qilgan. Bu Kengash (devon) ma'lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi: inoq, mextar, naqib, qushbegi, devonbegi, shayx ul-islom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, arbob, miroxo'r va boshqalardan iborat edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu Kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rmini e'tirof etish zarur. Kengash majlisida boshqa amaldorlardan ham ko'proq mextar, qushbegi, devonbegi, inoq, shayx ul-islom va yasavulboshi hal etuvchi ovozga ega edilar. Kengash masalalarini hal etish darajasiga qarab Xon xohishi bilan majlis bo'lar edi⁷⁶.

Bu Kengash garchi davlat tashkiloti sifatida rasmiylashmagan bo'lsa-da, uning qarori xonning qaroridek ko'rilsada, lekin amalda bu Kengash yuqori qonun chiqaruvchi ma'muriy hokimiyat edi. Oliy Kengash Xiva xonligida yagona grajdanlik (fuqarolik) va jinoiy ishlar sudi hisoblanardi. Kengashda ishtirok etgan amaldorlar xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar bo'yicha qaror qabul qilar va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabatlariga doir muammolarni ham hal etardi. Buni XIX asrda Xivaga kelgan chet el elchilari yozib qoldirgan ko'pgina xotiralarda bildirilgan faktlar tasdiqlaydi⁷⁷.

Muxammad Raximxon o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lgan urug' oqsoqollari kengashi o'rniga Oliy Kengash ta'sis etdi. U kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqini berdi, to'g'rirog'i amr qildi⁷⁸.

Xonning maslahatchilari bo'lgan oqsoqollar ma'lum bir fikrga kelganlaridan keyingina ularning qarorini mehtar xonga bildirar edi. Kengash majlisi qarornoma

⁷⁶ Сагдуллаев А., Аминов Б., Норкулов Н., Мавлонов Ў. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 241–242; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126–127; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395–396.

⁷⁷ Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Муҳаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 53–231.

⁷⁸ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395–396

tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Garchi, Kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muxokama qila olsa-da, biroq muxokama qilingan masalalar va kengashning fikri, dastavval, xonning xohish irodasiga bog'liq bo'lgan.

Xiva xonligida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha masalalarni hal etish va tegishli qarorlar qabul qilish uchun xon saroyida maxsus majlis – Kengash o'tkazilishi shart bo'lib, bu holat oliy hukmdorning huquqlarning biroz cheklanganligini, uning faoliyati urug' boshliqlari, ruhoniylar, harbiy-ma'muriy amaldorlar tomonidan nazorat qilinib turilganligini, davlat boshlig'i rasman xon bo'lsa-da, amalda davlat boshqaruvida saroy amaldorlaridan va dindorlardan iborat kengashning ahamiyati ham yuqori bo'lganligini ko'ramiz. Xon avlodi jihatidan qanchalik oqsuyak bo'lmasin, agar u aqli, boyligi yoxud boshqa fazilatlar bilan o'ziga ko'p tarafdorlar yig'ishni uddalay olmasa, uning so'zi Kengashda hal qiluvchi qarorga ega bo'lmasdi.

SHu tariqa, Kengash instituti qadimgi davr va o'rta asrlar davrida davlat boshqaruvida, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy masalalarni hal qilishda davlat rahbarining asosiy suyanchi sifatida faoliyat yuritgan. Ayrim xollarda davlat boshligini hokimiyatdan chetlatish masalalari bo'yicha ham saroydagi yuqori darajadagi amaldorlar Kengashi tomonidan qaror qabul qilinganligi ma'lum.

2 bob. Xonlikda saroy qabul marosimlari: an'ana va o'ziga xosliklar.

2.1. Xonlikda taxtga merosxurlik an'anasi, Xonni taxtga o'tqazish marosimi va uning o'ziga xos jihatlari.

Mo'g'ullar davrida bo'lib tashlangan, Temuriylar davrida goh Samarqand, goho Xurosonga bo'ysungan Xorazm SHayboniyxon (1505 y) va Ismoil Safaviy (1510 y) bosqiniga duch kelib, SHaybonixon vafotidan so'ng tez orada ozodlik uchun kurashni boshladi⁷⁹.

Xorazm vohasi va uning atroflaridagi hududlarda xalq ozodlik harakati 1511 yilda boshlandi. Vazir shahri ulamolari qozi Xo'ja Umar boshchiligida madad so'rab Boqirg'onda bo'lgan Sayyid ato avlodidan Hisomuddin Qittolga murojaat qilib, uni Xorazmga kelib taxtni egallashni so'radilar. Lekin u Berke sulton o'g'li Elbarsxonni Xorazmga, Vazir shahriga yuboradi⁸⁰. O'zbeklarning shaharga yaqinlashib kelayotgandan xabar topgan aholi kechasi qizilboshlarni Ismoil Safaviyning gumashatasi dorug'a Rahmonqulibek boshchiligida o'ldira boshladilar. G'alaba haqida Abulg'ozi shunday yozadi: "Ulug' to'y qilib, o'zbek va sart barchasi yig'ilib ittifoq bilan tarix to'qqiz yuz o'n birda va qo'y yilinda Elbarsxonni xon ko'tardilar"⁸¹.

O'rnatilgan tartibga ko'ra xonni taxtga o'tqazish marosimi asosan poytaxt maqomidagi shaharda bo'lib o'tgan. Siyosiy boshbodoqlik, taxt uchun kurash kuchaygan yillarda bu tamoidan chekinish hollari ham bo'lgan albatta. Umuman olganda, Xorazm davlatida poytaxt Xivaga ko'chirilguncha dastlab Vazir shahrining, keyin esa Ko'hna Urganchning Xorazm poytaxti sifatidagi siyosiy mavqei yuksak bo'lgan. Buni quyidagi misollardan ham ko'rish mumkin.

Manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilsak, Xorazm xonlarining dastlabki ikkitasi, ja'mi bo'lib to'rttasi Vazir shahrida taxtga o'tqazilgani ko'ramiz. Ular 1511-1516 yillarda xonlikni boshqargan Elbarsxon (Berka Sultonning o'g'li),

⁷⁹ Абулғози. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон. 1992. – Б. 121; Муниров Қ. Мунис, Оғаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 6.

⁸⁰ Ҳасан Мурод Муҳаммад Амин ўғли. Элбарсхонни Хоразм келиб хон бўлмоқ сабаблари. // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. - №12581. 24б.

⁸¹ Абулғози. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон. 1992. – Б. 121. Бу сулоланинг насаби ҳақида қаралсин: Абд ал-Кадир ибн Муҳаммад-Амин. Маджда' ал-ансаб ва-л-ашдҷар. Введение, перевод с арабского-персидского и тюркского, текст, факсимиле автографа, комментарии и указатели Ш. Х. Вохидова, А. М. Муминова, Б. Аминова. – Алматы: Дайк-Пресс. 2005. - С. 190.

1516-1517 yillarda taxtda o'tirgan Sultonxoji (Belikach Sultonning o'g'li), 1547-1556 yillarda xon bo'lgan Aqatoyxon (Amnakxonning o'g'li) hamda 1559-1602 yillarda xonlikni boshqargan, dastlab Vazir shahrida xon bo'lib, 9 yildan keyin Urganchga kelib xon etib ko'tarilgan Xoji Muhammadxon (Xojim-xon)lardir. Abulg'ozi Bahodirxonning "SHajarai turk" asarida bu haqda muhim ma'lumotlar keltirilgan⁸².

1517 yildan boshlab Xorazm hukmdorlarini Ko'hna Urganchda Xon bo'lishi rasm bo'ldi. Bu shaharda Xonlik taxtiga o'tirgan birinchi hukmdor Hasanqulixon (Abulakxonning o'g'li) hisoblanadi. U Sultonxoji (Belikach Sultonning o'g'li) vafotidan keyin taxtga ko'tarilgan. Endilikda yangi xon taxti Vazirda emas, balki Urganchda joylashgandi. SHu davrga qadar Urganchda ark bo'lmagan. Eshsulton degan amaldor shahar arkini qurdirgan.

SHundan so'ng, 1517-1602 yillar oralig'ida Ko'hna Urganchda ja'mi 7 ta hukmdor taxtga o'tqazilgan. Ular quyidagi xonlardir:

1. So'fiyonxon (Amnakxon o'g'li) 1517-1522.
2. Buchg'axon (Bujakxon) (Amnakxonning o'g'li) 1522-1526.
3. Avanishxon (Amnakxonning o'g'li) 1526-1538.
4. Qolxon (Amnakxonning o'g'li) 1538-1547.
5. Yunusxon (So'fiyonxonning o'g'li) 1556-1557.
6. Do'stxon (Buchgaxonning o'g'li) 1557-1558.
7. Xoji Muhammadxon (Xojim-xon) 1559-1602⁸³.

Xiva shahrida dastlab xon bo'lgan kishi Do'stxon (Buchgaxonning o'g'li) bo'lib, u 1557-1558 yillarda Xorazmni boshqargan. 1602 yildan boshlab, Arab Muhammadxon hukmronligi boshlanishi davridan to 1920 yilda Xiva xonligi tugatilgunga qadar, xonlikda taxtga o'tqazish marosimlari poytaxt shahar maqomini olgan Xiva shahrida o'tkazib kelingan. Xivada Arab Muhammaddan boshlab ja'mi 32 ta Xonning taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tgan.

⁸² Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 114-123.

⁸³ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 241-243; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126-128; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 393-401.

Ma'lumki, o'zbek davlatchiligida Xonni taxtga o'tqazish marosimini tashkil etish tamoillari qadimdan ishlab chiqilgan edi. O'rta asr manbalarida bu haqda ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan⁸⁴. Xususan, taxtga o'tqazilayotgan hukmdorni oq kigizga o'tqazib, uning to'rt tomonini e'tiborli va mamlakatda yuksak siyosiy maqega ega bo'lgan urug' oqsoqollari ko'tarib borgan holda taxtga o'tqazilgan. Bu qadimiy turkiy odatga Xorazm hukmdorlari ham amal qilishgan. Abulg'ozixonning "SHajarai turk" asarida bu marosim tafsilotlari keltirilgan ma'lumot mavjud. Unga ko'ra "Urganchda Eshsultonni o'lturub va Hevaqda Do'st sultonni o'lturub **oq kigizning** bir kunjini Ali sulton va uch kunchini inisi tutib Hojimxonni o'rtada yerda o'lturtub, o'ttiz to'qqiz yoshina yetganda yilqi yilinda tarix to'qqiz yuz oltmish to'qquzda Urganch viloyatida xon ko'tardilar"⁸⁵. Muarrix Munisning xabar berishicha, Hojimxon o'zining 42 yillik hukmronligi davrida goh Urganch, goh Xivada yashagan⁸⁶.

SHu tariqa, Xon e'tiborli o'zbek urug'lari boshliqlari, islom dini peshvolari va o'zbek sultonlari tomonidan saylangan. SHu tufayli ham xon ular fikri bilan hisoblashishga majbur edi. Tarixiy manbalarda aks etgan qadimiy odatga ko'ra bo'lajak xonni taxtga ko'tarishda katta ta'sirga ega bo'lgan o'zbek urug'lari boshliqlari hamda e'tiborli din peshvolari ishtirok etganlar. Ular orasidan saylangan vakillar bo'lajak xonni oq kigizga o'tkazib taxtga eltganlar. Bu marosimlar odatda mamlakat poytaxtida bo'lib o'tgan. Odatda bu marosimda ishtirok etganlar keyinchalik nufuzli amal va mansablarga ega bo'lar edilar. Xonning taxtga kelishida yordam bergan qabila va urug'lar boshliqlari esa mamlakatdagi eng muhim viloyatlarga hokim etib tayinlanardi. Bu hokimlar odatda o'z urug'doshlaridan tuzilgan harbiy qo'shinlarga ham boshchilik qilardi. Bu holat ko'pgina o'zbek urug'larining amalda xon hokimiyatiga nisbatan mustaqilligini saqlab qolishga olib keladi. Xon tomonidan amalga ega bo'lgan

⁸⁴ Bunga SHarqning mashhur rassomi Behzodning Amir Temurning Samarqandda taxtga o'tqazilishi marosim aks etgan minatyurasini misol qilib keltirish mumkin. Unda Amir Temur Oq Kigizga o'tqazilib, to'rtta nufuzli amaldor tomonidan Samarqanddagi Ko'ktoshni aylantirilayotgani tasvirlangan.

⁸⁵ Абулғози. Шажарайи турк. ... – Б.150.

⁸⁶ Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. – Б. 670.

o'zbek urug'lari boshliqlari ba'zi hollarda o'ziga tobe qo'shinlar yordamida davlat boshqaruvida oliy hukmdorga nisbatan ham katta o'rin tutadilar. Ular rozilgisiz oliy hukmdor davlat ahamiyatiga ega bo'lgan birorta ham jiddiy qarorni qabul qila olmasdi. Bu holat oliy hukmdorning huquqlari biroz cheklanganligini, uning faoliyati urug' boshliqlari, ruhoniylar, harbiy-ma'muriy amaldorlar tomonidan nazorat qilinib turilganligini, davlat boshlig'i rasman xon bo'lsa-da, amalda davlat boshqaruvida saroy amaldorlaridan va dindorlardan iborat Kengashning ahamiyati ham yuqori bo'lganligini ko'ramiz. Xon avlodi jihatidan qanchalik oqsuyak bo'lmasin, agar u aqli, boyligi yoxud boshqa fazilatlar bilan o'ziga ko'p tarafdorlar yig'ishni uddalay olmasa, uning so'zi Kengashda, demakki davlat boshqaruvida hal qiluvchi qarorga ega bo'lmasdi. Ayrim xollarda Xonni hokimiyatdan chetlatish bo'yicha ham saroydagi yuqori darajadagi amaldorlar Kengashi tomonidan qaror qabul qilinganligi ma'lum. Bu holat ayniqsa, xonlikdagi siyosiy beqarorliklar davrida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Xiva xonligida idora tartib tamoillari, saroy qabul marosimlari, fuqoralarni qabul qilish tartiblari asrlar davomida sayqallanib, takomillashib borgan. Bu o'rinda Xiva xoni Abulg'ozi bahodirxon tomonidan o'tkazilgan boshqaruv islohatlarining ahamiyati katta bo'lgan. Akademik B.Ahmedov yozgandi: "Abulg'ozi hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzur-halovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush-talashlarda o'tdi"⁸⁷. Darhaqiqat Abulg'ozi butun umrini taxt uchun kurash va jangu-jadallarga bag'ishlagan fotih desa, mubolag'a bo'lmas. Ammo u davlat arbobi sifatida ham juda katta qobiliyatli inson edi. Dastavval u xonlikda boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tiborni qaratadi. Uning davrida turkmanlarning siyosiy hayotga aralashishlari cheklandi. Xonlikni boshqarishda o'zbeklarning mavqei ortib bordi⁸⁸ va ularning 360 vakili xon saroyida turli

⁸⁷ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 219.

⁸⁸ Қўшжонов О., Дурдиева Г. Хива хонлиги туркманлари. – Хива, 2008. – Б. 11.

lavozimlarga ko'tarilganini Munis "Firdavs ul-iqbol" asarida keltiradi. Xon yangi amaldorlardan 32 nafarini mahram qilib, o'z yoniga oldi⁸⁹.

Xorazmga Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi qabilalarni o'troqlashtirish tadbirlari ham Abulg'ozining ichki siyosatida muhim o'rin egalladi. Ular to'rtta guruhga bo'linib, Buxoro bilan chegara bo'lgan Doyaxotun (Darg'onota yaqinida) dan tortib, to Orolgacha bo'lgan yerlarga joylashtirdi. To'pa deb atalgan bu guruhlarining kattalaridan biri — uyg'ur va nayman qabilalari tashkil qilib, ularga do'rman, yuz, ming, shayx, burloq kabi kichik urug'lar ham qo'shildi. Uyg'urlarga Hazorasp bekligining chekka qishlog'i Pitnakdan tortib, Yangiariqqacha bo'lgan yerlar, naymanlarga esa Yangiariqdan to Gurlangacha bo'lgan hududlar ajratildi.

Qiyot–qo'ng'irotlar to'pasiga o'zbeklarning jaloyir va turkmanlarning alieli urug'lari ham birlashtirilgan bo'lib, ularga SHovotdan Qo'ng'irotning Quyg'un degan joyigacha bo'lgan yerlar ajratildi. Uchinchi to'paga — nukus-mang'it qabilalari birlashtirilib, ularga kenagas va xo'jaeli urug'i kiritildi. Qang'li–qipchoqlar alohida to'paga ajratilgan bo'lib, unga ko'chmanchilarning yana bir nechta urug'lari birlashtirildi⁹⁰.

Gurlandan to Lavzan kanaligacha bo'lgan hududlar hamda Amudaryoning quyi qismida nukus va mang'it qabilalari joylashtirildi. Amudaryoning so'l sohilidagi Qipchoq atrofi, Ho'jaeli va Ko'ko'zak oralig'ida qang'li va qipchoq qabilalari joylashtirildi. Ular tarkibida Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbeklarning 14 urug'i ham o'rnashtirildi⁹¹.

⁸⁹ "Андоқким икки шайх ул-ислом, икки қози, бир раис Саййид ота авлодидан, бир мутавалли, бир нақиб, тўрт оталиқ, тўрт иноқ, тўрт мироб, тўрт парвоначи, икки око, икки арбоб, тўрт чигатой иноқи, ва бар вазирким, холо меҳтар дерлар ва бир кушбеги, бу иккови ўринсиз хон хузурида оёқ устида турадилар" Мунис. Фирдавс ул-икбол. // Қўлёзма. №6 (фотонусхаси). 64 а,б вар; Мунис. Фирдавсул икбол. – Тошкент, 2010. – Б. 82; Яна қаранг: Ёўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эғалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.; Иванов П.П. Очерк истории каракалпаков // Труды ИВ АН СССР. Т. VII – С. 52.

⁹⁰ Мунис. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328. (прим.1); Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. – С. 36.

⁹¹ Мунис. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. – С. 328. (прим.1).

SHu tariqa, Abulg'ozixon hukmronligi davrida (1643-1663 yy.) Xorazm vohasida etnik munosabatlardagi chigalliklarga birmuncha chek qo'yilishiga erishildi⁹².

Xiva xonligida samarali boshqaruv islohatlari o'tkazgan hukmdorlardan biri Muhammad Rahimxon hisoblanadi. U mamlakatni markazlashtirish, uni qudratli davlatga aylantirishda qattiqqo'llik bilan ish tutdi. Siyosiy tarqoqlikka harakat qilayotgan mahalliy hukmdorlarga qarshi beshafqat kurashdi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshuviga ko'p jihatdan bog'liq edi. Ana shuni yaxshi his qilgan Muhammad Rahimxon bu borada qator islohotlarni amalga oshirdi⁹³.

SHu tariqa, ushbu bo'limda keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib quyidagilarni qayd qilish mumkin. Xiva xonligida oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i – xon tomonidan boshqarilardi. Odatda, qadimiy tarkiy davlatchilikda qaror topgan an'anaga ko'ra, hukmdor sulola (urug'-qabila)ning eng yoshi ulug'igina davlat boshlig'i – xon bo'lishga haqli edi. Lekin hukmdorning shaxsiy fazilatlariga ham katta e'tibor berilardi. Bu odatni biz XVI asrda dasht o'zbeklari asos solgan ikkita davlatda – Buxoro va Xiva xonligida yaqqol kuzatamiz.

Xiva xonligida **taxtga merosxo'rlik** masalasida ham ba'zi o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin. Dasht o'zbeklarida amalda bo'lgan qadimiy odatga ko'ra taxtga amaldagi xonning farzandlari emas, balki hukmron sulolaning eng yoshi ulug'i da'vogar (merosxo'r) hisoblangan. Bu tartibga qat'iy amal qilinmasada, lekin ayrim hollarda, xususan, XVI-XVII asrlarda taxtga merosxurlikning bu an'ansi kuchini ko'rish mumkin. Lekin bu tartibga qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida qat'iy amal qilingan deb bo'lmaydi, albatta.

⁹² Машарипова Г. Қадимги ва ўрта асрлар даврида Марказий Осиё ҳудудларидаги ўзаро этник муносабатлар (Абулғозий маълумотлари асосида) // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон (илмий-амалий анжуман). – Тошкент, 2003. – Б. 36-38.

⁹³ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 393-401.

XIX asrdan boshlab, taxtga munosabat masalasida oilaviy an'analar ustunligi to'la namoyon bo'ladi va bu holat odatiy holga aylanadi. Taxt merosxo'ri sifatida Xonning o'g'illari asosiy davogar bo'lib qola boshladi. Bunday odatning qaror topishida natijasida Xiva xonligida taxtga merosxo'rlik masalasida oilaviy manfaatlarining sulola manfaatlaridan to'la ustunlik qilganligini ko'ramiz. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida joriy qilingan taxtga merosxo'rlik tartibiga birmuncha qat'iy amal qilingan. Lekin, shunga qaramasdan, ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, Xiva xonligida taxtga merosxo'rlik masalasidagi davomiylik muayyan va aniq bir shaklga ega bo'la olmagan⁹⁴.

Xon saylash marosimida Kengashning ahamiyati rasmiy jihatdan yanada oshgan. Odatda, oldingi xon vafotidan so'ng «valiahd» Xon etib saylanar edi. Xon nomzodini ko'rsatishda Inoq, Mextar, Qushbegi va Yasovulboshi katta rol o'ynaganlar. Lekin yuqori tabaqa a'yonlari va xon urug'lari tor doirada o'tkaziladigan saylov avvaldan kelishib qo'yilgan bo'lib, xon tayinlash rasmiy bir marosimdek bo'lgan. Odatga binoan yangi saylangan xon bir qator amaldorlarga sarupo ulashgan. Bu ularga bildirilgan ishonch ramzi hisoblangan.

⁹⁴ Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126–127; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395–396.

2.2. Xonning mahalliy amaldorlar va fuqoralarni qabul qilish tartiblari.

Xiva xonligida saroy qabul tartiblari, Xonning saroyidagi amaldorlar va xizmatkorlar, ularning vazifalari to'g'risida manbalarda muhim ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Saroyda qabul marosimlarini, turli tashkiliy ishlarni amalga oshirishda saroy xizmatchilari ham o'z vazifasiga ega bo'lgan. Manbalarda saroy xizmatchilari va ularning vazifalari haqida ham qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Xususan, Xon saroyidagi barcha xo'jalik ishlari boshida Dasturxonchi turgan. U Xonning dasturxoni, ya'ni Xonga beriladigan ovqatlar, ichimliklar va Xonga ko'rsatilishi kerak bo'lgan boshqa xizmatlarni boshqarib turgan. Undan tashqari Xonga ta'siri kuchli bo'lgan rasmiy kamerdiner, oshpoz, chilimchi, qumg'onchi, rumolchi, sartorosh, tirnoqchi, hodimchi (u Xonni massaj qilish vazifasini bajargan), to'shakchi, xazinachi va boshqalar bo'lgan.

Xiva xonligida mahalliy amaldorlar va fuqoralarni saroyda qabul qilish tartiblarida bir qancha o'ziga xoslik bo'lgan. Manbalarning dalolat berishicha Xon qabuliga kiruvchilarni dastlab Mehtar qabul qilib, ularning arzini eshitgan. SHundan so'ng arzchining da'vosi jiddiyligidan kelib chiqib, uni Xon qabuliga kirishi yoki kirmasligi masalasi hal qilingan.

Mashhur sayyoh A.Vamberi o'z asarida Xon barcha musulmonlar singari ertalabki bomdod nomozini saroy amaldorlari bilan o'qishini qayd qiladi. Nomozdan keyin nonushta qilishi, nonushtadan keyin ulomalarni suhbatga chaqirib, bir necha soat ularning diniy va davlat boshqaruvi masalalaridagi fikrlarini tinglashini yozib qoldirgan. SHundan keyin Xon bir necha soat dam olgan.

SHundan keyin Salomga chaqirilgan saroy amaldorlari, mahalliy hokimlar qabul qilingan. Xonga amaldorlar xonlikdagi siyosiy vaziyat, turkmanlar, qozoqlar, qoraqolpoqlarning markaziy hokimiyatga munosabati, soliqlarning yig'ilish va boshqa kunning dolzarb masalalari bo'yicha batafsil hisobat topshirishgan. Bu qabul paytida Xon tomonidan amaldorlarga turli vazifalar, topshiriqlar berilgan, ularni bajarish muddatlari aniqlashtirilgan. Berilgan topshiriqlarning bajarilgani

to'g'risidagi hisobotlar ham bunday qabul marosimlari paytida tinglangan. O'z vazifasini sidqidildan bajargan amaldorlar mukofatlangan, turli in'omlar berilgan. Xonning topshirig'ini bajarishda sustkshlik qilgan amaldorlar esa jazoga tortilgan.

Saroy amaldorlari bilan o'tkazilgan suhbatlarda shuningdek Xiva xonligining tashqi aloqalari, qo'shni davlatlardagi vaziyat, Eron, Rosiya va boshqa davlatlar bilan munosabatlar masalasida ham fikr almashilgan. Kerakli qarorlar qabul qilingan.

Saroy amaldorlari, mahalliy hokimlarni qabul qilishda Inoq, Devonbegi, Mehtar, Qo'shbegi asosiy rol o'ynagan. Amaldorlar saroydagi mavqeiga qarab o'tqazilgan. Eng yuqori toifali amaldorlar xonning chap tarafidan, ya'ni uning yuragiga yaqin joydan o'rin olgan. Sipohu amaldorlarni tartibga solib, xon majlisiga kirguzib chiqaruvchi amaldor esa Qo'shbegi hisoblangan⁹⁵.

Rasmiy qabul, ya'ni Salom marosimi odatda peshin namozi oldidan tugatilgan. Bu marosim tugagandan keyin, Xon ikkinchi nonushta uchun o'tirgan. Nonushtadan keyin Xon o'ziga yaqin amaldorlar bilan yana suhbatlashishi, ayrimlari bilan hatto shaxmat o'ynashi mumkin bo'lgan.

Peshin namozidan keyin Xon Qabulxonaga borib, taxtsimon kursiga o'tirgan va Xiva fuqoralarining arzu da'volarini eshitgan. Manbalarda qayd etilishicha, Xon har kuni oddiy fuqoralarning, arzchilarning da'vosini tinglashi shart bo'lgan. Xon huzuriga arz bilan erkak va ayollar, qariyalar, bolalar ham kelishi mumkin bo'lgan. Jinsi, yoshi yoki amaliga qarab hech qanday cheklovlar bo'lmagan. Odatda fuqoralar oddiy oilaviy majoralarni, qo'shnilar o'rtasidagi bahslarni hal qilishni so'rab ham Xon qabuliga kelishi mumkin bo'lgan. Ayrim arzchilarni ishini ko'rib chiqish uchun Qoziga borish tavsiya etilgan bo'lsada, ko'p ishlar Xon qabulida o'z yechimini topgan. Chunki, fuqoralarning arzlari qanchalik oddiy bo'lmasin Xon ularni tinglashi va muamo yechimi bo'yicha qaror chiqarishi kerak bo'lgan. Xon qabulxonasi deyarli har kuni arzga keluvchilar bilan to'la bo'lgan⁹⁶.

⁹⁵ Сафаров Б. Хоразм тарихи. – Тошкент, 1957. ЎРШИ-1, № 10231, – Б. XII-XVI.

⁹⁶ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картою Средней Азии. / Перевод с английского В. А. Ромодина. - СПб., 1865. – С. 96.

Bu borada Eron elchi Mirzo Rizoqulixon SHeroziy Lalabosh saforatnomasida shunday qaydlarni uchratamiz: Bu viloyatda jang, janjal, o'g'irlik pul olib, inkor kilish yo'q edi. Birov – birov bilan urushmasdi, balki ovozi baland ko'tarmasdi ham. Oliy va past tabaqadan har kim bo'lmasin, arzi bo'lsa hech qanday to'siqsiz Xon hazrat Muxammad Aminxon oldiga bora olardi va arzini ayta olardi. Dunyoviy ish bo'lsa, unga o'zi hukm qilar, shariyat ishi bo'lsa, qozi kalonga buyurardi⁹⁷.

Xivalik qariyalar A.Abdullaev, P.Matchanov, I.Vaisovlarning gaplariga qaraganda Xiva xoni har kuni qabul qilishga harakat qilardi va xalqni ko'ngliga qarab, gohida qabul shubhali, jiddiy va rasmiy ravishda o'tardi⁹⁸.

SHu tariqa, Xiva xonligida saroy qabul tartiblarida bir qancha o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin. Bu xon huzuriga keluvchilar oldiga deyarli hech qanday sun'iy to'siqlar qo'yilmaganida, Xonning oddiy amaldorlarni ham qabul qilishi uning asosiy vazifalari qatorida tutganida va boshqalarda ko'rinadi.

⁹⁷ МУЛЛА ОЛИМ Махдум Ҳожи Туркистон тарихи 1992 йил .

⁹⁸ Дилмурод Бобожонов, Моксудбек Абдурасулов. Фирдавсмонанд шаҳар. Хива-2008 йил. Б 27.

3 bob. Xorijiy mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari va elchilarini qabul qilish tartiblari.

3.1. Xiva xonligining xalqaro aloqalari rivojida elchilik munosabatlarning ahamiyati.

Qadimgi davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni xalqaro munosabatlarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasiga bog'liq ravishda takomillashib bordi. Xalqaro elchilik munosabatlari o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o'tgani ma'lum. Qadim asoslarga ega bo'lgan turkiy davlatchiligimiz tarixida ham elchilik munosabatlari o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Yerosiyoning ulkan hududini egallagan turkiy xalqlar xalqaro munosabatlarda asosiy mezonlarni, huquqiy normalarni ishlab chiqish va tarqalishida ham katta o'rin egallaganlar. Xususan, xorijiy elchilarni qabul qilish marosimi asrlar davomida takomillashib borgan. Elchilarni qabul qilishda o'sha tarixiy sharoitda mavjud siyosiy vaziyat, ikki tamonlama munosabatlarning holati va o'zaro manfaatdorlik masalalari ham hisobga olingan.

Xiva xonligida ham qadim turkiy davlatchilik, xususan, o'zbek davlatchiligi tarixida vujudga kelib qaror topgan xalqaro elchilik munosabatlari tamoiyillariga qat'iy amal qilingan. SHu sababli xalqaro elchilik munosabatlarning muhim jihatlari va ularning milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Qadimgi davrdan boshlab elchilik munosabatlari turli mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy muloqatda katta o'rin tutganligiga ham e'tibor qaratish lozim. Elchilik missiyalarining vazifalariga to'xtalganda muhim bir jihatga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. CHunki xalqaro diplomatik aloqalarning shakllanishi va kuchayib borishi elchilik missiyasi a'zolari oldiga katta vazifalar qo'ya boshladi. Elchilar va elchilik missiyasi a'zolari - nozik psixolog va kuzatuvchi, geograf, etnograf, tarixchi-publitsist va mohir qalamkash-ijodkor hislatlariga ega bo'lishi talab etila boshladi. Elchilik missiyalari faoliyatida yana bir muhim jihat borki, bu elchilarning faoliyatining qadimgi davrdan boshlab jasuslik ma'lumotlarini yig'ishga yo'naltirilganligidir. Davrlar o'tishi bilan elchilarning bu faoliyati nozik

san'at darajasiga ko'tarildi. Elchilardan ular borgan mamlakatda nafaqat saroy hayoti, hukmdor doiralari va ularning rejalari to'g'risida, balki o'sha mamlakatning xalqi, siyosiy tuzumi, iqtisodiy va harbiy qudrati, shaharlari, xo'jalik turlari, aloqa-kommunikatsiya tizimi va boshqa muhim ma'lumotlarni yig'ish ham talab etila boshlandi. SHu tufayli xam elchilik missiyalari qadimgi davr va o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va harbiy strotegik ahamiyatga ega ma'lumotlar yig'ishda muhim o'rin tutardi.

Elchilik aloqalari qadimgi davrdan boshlab turli mamlakatlar o'rtasida siyosiy va iqtisodiy madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishga xizmat qilib kelgan. O'z davrida Buyuk ipak yo'lga ham Xan imperiyasining poytaxtidan chiqqan elchi Chjan-Szyan⁹⁹ asos solgan edi. Bu elchi faoliyati Xitoy uchun "G'arbiy o'lkalar"ning va ularga olib boruvchi yo'llarning kashf qilinishiga, ular orqali O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlar, xususan, Parfiya, Hindiston va Rim imperiyasi bilan izchil aloqalarining boshlanishiga olib keldi.

Bu yerda bir masalaga, ya'ni elchilarning yana bir yashirin missiyasiga ham e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Bu elchilarning o'z mamlakati uchun muhim bo'lgan jasuslik ma'lumotlarini yig'ishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Xitoy uchun "G'arbiy o'lkalar"ni kashf qilgan Chjan Syanning O'rta Osiyoga 13 yillik sayohatidan keyin Xan sulolasi hukmdori Xitoydan shimol va janubiy o'lkalarga to'rtta yo'nalish bo'ylab elchilar yuborishga farmon beradi. Qadimgi Xitoy manbalarida bu elchilar "Jasuslar" deb nomlanib, ularga qo'shni o'lkalar hukmdorlarini bir-birlari bilan nizolashtirish vazifasi yuklatilgan¹⁰⁰ Bu ham Xitoyning bu davrdagi tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Albatga, qadim davlatchilik an'analariga ega bo'lgan turkiy xalqlarda ham elchilar oldiga ma'lum va katta vazifalar ko'yilgan. Xususan, podshohning elchi

⁹⁹ Chjan Szyan – Qadimgi Xitoyning buyuk sayohatchisi va O'rta Osiyoga kelgan birinchi elchisi. Mil. avv. 140 yilda "G'arbiy o'lkalar"ga ittifoqchi topish maqsadida elchi sifatida jo'natilgan. Unga kelib chiqishi hunlardan bo'lgan Tan-fu Xunugan fu degan kishi yo'lboshchilik qilgan. Chjan Szyanning sayohati 13 yil davom etib, sayohat tafsilotlari maxsus hisobot tarzida Imperatorga topshiriladi (Chjan Szyan hisoboti tarixchi Sima Syanning "Tarixiy yilnomalar" asariga kiritilgan). Hunlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish vazifasi bajarilmagan bo'lsa-da, bu sayohat xitoyliklarning "G'arbiy o'lkalar" va ularga olib boruvchi yo'llar haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi, Xitoy va O'rta Osiyo o'rtasida izchil aloqalar boshlanishiga va tegishli yo'llar faoliyatiga asos yaratdi.

¹⁰⁰ Бичурин Н.Я (Иакинф). Күрсатилган асар. Ч.II... – С. 158.

yuborishdan maqsadi xat yuborib, hol-ahvol so'rash emasdi. Elchi o'zi tashrif buyurgan mamlakatning podshosi, saroy tartiblari, amaldorlari, lashkari, qurol-aslaha mikdori, aloqa yo'llari va mamlakat siyosiy-iqtisodiy hayotiga oid boshqa ko'plab ma'lumotlarni keltirishi ham lozim edi. Bu haqda XII asrda Saljuqiylar davlatida 30 yil vazirlik qilgan Nizomulmulkning "Siyar ul-muluk" yoki "Siyosatnoma" asarida ham batafsil to'xtalib o'tilgan¹⁰¹ Elchilik missiyalariga nisbatan qo'yiladigan bunday talablar, albatta, barcha davrlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qolganligi, shubhasiz.

Biz tadqiqotimizda ko'rib chiqilayotgan davrda, ya'ni XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoro va Xiva xonliklarining Moskva knyazligi bilan elchilik aloqalari shakllana boshlangach, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan rus elchilik missiyalari a'zolariga yuqorida aytilgan barcha vazifalar topshirilganligiga shubha yo'q. Bu rus diplomatiyasi tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar asarlarida ham ko'rsatib o'tilgan¹⁰². XVI asr o'rtalarida Buxoro, Balx va Urganchdan Moskvaga yuborilgan elchilik missiyalari¹⁰³, xususan, Ivan IV Grozniy tomonidan Xiva va Buxoroga jo'natilgan Antoni Jenkinson boshchiligidagi rus elchilari¹⁰⁴ faoliyatida ham bu narsani ko'rish mumkin.

Ayniqsa, XVII asrdan boshlab, rus elchilari faoliyatida bu jihatga katta e'tibor berilib, rus hukmron doiralarida o'zbek xonliklari, xususan Xiva xonligi haqida ma'lumotlar ko'payib bordi. Masalan, 1858 yilda Xiva va Buxoroga jo'natilgan Ignatev boshchiligidagi rus elchilik missiyasi oldiga Orol dengizi va Amudaryo suv yo'lidan rus kemalari foydalanishi uchun imkoniyat yaratish masalasini hal qilish yuklatilgan bo'lib¹⁰⁵, bu bilan Petr 1 davrida amalga oshmay qolgan vazifani bajarish ko'zda tutilgan edi¹⁰⁶.

¹⁰¹ Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. –Т., 1997. – Б. 100-103.

¹⁰² Лошков В. О древней русской дипломатии. – М., 1957. – С. 21.

¹⁰³ Юлдошев М.К. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. – Ташкент, Фан, 1964. – С. 21.

¹⁰⁴ Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. // В кн: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Перевод с английского Ю.В. Готье. – Л.: Полиграфкнига, 1937. – С. 167-192.

¹⁰⁵ Игнатъев Поездка в Хиву и Бухару. – СПб, 1860.

¹⁰⁶ Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1957. – Б. 200-203.

O'zbek xonliklariga jo'natilayotgan Elchilar Moskvadan jo'nash oldidan "ishonch yorlig'i", ya'ni elchining shaxsini va elchilik vazifasini bajarishga vakil qilinganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda elchining va elchilik missiyasining vazifasi batafsil bayon etilgan "Yo'riqnoma" olar edilar. Bu yo'riqnomada, shuningdek, elchiga begona mamlakatda turli vaziyatlarda: yo'lda, muzokaralar paytida, qabul paytida, bazmlarda va boshqa vaqtda o'zini tutish, o'z podshosining obro'yini to'kmaslik haqida ko'rsatma berilar edi¹⁰⁷.

XVIII asrdan boshlab esa Rossiyadan O'rta Osiyoga kelgan har bir kishiga, u elchilik missiyasi a'zosi bo'lmasa ham, hukumat idoralaridan maxsus ko'rsatmalar va yo'riqnomalar olib, ularda kommunikatsiya yo'llari, shaharlar va boshqalarga e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlangan¹⁰⁸.

1740 yilda Xivaga kelgan Orenburg dragun polkining poruchigi Dmitriy Gladishevning yozishicha, "Xonning o'tovida Orol beklari va uning amaldorlari o'tirgan edi. Xon eng hurmatli joyda o'tovning to'rida o'tirgan bo'lib, uning ikki tomonida qirqqa yaqin Xiva zadogonlari o'tirardilar¹⁰⁹.

Ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyodan va boshqa mamlakatlardan kelgan savdogarlarga Xitoyning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Suchjou va Ganchjou (Kamju) shaharlarigacha borishga ruxsat etilgan. Elchilik missiyalari tarkibida esa 100 tadan ortiq kishi bo'lmasligi kerak edi. Elchilarni ham ko'p holatlarda chegara shaharlarida qabul qilishib, Pekinga 20 dan ortiq kishi o'tkazilmagan¹¹⁰. Bu siyosat Xitoy hukumatining tashqi savdo aloqalarini butunlay davlat monopoliyasiga aylantirishga bo'lgan harakati bilan bog'liq edi.

Mintaqaning qadimgi davlatlari tomonidan qo'shni mamlakatlarga elchilar jo'natilganda borilayotgan mamlakat hukmdoriga sovg'a sifatida qimmatbaho va nodir mahsulotlar olib borilgan.

¹⁰⁷ Юлдошев М.Ю. К истории торговых и посольских связей. – Ташкент: Фан, 1964. – С.24.

¹⁰⁸ Соловьев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участие натуралиста А. Лемана. – М.–Л., 1939. – С. 16-18.

¹⁰⁹ Поезка из Орска в Хиву и обратно , совершенная в 1740-1741 годов поручиком Гладышевым и геодезистом Муравиным Б ,В ,Лунин Тошкент 1988 г

¹¹⁰ Буриев О., Колчанов А. Об одном участке великого шелкового пути ... – С. 112-114.

Savdo yo'llari bo'ylab harakat qiladigan elchilik missiyalarini, choparlarni oziq-ovqat va ulov vositalari bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi, uzoq o'lkalarga yuboriladigan elchilik missiyalarini, savdo karvonlarini qo'riqlovchi maxsus qurolli guruhlar, yo'l boshlovchilar xizmati paydo bo'lganligini ham elchilik munosabatlari rivojiga xizmat qilgan. Biz ko'rib o'tayotgan davrda ham karvon yo'llarida elchilar va elchilik missiyalari a'zolari, turli toifadagi amaldorlar, davlat xizmatchilari, choparlar, maxsus yorliqqa ega bo'lgan savdogarlarning xavfsizligini ta'minlashga va ularga boshqa tegishli xizmatlar ko'rsatishga katta e'tibor qaratilardi¹¹¹.

Xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanib borishi o'z ulov vositalari bilan savdo karvonlariga xizmat ko'rsatuvchi kishilar guruhi – kirakashlar toifasining shakllanishiga ham olib keldi. Kirakashlar odatda savdo karvoni o'tadigan hududa yashovchi xalqlar vakillari bo'lgan. O'rta asrlarda kirakashlik aholining ayrim tabaqalari va hatto ko'chmanchi turkman va qozoqlarning ayrim qabilalari uchun yagona daromad manbai bo'lgani ma'lum. Xususan, so'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyoning Rossiya shaharlari va Kaspiybo'yidagi Eron shaharlari bilan savdo aloqalarida qozoqlar va turkmanlar yirik savdo karvonlariga yo'lboshlovchi va kirakash bo'lib yollangan¹¹². Bu holatni 1842 yilda Erondan kelgan Muhammad Alixon G'ofur hamda 1851 yilda Erondan Xivaga elchi bo'lib kelgan Rizoqulixon Hidoyat boshchiligidagi elchilarning mahalliy yavmut turkman qabilalaridan kirakash tuyakashlarni yollaganligi misolida ham ko'ramiz¹¹³.

Xiva xonlarining bu davrda davlat tizimida islohotlar o'tkazish, o'z hududlarini harbiy yo'llar bilan qo'shnilar yerlari hisobidan kengaytirishga urinishi va asir olinganlar hisobidan ham mamlakat aholisi etnik tarkibini oshirish yo'li orqali iqtisodni ko'tarish kabi rejalarini amalga oshirayotgani hamda Rossiya va

¹¹¹ Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б.

¹¹² Агзамова Г.А.. Среднеазиатские ханства и Россия: к истории караванной торговли (XVI – первая половина XIX вв.) Россия – Узбекистан. История и современность. Спецвыпуск. – М., 2008. – С. 15, 22-23.

¹¹³ Мухаммад Алихон Гофур. Хоразм сафари кундалиги (Мухаммадшоҳ Қожор ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009– Б. 13–52; Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Мухаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 93, 152-153..

Angliya mamlakatlarining O'rta Osiyo davlatlari va Eronning shimoliy-sharqiy hududlarini siyosiy raqobat maydoniga aylantirishni jadal sur'atlar bilan boshlab yuborgani mintaqada, jumladan, Xiva xonligida diplomatik aloqalarning kuchayishi, yevropalik mutaxassis-harbiylarning siyosiy maqsadlarda kelishining faollashuviga olib keldi.

Xiva davlatiga qo'shni Eronning Xurosondagi Saraxs, Mazduron, Daragaz, Mashhad, Nishopur va Mozondorondagi Astrobod kabi shahar va tumanlari doimiy ravishda xivaliklar bosqin-chopqiniga uchrab, aholining asir olib ketilishi va eronliklar tomonidan ham shu kabi javob hujumlari uyushtirib turilishi hamda Kavkazdagi rus-eron urushlarida yengilgan qojorlar davlatining shimoliy-sharqiy hududiga ham ruslar ko'z tika boshlagani, ayniqsa, ruslarning mintaqadagi Angliyaga qarshilik siyosati orqasida O'rta Osiyo yerlariga hujum uyushtirishni ko'zlayotgani Eronni Xiva davlati bilan mustahkam siyosiy munosabatlarni o'rnatib, yaxshi qo'shnichilikni yo'lga qo'yish va birgalikda har ikkala davlat uchun o'ta yomon oqibatga ega g'arbdan bo'ladigan mustamlakachilik bosqinlari oldini olish choralarini izlash, eronlik qullarni ozod qilish va qul savdosiga barham berishga erishish kabi masalalarni yechish maqsadida diplomatik aloqalarni amalga oshirishga majbur qildi. Chunki, qojorlar davlati dastlab siyosiy Xiva bilan ana shunday choralarni izlash o'rniga, xivaliklar hujumlari borasida yordam so'rab Rossiya va Angliyaga murojaat qiladilar. Xuddi shuni kutib turgan har ikkala davlat darhol bunday yordamga turli usullar bilan hozir ekanini bildiradilar. Masalan, 1839 yil boshida rus davlatining Tehrondagi doimiy elchisi Eron Tashqi vazirligiga Nota bilan javob qaytarib, xivaliklar ana shunday hamlalarni Kaspiy bo'yidagi rus harbiy istehkomi – 1833 yili qurilgan Novo-Aleksandrovsk qal'asiga ham uyushtirayotgani, shu sababli ham Xiva xonligiga tanbeh berish maqsadida siyosiy Rossiyaning urush harakatlarini boshlab yuborishga tayyor ekanini bildiradi. Unda aytilishicha, ruslar Kaspiy dengizdan va quruqlikdan yurish boshlab, tez fursat ichida Xiva davlatiga barham berilishi ko'zda tutilgan. Qojor davlati siyosatchilarining yordam so'rab qilgan murojaati oqibatda o'zlariga dushman bo'lib chiqqanidan o'takalari yorilib, darhol bunday hamkorlikdan bosh

tortishadi va masalani ikkala musulmon davlat o'zlari hal qilishini rasman e'lon etishadi va shu maqsadda 1832 yili Xivaga yuborilgan eronlik elchi Yalangto'shxon, 1837 yili Nodir Mirzo bu kabi masalani muvaffaqiyat bilan hal qilib qaytishgani eslatiladi. Chunki, agar, ruslar dengizdan hujum qilib, Saraxs, Axal, Tajan, Niso, Obivard, Marvni qo'lga kiritsalar, bu degani ilgari Eronniki bo'lib kelgan mazkur yerlarning ham bir umr qo'ldan chiqishi edi. To'g'ri, mazkur elchilikdan so'ng eronliklar Xuroson voliyi shohzoda Abbosqulixon noyib us-saltana vafotigacha bo'lgan davrda xivaliklar hamlasidan tinch yashadilar. Biroq, 1837 yili yavmudlar xoni Maxdumquli Xiva xoni Olloqulixon bilan birgalikda yana Xurosonga bosqinchilik hujumlarini boshlab yubordi. Munis, Ogahiy ma'lumotlaridan bilamizki, Muhammad Rahimxon [1](#), Olloqulixon Xuroson yerlariga bir necha bor hujum uyushtirib, aholiga ko'p moddiy va ma'naviy talafot yetkazganlar. Albatta, bunday hujumlarning anchasi Eron qo'shiniga dosh bera olmagan xivaliklar uchun muvaffaqiyatsizlik bilan tugab turgan. Ammo, baribir, Xiva bozorlari eronlik qullarga to'lib ketgan. Zero, bunday asirlar turkman va hazora qabilalari bosqinchilari tomonidan ham olib kelingan. Qolaversa, eronlik mualliflarning o'zi va yevropalik muarrixlar yozishicha, Xurosondagi ayrim amaldorlarning o'zlari ham pora va pul evaziga o'z vatandoshlarining asirlikka tushishiga zamin yaratishgan. Muhammad Alixon G'afur, Abbos Quli, Rizoqulixon Hidoyat kabi eronlik elchilar va Mak-Gahan, Bayoniy ma'lumotiga qaraganda, Xorazmdagi eronlik asirlar soni 30 mingdan oshgan. Ana shu singari masalalarni do'stona ravishda hal etish va xivaliklarni ruslarning bosqini ehtimolidan ogohlantirish uchun Muhammadshoh qojor Xorazm va Buxoroga Hoj Mirzo E'timoduddavla ismli siyosiy arbobni elchi qilib yubormoqchi bo'ladi. Bundan xabar topgan inglizlar o'zlarining Tehrondagi elchisi o'rinbosari polkovnik SHelni shu elchiga qo'shib jo'natishni bildiradilar. Albatta, bu holning elchilik ishiga xalal berishini anglagan eronliklar darhol mazkur safarni amalga oshirish fikridan qaytishadi.

Elchilik masalasiga qaytadigan bo'lsak, muvaffaqiyat bilan amalga oshgan bunday diplomatik vazifalardan biri Xuroson voliyi shohzoda Komron Mirzoning

Xorazmga o'z o'g'li Nodir Mirzo boshliq hay'atni jo'natishi bilan amalga oshgan edi. Nodir Mirzo Olloqulixon bilan Muhammadshoh davlati o'rtasida do'stlik o'rnatadi. SHundan so'ng Olloqulixon Muhammadshohning 1838 – 1839 yili Hirot ustiga yurishida yordam sifatida o'zining 1500 nafar askarini Xalifa Abdurahmon turkman boshchiligida Eronga yuboradi. Ammo, Muhammadshoh davlatining inglizlar qarshiligiga uchrab, Hirot hokimi afg'on Komron Mirzo durroneydan yengilishi natijasida Olloqulixon fikrini o'zgartirib, ahdu paymonni buzgancha, yana Xurosonga yurishlarini boshlab yuboradi. Ogahiy yozishicha, shunda Muhammadshoh tomonidan shohning Hodiyyon nomli ishonchli bir odami Olloqulixon oldiga elchi bo'lib kelgan. U o'z shohi nomidan ilgarigi do'stlikni tiklashni so'raydi va xon bu elchiga qo'shib Tehronga o'z elchisi Bekish xalifani jo'natadi. Yuqorida ko'rganimizdek, qaltis vaziyat vujudga kelib, xivaliklarni bosqin ehtimolidan ogohlantirish maqsadida yashirincha yana bir elchilik ham amalga oshgan. Eslatib o'tish lozimki, Ogahiy ayrim elchilarning maqsadlarini bir necha satrda bo'lsa ham aniq yozsa-da, boshqa o'rinlarda faqat kichik bir xabar berib o'tadi, gohida esa nomlarini ham yozmaydi. Hozircha, ilm ahliga eronlik elchilardan faqat Mirzo Rizo Mezon Oqoyi muhandisboshi va Muhammad Alixon G'afur, Abbas Qulixon, Rizoqulixon Hidoyat xotiralarigina ma'lum bo'lib, boshqa elchilar hisobotlari borasida izlanish olib borilmagan. Mirzo Rizoning o'z elchiligiga doir kundaliklari ham uning avlodlari qo'lida saqlanib, hozircha chop etilmagan. Bu kundalikdagi ayrim fikrlar olimlar tomonidan bor-yo'g'i bir maqola doirasida e'lon qilindi, xolos. Bu maqolada aytilishicha, Mirzo Rizo rus-eron urushida Abbas Mirzo to'pxonasida zobit bo'lib xizmat qilgan. SHundan so'ng Angliyadagi qirollik akademiyasining chizmachilik-muhandislik fakultetini tamomlagan. Uning Xivaga yashirincha safari 1255 yil 5-safar kuni (1839 yil fevral) Soriy shahridan yo'lga chiqish bilan boshlangan. Mirzo Rizo o'sha yil yozida Xivaga yetib kelib, Olloqulixon bilan uchrashadi va o'z elchiligi maqsadlarini bildirib, jumladan, xonni ruslar hujumidan ogohlantiradi. Darhaqiqat, 1939 yili noyabrida Orenburgdagi graf Perovskiyning harbiy ekspeditsiya korpusi Xiva ustiga yuboriladi. Olloqulixon uning 12 minglik qurollangan qo'shini ustiga

Xo'janiyozboy boshliq 10 ming kishilik otliq askarlarini jo'natadi. Rus qo'shini tor-mor keltirilib, ko'plari ayovsiz qirib tashlanadi va ayrimlari asir olinadi. Bu paytda hali Mirzo Rizo muhandisboshi Xivada o'tirgan edi. U o'rtadagi munosabatlar iliqlashishiga birmuncha hissa qo'shib, bir yildan ko'proq vaqtdan so'ng xorazmlik elchi Otaniyoz mahramni ham yoniga solib, Olloqulixonning shohga sovg'a qilgan 40 bosh sara ot va boshqa qimmatbaho tuhfalari bilan h. 1256 (m. 1840) yili Tehronga qaytib ketadi. Mirzo Rizo elchiligi haqidagi ayrim qaydlar 1842 yili Olloqulixon oldiga elchi bo'lib kelgan Muhammad Alixon G'afur kundaliklari va 1851 yili Muhammad Aminxon huzuriga yangi yosh shoh Nosiriddinshoh tomonidan yuborilgan Rizoqulixon Hidoyatning "Saforatnomayi Xorazm" va Ogahiyning tarixga oid asarlarida uchraydi¹¹⁴.

Ogahiy va eronlik elchilar ma'lumotlariga qaraganda, 1812 – 1852 yillar oralig'ida Xivadan Eronga Bekish xalifa, Nodir sardor, Umarshayx, Amirxon, Badirxonbek, Muhammad Husaynbek, Bekniyoz mahram (ikki marta), Durdibek, Muhammad SHarif kabi elchilar borishgan.

Xivaga elchiligi hisoboti bizgacha yetib kelgan Muhammad Alixon G'afur Xorazmga Muhammadshoh qojor (v. 1264 yil 6-shavvol/1848 yil 4-sentyabr) tomonidan yuborilgan bo'lib, u bilan birga Xorazmga Angliya va Rossiyaning Tehrondagi doimiy elchixonasi xodimlari ham kelishadi. Bu va xon bilan olib borilgan muzokaralardan bu elchining asosiy vazifasi ikki mamlakat o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatish, eronlik asirlarni tutqunlikdan qutqarish hamda qul savdosiga chek qo'yish masalalarini ilgari surishdan iboratligi ma'lum bo'lib turibdi. Elchilikka esa quyidagi voqea sabab va bahona bo'lgan: 1841 yili yozida ziyoratchilar karvoniga hujum uyushtirgan talonchi turkmanlar guruhi Mashhad atrofini chopqin qilib, ancha odamlarni ham o'zlari bilan Xivaga olib ketadilar. Ittifoqo, o'sha kuni shahar chekkasida Xuroson voliyasi Osaf ud-davla akasining o'g'li Vali Muhammadxon ham ozchilik odamlari bilan ov qilib yurgan bo'ladi.

¹¹⁴ Мухаммад Алихон Гофур. Хоразм сафари кундалиги (Мухаммадшоҳ Қожор ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009– Б. 13–52; Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Мухаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 93.

Qaroqchilar bu ashrafzodani ham asir olib, avval Marv, so'ng Xiva xoni oldiga eltadilar. U tutqunlikda hayot kechira boshlaydi. Amakisi bu jiyanini qutqarish masalasida Muhammadshoh qojorga murojaat qiladi. SHoh shu va umuman barcha eronlik tutqunlarni ozod qilish yuzasidan muzokara olib borish uchun Muhammad Alixon G'afur ismli siyosatchini Olloqulixon huzuriga elchilikka yuboradi. Unga qo'shilib, mazkur talablarni Angliya va Rusiya tarafidan ham qo'yish uchun bu davlatlarning Erondagi doimiy elchilari vakillari Vilyam Tomson va Muhammad Hasanbek ham Xiva sari yo'lga tushadilar. Eron elchisi yozishicha, Muhammad Alixon G'afur Olloqulixon bilan bir necha bor jiddiy muzokaralar olib boradi.

Eron elchisining ayrim qaydlariga qaraganda, ingliz va rus muxtor vaziri (Erondagi doimiy elchilari) vakillarining u bilan Xivaga kelishi, bu elchi faoliyatiga ancha ziyon yetkazgan. Masalan, ular diplomatiya etikasi doirasidan chiqib, Eron elchisini o'zboshimchaliklari va ayrim qiliqlari bilan qiyin ahvolga solib qo'yadilar. Albatta ularning bu ishlari tagida Eron-Xiva aloqalarini buzishga, tezroq urush chiqarishga intilish kabi nayranglari borligi yaqqol sezilib turadi. Ma'lumki, bunday mojaroning oqibatlari Eron va O'rta Osiyo mamlakatlari uchun juda fojeali bo'lishi va yana har xil kutilmagan hodisalarga olib kelishi muqarrar edi. Bunday urushda ikki tomon ham zaiflashsa yoki kutilmagan sabablarga ko'ra u cho'zilib ketsa, bu yurtlarga ko'z olaytirayotganlarning oshig'i olchi bo'lajagi ma'lum edi. SHu sababli Olloqulixon ham ularning Eron elchisi bilan birga kelganliklarini yoqtirmaydi va buni elchiga ochiq aytib, qattiq xafa bo'ladi. Ammo Muhammad Alixon G'afur Xiva xoni e'tiroziga qarshi so'z topolmaydi, bu bilan esa ularni chorasizlikdan olib kelganini bildiradi. Xullas, ikki oy davom etgan muzokaralar deyarlik natijasiz tugaydi. Xorazmdagi o'ttiz ming nafar eronlik tutqunlardan hech bittasi ozod qilinmaydi. Hatto, Muhammad Valixon ham yurtiga qaytarilmaydi. Ammo, xon Eron bilan do'stlik o'z o'rnida qolajagi, chegara hudud ma'murlariga bosqinni to'xtatish to'g'risida qattiq hukm chiqarganligi, lekin, asirlarni ozod qilish masalasi ancha murakkabligi, ularni odamlar katta pullar evaziga odam qaroqchilaridan sotib olganliklari, davlatning esa qayta sotib olib,

eronliklarni ozod qilishga qurbi yetmasligini aytadi. Elchi esa bu narsaga bir bahona sifatida qaraydi.

Albatta, Muhammad Alixonning elchiligi butunlay samarasiz bo'lmagan, xon undan, ikki davlat do'stligi saqlanib qolajagi izhori sifatida muzokaralar uchun Xiva tomoni ochiq ekani va tez orada Eron podshosi yana elchi yuborishi lozimligi to'g'risidagi fikrlarni shohga albatta yetkazishni so'raydi. SHundan ko'p o'tmay, aniqrog'i, Olloqulixon vafoti(1842 yil dekabri)dan so'ng Muhammad Amin to'ra tashabbusi bilan Muhammad Valixon do'stona munosabatlar dalili sifatida ozod qilinadi va unga qo'shib o'z elchilarini ham Tehronga jo'natadilar.

3.2. Xorijlik elchilarni va fuqoralarni qabul qilish tartiblari.

Xiva xonligida xorijlik elchilarni qabul qilish tartiblari XIX asrga kelib mukammal bir marosim darajasiga yetadi. Bu davrda xonlikning xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlari kengayib, o'zaro elchilik munosabatlari rivojlangan edi. Xonlikda elchilarni kutib olish va qabul qilish masalalari bu elchilik missiyalari tarkibida bo'lgan kishilarning hisobotlarida, asarlarida keng yoritilgan. Ularga tayangan holda bu masalani ko'rib o'tamiz.

Xususan, Eron shohi Muhammadshoh Qojor tomonidan 1842 yilning fevralida Xiva xonligiga elchi sifatida yuborilgan Muhammad Alixon G'ofur tomonidan yozilgan safarnomada Xiva xonligida xorijlik elchilarni qabul qilinish tartiblari bo'yicha muhim ma'lumotlar uchraydi¹¹⁵. Bu asarda yozilishicha, Zulhijja oyining 27 kunisi¹¹⁶ Eron shohi Muhammadshoh Qojor hukmiga binoan elchilik rasmi bilan Xorazm tomonga yo'lga chiqilgan. Elchilik missiyasi tarkibida Tehron shahridan Angliya davlati muxtor vazirining, ya'ni doimiy elchisining vakili ingliz Tomson sohib¹¹⁷ va Xiva xoni Olloqulixonning elchisi Bekdurdi¹¹⁸ va Rusiya davlati muxtor vazirining bir nafar xizmatchi chopar(kurer)i bo'lgan¹¹⁹.

Tehrondan Eron shaharlaridan bo'lgan Semnon, Sabzavor, Mashhad, Mazduron (bu shahar Xurosonning chegarasida joylashgan) orqali kelgan elchilik missiyasi Taka turkman urug'lari nazoratida bo'lgan Saraxs hududidagi Quchi, Marv orqali Xorazm davlati hududiga kirib kelishgan¹²⁰.

Ushbu Safarnomada Elchi Muhammad Alixon G'ofur yo'ldagi manzillar, ular orasidagi masofalarni qayd etib borish bilan Xiva xonligining ayrim shaharlari haqida ham muhim ma'lumotlar berib o'tadi. Xususan, Marv shahri haqida

¹¹⁵ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги (Мухаммадшоҳ Қожор ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 13–52.

¹¹⁶ 1257 h.q.yilning 27 zulhijjasi ko'zda tutilmoqda. Bu melodiy 1842 yil 13 fevraliga to'g'ri keladi.

¹¹⁷ Tomson Vilyam Teylor, o'sha paytda Tehrondagi Angliya elchixonasi moliya ishlari maslahatchisi. U mazkur elchixonada 1837-1842; 1849-1855 yillari turli vazifalarda faoliyat ko'rsatgan. Angliya-Eron urushi boshlangach 1855 yil 5 dekabrda diplomatik korpus bilan Bag'dodga ketgan. So'ng yana Tehronga kelgan. U Vamberining 1862 yili Eron orqali O'rta Osiyoga sayohatini uyushtirganlardan biri hisoblanadi. Rizoqulixon Hidoyat Xorazm elchiligidan qaytishda Mozandaronda 1851 yili mazkur Tomson bilan uchrashganini yozadi. Tomson 1883 yili vafot qilgan.

¹¹⁸ Safarnomaning boshqa o'rinlarda bu elchining nomi "Durdibek" shaklida tilga olinadi.

¹¹⁹ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 13.

¹²⁰ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 14–21.

to'xtalib, "Marvning oqsoqoli Mehtarning¹²¹ amakisi Niyozmuhammadboydir. Marvdan hozirgi kunda xarobaga aylanib qolgan eski Marv shahri chetigacha bir farsaxlik masofa. Endilikda xon hazrat eski Marv shahrini obod etishga qaror qilgan va u yerga o'g'li To'raxonni¹²² keltirib qo'ymoqchi. ... Yangi Marv shahrining tuzilishi quyidagicha: shahar atrofida bir-biriga ulanib ketuvchi ikkita xandaq qazilgan. Har birining eni taxminan besh-olti zar'dir¹²³. Xandaqlar ichi suv bilan limmo-lim to'ldirilgan bo'lib, ularning bir tomonida shaharga kirib-chiqish uchun yo'lak yasab qo'yibdilar. Aholi ana shu doira ichida olochiq(qora uy)lar tikib, shularda istiqomat qiladilar. Niyozmuhammadboy esa o'ziga chor devor tortib olgan va shu hovlisimon joyga qora uy qurib yashamoqda. SHahar deb ataluvchi bu yerda biron imorat yoki qal'a va qal'a minoralari yo'q. Marvning ob-havosi juda yaxshi" deb ma'lumot beradi¹²⁴.

Marvdan elchilik missiyasi Qoraqum sahrosi orqali o'tib, bu yo'nalishda joylashgan Charshli qal'asi, Yakkapara, Yantoqli, Satland, Ayri, Taxti Sulaymon orqali o'tilib Amudaryoning o'rta oqimidagi Jigarband kechuvga olib keluvchi yo'l bo'ylab ketishgan. Bu yerdan Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab ketgan yo'l orqali xonlik poytaxti Xivaga ketishgan. Elchilar bu yo'nalishda joylashgan Dahanshir, Ko'karchin, Bobo Salim, Shuturgard va Tuyamo'yin orqali Pitnakka, bu yerdan Hazoraspga kelishgan. Safar tafsilotlari bayon etilayotgan vaqtda Xon hazratning inisi Rahimquli to'ra Inoq Hazoraspda yashagan va vafot etgan. Elchilar Hazoraspdan Beshariqqa ketayotganida Xon ukasining marakasi uchun Hazoraspga kelayotgani haqida xabar oladilar. Shu kunning o'zidayoq Xon elchilar bilan uchrashish istagini bildiradi. Natijada Eron elchilarining Xiva xoni bilan birinchi uchrashuvi, birinchi qabul poytaxt Xivada emas, Xon uchun maxsus yasalgan o'rdada bo'lib o'tadi. Safarnomada bu qabul marosimi tafsilotlari batafsil bayon etilgan. Berilayotgan ma'lumotimiz to'liqroq bo'lishini ta'minlash uchun Eron Elchisi Muhammad Alixon G'ofur tomonidan bayon etilgan qabul

¹²¹ Asar o'rtasida uning Yoqub mehtar ekani ma'lum bo'ladi. Yoqub mehtar ko'p yillar Xiva xonligi siyosiy sahnasida faol qatnashgan. Bu bosh vazir 1856 yil 12 fevralidan keyin Xiva xoni Sayyid Muhammad tomonidan qatl etilgan.

¹²² Rahimquli to'ra ko'zda tutilmoqda.

¹²³ 1 zar' – 104 sm.

¹²⁴ Мухаммад Алихон Гофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 16.

marosimini keltirib o'tamiz. "Kun botishiga bir soat qolganda bir otliq kelib, "sizlarni xon hazrat chorlayapdilar", degan xabarni yetkazadi. Kun botar mahal o'tlanib, xon tushgan joyga bordik. Xon o'rdusiga kirish masalasida Otaniyoz¹²⁵ mahramni oldimizga yuborishdi. U kelib: -Xon hazrat huzuriga hammangiz birga kirasizlarmi yoki bitta-bittami? -deb so'radi.

– Ingliz mehmonimiz, shuning uchun birinchi bo'lib xon hazrat huzuriga u kirsin, – dedim men. Shundan so'ng Otaniyoz mahram Tomson sohibni xon huzuriga olib ketdi. Undan keyin meni olib bordi. Xon hazrat huzuriga kirgach, humoyun nomani qo'limda ushlab, xonga salom berdim. Xon huzurida Mehtar, To'raxon va Otaniyoz mahram ham bor edilar. Men ushbularni izhor qildim: – Bu nomayi anbar shamimani podshohi Jamjohi zullilohi anjo'm sipoh, osmon joh, islompanoh, as-sulton ibn as-sulton val-xoqon ibn ul-xoqon Muhammad shoh g'ozi Siz xon hazratin huzurina go'ndirdilar¹²⁶.

Xonning asli Makrining Sovajibulog'idan¹²⁷ bo'lgan Mirzo Nazar ismli bir mirzosi bor ekan, kelib nomani qo'limdan olmoqchi bo'ldi, bermadim. Xon hazratga o'zim olib borib berdim. Xon xatni ikki qo'li bilan olib, yuzi barobar ushladi va shohimiz hol-ahvolini so'radi.

– Lillohi alhamd, sog'liklari yaxshi, - dedim.

Xon esa: – Sizlar yo'lga chiqqanda shohanshohi olampanoh qaerda edilar? – deb so'radi.

– Dorilxilofa Tehronda edilar, – deya xonning arzigaga yetkazdim.

– Og'zaki yana nima dedilar? – deb so'radi xon.

– Birinchidan xon hazratning salomatliklarini so'rab qoldilar, ikkinchidan, davlatlarimiz ravnaqini tilab, ikki davlat hamisha do'st va yakdil bo'lishini orzu qilmoqdalar. Chunonchi, islompanoh podshohimizning qalbi xon hazratga nisbatan shunday to'g'ri va pok (samimiy) ekan, xon hazratning ham qalbi shundoq to'g'ri bo'lmog'i kerak. Endi ijozat bersangiz, birinchi muloqotimiz ekani va tun ham

¹²⁵ Otaniyoz mahram 1840 yili Erondan Xorazmga kelgan elchi Mirzo Rizo Mezon Oqosi Muhandisboshi bilan Olloqulixonning elchisi sifatida Tehronga borgan.

¹²⁶ Eronda hukmronlik qilgan safaviy, afshor, qojor shohlari turkiy urug'dan bo'lganlari uchun ular davrida ilm-fan va rasmiy marosimlarda turkiy til faol ishtirok etgan. Demak Muhammad Alixon ham turkiy urug'lardan biriga mansub bo'lgan va xonga shoh salomini shu tilda yetkazgan.

¹²⁷ Erondagi joy nomlari.

allamahol bo'lib qolgani uchun gapni shu yerda yakunlasam. Davlat ishlari masalasiga oid suhbatni xudo xohlasa keyingi muloqotlarda arzi huzuringizga yetkazsam. Shungacha xon hazrat ham noma va maktublarni o'qib chiqsalar, – deya xon arzigaya yetkazdim.

– Albatta, yo'lda qattiq qiynalgan va charchab kelgansizlar. Uyga borib hordiq chiqaringlar. Hazorasbdan qaytgach, sizlarni darhol huzurimizga chaqirtiramiz va suhbatlashamiz, - dedi shundan so'ng xon.

Va Tomson sohib xon hazratga peshkash(sovg'a) tariqasida biroz buyumlar olib kelgan edi, o'tkardi (tortiq qildi). Tuhfalar bir ko'zli durbin¹²⁸, to'pponcha, soat kabi Angliyaning Erondagi elchisi berib yuborgan narsalardan iborat edi. (Tomson soat, to'pponcha, movut kabi tortiqlardan bir bo'lagini shu yo'sin bilan Marv hokimi Niyozmuhammadboy, xon hazratning vaziri Mehtarga ham yuborgan edi). SHundan so'ng Durdibekning uyiga keldik va tunni shu yerda o'tkazdik. Ertasiga tong bilan otlanib boshqa manzil sari yurdik”¹²⁹.

Shu tarzda Eron elchisi Muhammad Alixon G'ofurning Xiva xoni Olloqulixon bilan birinchi rasmiy uchrashuvi Hazoraspdagi Xon o'rdasida bo'lib o'tadi. Olloqulixon 48 yil umr ko'rib, 18 yil Xorazm xonligini boshqargan¹³⁰, Eron davlati bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini birmuncha tiklagan hukmdorlardan edi.

1258 yilning 6 rabi' ul-avvali - 1842 yil 20 aprelida elchilar poytaxt Xivaga kirib kelishadi. Safarnomada shaharga kirishdan oldin Eron elchisi bilan kelayotgan, ya'ni Erondan qaytayotgan Xiva elchisi Durdibek belgilangan taomilga ko'ra To'raxon huzuriga odam yuborib, elchilar Xivaqqa qachon kirib borsinlar¹³¹, deb so'rattirgani e'tiborlidir. Bu ma'lumotdan ko'rinadiki, xorijdan kelgan elchilar poytaxt shaharga kirish uchun yuqori toifali amaldorlardan maxsus ruxsat olishlari kerak bo'lgan. Bu e'tiborli mehmonlarni kutib olishga tayyorgarlik

¹²⁸ Matnda “eynak” tarzida kelgan bu so'z o'sha paytdagi fors tilida “ko'z oynak” va “bir ko'zli durbin” ma'nolarini anglatgan. Biz mazkur sovg'a durbin bo'lganini mantiqli deb bildik.

¹²⁹ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 19-21.

¹³⁰ Сайид Ҳомид Тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. – Тошкент: Академия, 2002. – Б. 49.

¹³¹ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 21.

ko'rish, ular uchun yashash joyi – qarorgohlarni hozirlash bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa kerak.

Odatda xorijlik elchilar Xiva shahriga ularni kutib olishga ma'sul bo'lgan amaldorlar va otliq sipohlar kuzatuvida kirib kelishgan. Eronan kelayotgan elchilarni ham Bekniyoz mahram va qirqta otliq Xiva ostonasida kutib olishib, shaharga kiraverishdagi joyda bir bog' ichidagi “Yalangrik”¹³² nomi bilan ataluvchi imoratga joylashtirilgan. Shundan keyin, belgilangan qoidaga binoan, Mehtar tomonidan tayinlangan kishilar elchilarni va ularning kuzatib kelayotgan kishilarni mehmon qilishgan. Elchilarga qarab turish uchun maxsus nozir tayinlangan. Unga xonlik xazinasidan elchilarning kundalik xarajatlari uchun ajratilgan mablag'ni to'g'ri sarflash vazifasi ham yuklatilgan¹³³.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish keraki, xorijlik elchilarni bunday kutib olish tartiblari turkiy davlatchilikda qadimdan bo'lgani ma'lum. Masalan, Amir Temur saroyiga Leon va Kastiliya qirolining elchisi sifatida kelgan de Klavixo kundaligida ham bu haqda muhim ma'lumotlar keltiriladi¹³⁴.

Xonlikka kelgan elchilar odatda o'zlari bilan Xonga, saroydagi turli amaldorlarga savg'alar ham olib kelishi shart bo'lgan. Xususan, Eron elchisi Xivaga kelgan kunining ertasiga, seshanba kuni¹³⁵ ularni ko'rish uchun kelgan Durdibekka bir dona movut qabo (engi kalta chakmon) va bir dona movut jubba (engli xil'at, chopon) sovg'a qilganini yozadi¹³⁶. Bu ham o'sha davr diplomatik protokolining yozilmagan qonunlaridan biri bo'lgan ko'rinadi.

Eron elchisi Xivaga kelganining dastlabki kunlaridayoq o'sha paytdagi Xuroson hokimi Ollohyorxon Osaf ud-davlaning akasining o'g'li Muhammad Valixon bilan xat orqali xabarlashgani e'tiborni tortadi¹³⁷. Uni 1841 yil erta kuzida Mashhadga yaqin Inoyatobod degan joyda ovda yurgan vaqti turkman qaroqchilari o'g'irlab kelib, Xiva xoniga topshirgan edilar. Muhammad Alixon G'afur

¹³² Aslida “Angarik”.

¹³³ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 21.

¹³⁴ Rui Gonsales de Klavix. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) // Rus tiliga 1811 yilda qilingan tarjimadan o'zbek tiliga O. Tog'aev tarjimasi. – Toshkent: “O'ZBEKISTON” NMIU, 2010. – B. 89-132.

¹³⁵ 1258 h.yilning 7 rabi' ul-avvali – 1842 yil 21 apreli.

¹³⁶ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 22.

¹³⁷ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 22.

elchililining vazifalaridan biri mazkur Muhammad Valixonni qutqarib, Eronga olib ketish ham edi.

Alixon G'ofur o'z safarnomasida Xiva shahrining tuzilishi, Xon hazrat o'ziga qurdirgan Ark (taxminan yuz zar'ga-yuz zar'. Uchta darvozasi bor. Arkni o'rab turuvchi chor devorning balandligi taxminan uch zar'dir). haqida, Xon hazrat ana shu Ark ichida kichik bir hovlini egallab, hovli sahni o'rtasiga qora uy tikkani va yotish-turishi shuning ichida ekani haqida ma'lumot beradi¹³⁸.

Endi Eron elchisining Xivaga kelishidan maqsadi, uning Olloqulixon tomonidan qabul qilinishi masalalariga to'xtalib o'tamiz. Safarnomada yozilishicha, "Rabi' ul-avval oyining sakkizinchi kuni¹³⁹ asrga ikki soat qolganda xon hazrat shaharga kirib keldilar. ... O'rni kelganda aytib o'tmoqchi edim: xon otga minish va tushish payti karnay chaladilar.

Rabi' ul-avval oyining to'qqizinchi kuni¹⁴⁰ kechadan ikki soat o'tganda xon hazrat yonidan ikkita odam kelib, xonning ushbu buyrug'ini yetkazdi: "Sizni ingliz bilan birga chaqiraymi yo yolg'iz o'zingiz kelasizmi?" Men "Xon hazratning o'zlari biladilar" deya aytirib yubordim keluvchidan. Bir soatdan so'ng yana kelib, bugun kech bo'ldi, dedilar. Ertasi kuni kechqurun kelib, qani yuringlar, xon hazrat chaqirayapti, deyishdi. Oqshomdan ikki soat o'tgach, o'tlanib, xon huzuriga bordik. Uchta darvozadan o'tib xon arkiga kirdik. Darvozalar bir-birining ro'parasiga joylashgan edi. Xon hovlisiga ham yetib bordik. Yuqorida aytganimdek, o'rtadagi supa ustiga qora uy o'rnatib qo'yishibdi. Xon shu qora uyning to'rida o'tirgan ekan. Salom berdik, xon salomimizga alik olib "Omonmisiz, zerikmayapsizmi?"-dedi.

- Xon hazratning davlatidan vaqtimiz choq, xushmiz, - dedim. Shundan so'ng xon:

- Qani aytchi, og'zaki nima deb yubordilar?-deya so'radi.

¹³⁸ Мухаммад Алихон Гофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 23.

¹³⁹ 1258 h.yilning 8 rabi' ul-avvali – 1842 yil 22 apreli.

¹⁴⁰ 1258 h.yilning 9 rabi' ul-avvali – 1842 yil 23 apreli.

- Avvalambor xon hazratning salomatligini tilab qoldilar. Ikkilamchi, uchta davlat xon hazrat bilan do'st va birdamdirlar. Do'st sifatida xon hazratdan bitta iltimos qildilar, -deya javob berdim.

- Qanaqa iltimos ekan?-deb so'radi xon. Shunday arz qildim:

- Eronlik asirlarni ozod etishingiz xususidadir. Podshohlar do'stlik va birodarlikda bir-biriga viloyat va hatto, mamlakatlarni ham baxshida qiladilar. Islompanoh podshohimiz esa xon hazratdan o'z fuqarolarinigina tilamoqdalar. Asirlarni qo'yib yuborsangiz va bundan keyin Turkmoniya jamoasi orasida chopqin, bosqin va odamlarni bandi qilib sotishlarni ta'qiqlasangiz ikki davlat o'rtasidagi do'stlik dunyo turguncha turajak. Inshoolloh buyuk Eron davlati bilan do'stlikdan samaralar ko'rajaksiz. Dushmanlikdan esa mamlakat vayronagarchiligi va fuqaroning oyoq osti bo'lishidan bo'lak samara qo'lga kirmayajak.

- To'g'ri, o'rtada do'stlik aloqalari tiklanmasdan burun chopqin va talon-taroj bor edi. Ammo, elchimiz Otaniyoz mahramni oliy martabali shoh xizmatlariga yuborgan kunimizdan boshlab oramizda do'stligimiz binosi qad ko'targan kun hisoblanadi, - dedi xon. Kamina ham e'tiroz ohangida quyidagilarni arz qildim:

- Turkmoniya jamoasi Xurosondagi Turbat shahrini chopqin qilganda, do'stlik shartnomasini imzolagani kelgan Eron elchisi Mirzo Rizo¹⁴¹ Siz xon hazratning huzurida o'tirgan edi-ku. Mirzo Rizoga qo'shib Otaniyoz mahramni, eronlik asir va ularning mollarini qaytarib olib bersin, deb Marvga jo'natdingiz. Ammo u topshirilgan ishni paysalga solib, vaqtni cho'zdi va biron asir yoki narsani olib bermadi. Tehrondan Xuroson voliysi Osaf ud-davla bilan birga qaytayotganida Eron davlatiga, Marvga yetib borganim zahoti asirlar va ularning mollarini turkmanlar qo'lidan olib, yurtlariga jo'nataman, deb va'da berdi. Lekin afsuski, va'dasida turmadi. Undan keyin elchingiz Durdibek Tehronga keldi, o'sha asnoda ham Xivaga tobe' turkmanlar Iroqi ajamning asosiy yo'li hisoblangan Abbasobod, Miyomin degan joylariga bermalol chopqin uyushtirib, ular orqali Roz

¹⁴¹ Mirzo Rizo Mezon Oqosi 1839 yil boshida eronlik tutqunlarni ozod qilish va mustahkam do'stlik o'rnatish masalasida Xivaga Olloqulixon huzuriga keladi va 1840 yil bahorida qaytib ketadi. Xon unga qo'shib o'z elchisi Otaniyoz mahramni ham Tehronga jo'natadi; Otaniyoz mahram 1850 yil oxirida ham Eronga elchi bo'lib borgan.

va Qushxona yo'lidan kelib, Darjazni bosganlar. Janob Osaf ud-davla turkmanlarning boshboshdoqligi haddidan oshganligini ko'rib, Marv hokimi Niyozmuhammadboyga shunday deb noma yozganlar: "Turkmanlar beboshlikni juda haddidan oshirdilar. Agar sizlarning ularni jilovlashga kuchingiz yetmasa, ruxsat bering, bizlar o'zimiz bu beboshlarning ta'zirini beraylik." Niyozmuhammadboy va taka turkman elining sardori Xo'jam Shukurxon janob Osaf ud-davlagaga "hech tashvish tortmang, xon hazrat chopqin va bosqinni juda qattiq man' qildilar"deb xat yozdilar. Xuroson voliysini xotirjam qilib qayt, deb obro'li Amir Soruqxonni ham jo'natibdilar. Ammo Amir Soruqxon Mashhadda paytidayoq besh yuzta otliq kelib, Mashhad atrofidagi joylarga bosqin uyushtirganlar. Xullas, sizlar tomoningizdan do'stlikka xilof ish bo'lmasa, janob Osaf ud-davla tomonidan ham bironta noo'rin harakat sodir bo'lmaydi". Xon esa ushbularni zikr etib o'tdi:

- Bizning hamla qilmoq niyatimiz bor paytlari bitta sardor bilan to'rt-besh ming kishini otlantirib yuborardik. Ammo, Turkmoniya jamoati orasida bebosh va o'g'ri-qaroqchilar ko'p topiladi. Gohida ana shu toifa odamlar bizning ruxsatimizsiz u burchak-bu burchakdan hamla qilib qolgan bo'lishlari mumkin. Osaf ud-davla bunday paytlarda menga yozib, bildirmog'i kerak edi. Shundan so'ng men ularni jazolamasam boshqa gap edi. O'pkalasa haq edi. Mening Jamshid martabali shohdan hech ginam yo'q. O'ta qalbi pok va samimiylar. Lekin Osaf ud-davla va Solor¹⁴² hamda Ja'farqulixon¹⁴³ ayrim yaramas, qabih ishlarni qilishdan qaytmaydilar. To'pu-zambaraklari bilan kelib, elimni chopqin qiladilar. Bir marta Solor bosqin qilib ketdi, yana bir gal Ja'farqulixon hujum va chopqin uyushtirdi. Men bunday harakatlarga toqat qila olmayman. Har kim o'z yerida barqaror tursin. Birov-birovning sarhadiga tajovuz qilish bo'lmasin.

Men xon hazrat arzigaga shunday yetkazdim: - Islompanoh podshohning istaklari amalga ohsa, chopqin-bosqinlar va asirlarni qul qilib sotishni to'xtatsangiz, bu do'stlik qiyomat qoyim bo'lguncha davom etajak.

¹⁴² Xuroson hokimi Ollohyor Osafuddavlaning o'g'li, chegara hudud ma'murlaridan.

¹⁴³ Eronning chegara hududidagi ma'muriy amaldor.

Xon hazrat dedi: - Bu o'n-o'n besh asirni ozod etmoq arzimagan narsa. Xudo xohlasa bu gaplar amalaga oshgusidir.

Kamina darhol o'z fikrimni ta'kidlashga o'tdim: - Ey shavkatli xon hazrat, gap o'n yoki yuz nafar asir ustida ketmapti. Buyuk Eron davlatining oliy egasi o'z odamlarining hammasini qaytarishingizni tilamoqdalar. Xon hazrat Jamshid martabali podshohning ana shu istaklarni amalga oshirmoqlari lozim.

Bu uchrashuv shu yerga yetganda tugadi. Tashqariga chiqdik. Xonning bitta kishisi oldimizga tushib, kaminani Mehtarning uyiga olib bordilar. Ichkari kirdim. Hovli qop-qorong'i edi. Uzoqdan razm soldim, o'ntaga yaqin odam shu qorong'ilik ichra o'tirar edilar. Oldin, bular Mehtarning xizmatkorlari bo'lsa kerak, deb o'yladim. Men bilan birga kelgan kishi "qani, mehmon" dedi. Qarasam, ayvon sahniga gilam to'shalgan, bir necha odam qorong'ilikda gaplashib o'tiribdilar. Endi angladimki, bular davlatning ulug'laridan. O'tirganlar O'rozxon taka, Mehtar va uning ukasi, xon hazratning yaqin amaldorlaridan Naqib, bularning mirzolari hisoblangan asli eronlik Mirzo Nazar Makri Sovajibuloqiy bo'lib chiqdi. Hol-ahvol so'rashib o'tirilgach, naqib o'zining Rusiya, Rum va Frantsiya mamlakatlari haqidagi gaplarini boshlab yubordi. So'ng dasturxon obkelib yozdilar. Unga bir necha non, bir kalla o'ris qand keltirib qo'ydilar. Xorazmliklar qoidasicha nonning bir chetini ushatib, tuzidan tatigan bo'ldim. SHundan so'ng fotiha o'qib, dasturxonni yig'ishtirdilar. Kalla qandni esa o'zlarining urf-odatiga ko'ra, mening odamimga tortiq qildilar. U yerdan chiqib, yashab turgan joyimizga shoshildim"¹⁴⁴.

SHu tariqa, Eron elchisining Xiva xoni Olloqulixon bilan ikkinchi uchrashuvi Xivada, xon O'rdasida bo'lib o'tgan. Yuqorida elchi tomonidan keltirilgan fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu elchilikning asosiy maqsadi Xiva xonligida tutqunlikda saqlanayotgan eronlik qullarni batamom ozod etilishiga erishish, ularning o'z vatanlariga qaytishini ta'minlash bo'lgan.

SHundan keyin Eron elchisi Xivadagi bir qancha amaldorlar, birinchi galda Yoqub mehtarga bilan muloqat olib borganini, unga xonga berishi uchun xat chiqartirganini yozadi. Elchining Xon bilan uchinchi uchrashuvida Xonning talabi

¹⁴⁴ Мухаммад Алихон Гофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 24-27.

bilan Xiva asir bo'lib turgan Muhammad Valixon ham ishtirok etgan. Muzokaralar yana asosan Xivadagi eronlik qullarni ozod etish yoki ularni Erondagi xivalik qullarga ayirboshlash masalasida borgan. SHundan keyin yana bir necha kun Mehtar bilan og'zaki va yozma ravishda muzokoralar olib boriladi¹⁴⁵.

Elchilarga ketishga ruxsat berishdan oldin ularga savg'a va xil'atlarini¹⁴⁶ berilgan. Elchilar ketishidan uch kun oldin elchilik missiyasini chegaragacha kuzatib boradigan mehmondor tayin qilinib, Eron podshohi maktubiga javob va boshqa xatlar ham tayyorlanadi. Elchilar ketishi oldidan to'rtinchi marta Olloqulixon elchilar bilan uchrashadi. Bu ham Eron davlati bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishga Xivada jiddiy qarashganidan dalolat beradi. Elchi o'z safarnomasida bu to'rtinchi uchrashuv tafsilotlarini qo'yidagicha bayon etadi: "Kechqurun xon hazrat yana bizni o'z huzuriga chorladi. Bordik va xon dedi:

- Bugungacha Eron podshohlari menga bunday taklifni qilmagan edilar. Ochig'i, men ham bu taklifning uddasidan chiqolmayman, odamni qiyin ahvolga solib qo'yadigan og'ir taklif. Sababi shundaki, asirlarning barisi raiyat va xalq qo'lida. Hammasiga pul to'lab, sotib olganlar axir. Xalqdan mulkini tortib olib, bunday jabr o'tkazish mamlakatimizda qoida emas. Asirlarning umumiy bahosi ham chakana emas, mayli, uncha-muncha bo'lganda bir ilojini qilardim. Ammo ko'pini sotib olishga qiynalamiz, xalqdan zo'rlik bilan tortib olish esa bizning qonunimizga mutlaqo ziddir. Xalq bilan oramizda shunday kelishuv bor: Raiyatdan undiradiganimizdan bir dinor ham oshiqcha olaolmaymiz, haqqimiz yo'q. Olsak har kun bizni ming malomatga duchor qilishadi, o'z holimizga qo'ymaydilar.

Xon hazrat gapida davom etib dedi:

- Jamshid martabali podshoh hamisha o'z odamini yuborardilar, bu gal nima sabab bo'lib rus va inglizdan odam qo'shib yuboribdilar? Bizlar musulmon va sizlar musulmon, nega endi ikki islom birodarlar orasida rus va ingliz vositachilik qilishi kerak ekan? Sen o'zing kelaverganingda maqsadga muvofiqroq bo'lardi.

¹⁴⁵ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 27-31.

¹⁴⁶ Xil'at, ya'ni to'n kiygizish sharq mamlakatlarida undan ham ilgari zamonlardan rasm bo'lgan. Ayniqsa, podshohlar saroylarida bu masalaga qattiq rioya qilingan va bu sohada maxsus mansablar mavjud bo'lgan.

Mana endi asir bersam, do'stu-dushman "xon hazrat rus va inglizdan qo'rqqanidan asir berdi" deya ustimdan kuladilar. Bu biz bilan urishgan o'sha o'ris. Eshitgansiz ularning qo'shinidan qanchasi talofatga uchraganini. Yengganmiz ularni, qo'rqmaymiz¹⁴⁷. Men bularning odamlari kelganidan va menga maktub yuborganlaridan juda ranjidim, xafa bo'ldim. Bundan keyin rus va inglizning kelishiga zarurat yo'q. Men jamjoh podshohdan xabar kelishini intizorlik bilan kutaman. Qanaqa nazar bildirmasinlar, Eron podshohi bilan axiyri bir qarorga kelib, o'zimiz til topisha olamiz, deb o'ylayman.

Bu kecha suhbat shu yerga kelganda tugadi, uyga qaytdik"¹⁴⁸.

Bu uchrashuv bo'lib o'tgan kunning ertasiga Eron elchisi Ingliz elchixonasi vakili Tomson bilan birga Xiva xoni huzuriga beshinchi marta, yakuniy suhbatga chaqirtirilgan. Suhbatda Mehtar, Xivada asir maqomida bo'lib turgan Muhammad Valixon ham ishtirok etgan. Elchi o'z safarnomachida Xiva xoni Olloqulixonning Eron bilan yaxshi qo'nichilik munosabatlariga soya solib turgan masalalarga to'xtalib quyidagi fikrlarni bildirgan: "Eronning Jamshid martabali podshohi bilan birodarligimiz o'z o'rnida qolajak. Lekin, modomiki, bizning odamlarimiz Eronda tutqun va siznikilar bizning qo'limizda ekan, buning hozircha yagona chorasida – bitta berasizlar, bitta olasizlar. Faqat shu. Har ikkala tomon ham o'z chegara mintaqasi hokimlariga bir-birov yeriga bosqin qilmaslikni qattiq topshiradilar. Xudoga shukr, hozircha do'stligimiz va birodarligimizga putur yetmagan, deb o'ylayman. Ikki tarafdin ham bosqin-chopqinga chek qo'yilsa, to podshohdan menga xabar kelguncha ikki mamlakat xalqi moli va joni omonda bo'ladi. O'zingiz borgandan so'ng ham shoh bilan gaplashib ko'ring va tushuntiring. Aavval asirlar soni masalasida ul zot qaror qabul qilsinlar, so'ng biz ham o'z qarorimizni bildiramiz". Bu suhbatdan keyin elchilarga qaytishga ijozat berilgan¹⁴⁹.

Xon hazratlaridan qaytishga ruxsat olingach, mehmonlar Mehtarining uyiga kelib, Xon huzurida qolgan Mehtarni kutishgan. Biror soatdan so'ng Mehtar podshoh nomasiga va janob Hoji *sallamulloh* yozganlariga javoblarni olib keldi va

¹⁴⁷ Xon graf Perovskiyni 1839 yil noyabrida boshlab, o'ta muvaffaqiyatsiz tugagan Xivaga harbiy yurishini ko'zda tutmoqda.

¹⁴⁸ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 35-37.

¹⁴⁹ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 38-39.

ularga qarata: “Manavilar sizlarning xatlaringizga javoblar. Xudo panohiga topshirdik, omon bo’linglar. Boshqa gaplaringiz bo’lsa, marhamat, aytinglar” degan¹⁵⁰.

Shundan so’ngg elchilar Eronga Xon bo’yrug’i bilan elchilarni kuzatib borish topshirilgan Taka turkman jamoati oqsoqollaridan ikki nafari hamrohligida Saraxs orqali Mashhadgacha yetib borishgan. Ketish oldidan Xiva yaqinidagi bir bog’da Mehtar va Naqib tomonidan xorijlik elchilar sharafiga tushlik ziyofati berilgan¹⁵¹.

Eron elchisi o’z safarnomasida yana bir qancha e’tiborga loyiq ma’lumotlarni keltirib o’tadi. Xususan, Xiva xonligida hovlilar, uylar qulflanmasligi, Xon hazrat saltanat ishlarida o’rnatgan qat’iy tartib-intizom bois o’g’irlik yo’qligi, hatto ozod qilingan ayrim eronlik asirlarning Xivadan ketgisi kelmagani (ular biz Xivada sarboz, harbiy bo’lamiz deb aytishgan), Jayhun daryosi yilning barcha faslida loyqali oqiib, qishda juda qattiq muzlashi, muz qattiqligi va qalinligidan uning ustidan otliqlar bemaol o’tishi, Marvdan Jayhun daryosining Xorazmga tegishli qirg’og’igacha qirq farsang yo’lda to’rttagina suv oladigan quduq borligi va boshqa ma’lumotlarni bayon etadi¹⁵².

1851 yilda Eron hukmdori Nasriddinshoh tomonidan Xiva xoni Muhammad Aminxon huzuriga yuborilgan Rizoqulixon Hidoyat ham o’z asarida xonlikdagi qabul marosimlari haqida muhim ma’lumotlar beradi. Xorazmda to’rt oy davomida bo’lib muzokaralar olib borgan bu elchining qayd etishicha, Xiva xonining birinchi qabuli Xiva yaqinidagi Angarik bog’idagi qasrda uyushtirilgan Ikkinchi uchrashuv esa Xonning Xivadagi qabulxonasida bo’lib o’tgan. Elchiga ham Xon tomonidan xalat va sarupolar berilgan¹⁵³..

Elchi Mirzo Rizoqulixon Sheroziy Lalabosh saforatnomasida shunday qayd etadi: Bu viloyatda jang, janjal, o’g’irlik pul olib, inkor kilish yo’q edi. Birov – birov bilan urushmasdi, balki ovozini baland ko’tarmasdi ham. Oliy va past

¹⁵⁰ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 38-39.

¹⁵¹ Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 38-39.

¹⁵² Мухаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 45-48.

¹⁵³ Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Мухаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 124-144, 150-151.

tabaqadan har kim bo'lmasin, arzi bo'lsa hech qanday to'siqsiz Xon hazrat Muxammad Aminxon oldiga bora olardi va arzini ayta olardi. Dunyoviy ish bo'lsa, unga o'zi hukm qilar, shariyat ishi bo'lsa, qozi kalonga buyurardi. Zakotdan boshqa birovning moliga egalik qilmaydi. Zakotni qirqdan bir qilib oladi, pul muomalalarida zulm o'tkazmaydi. Bu mamlakatda hamma narsa arzon mevalari yaxshi va ko'p qovunlari sozdir tutlari Shamron tutlaridan shirin anjiri esa Mozandaron anjiridan soz. Ammo uzumi uncha yaxshi emas. Xonadonlar va anhorlar suvga serob. Xiva xoni o'z mulozimlarini suvu yer bilan ta'minlashni o'z bo'yniga olgan. Har kimga bir tanobdan yer, safarga chiqqanda bir ot safarda yuk uchun ikkitadan tuya beradi. Shuning uchun uning o'n ming lashkari bundan bexabar (dushman) lar ko'ziga o'ttiz ming bo'lib ko'rinadi va begonalar ko'ngliga vahima soladi... O'rda atrofini kavlab qo'yadilar. Agar kimning oti yoki tuyasi safarda o'lsa uning bahosini oladi. Safardan qaytganlarning har biriga besh tumandan pul in'om qiladi. Har bir odamning oyligi ellik tumandan ortiq bo'lmaydi. Shu tufayli viloyat obod bo'lib xazinasini hech qachon bo'sh bo'lmaydi¹⁵⁴.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar Xiva Xonligida xorijlik elchilarni kutib olish, saroyda qabul qilish va kuzatish tartiblari haqida yetarlicha tasavvur uyg'otadi. Bu ma'lumotlar Xiva xonligiga kelgan boshqa elchilar kundaliklari, asarlarida keltirilgan ma'lumotlar bilan yanada boyitiladi, to'ldiriladi.

Endi xorijdan kelgan, lekin biror bir rasmiy elchilik missiyasi tarkibida bo'lmagan kishilarning qabuli masalalarini ko'rib o'tamiz. Xonlikda o'rnatilgan odatga ko'ra, xorijdan kelgan savdogarlar, sayyohlar, darvishlar va boshqalar, agar ular rasmiy elchilik missiyasi tarkibida kelmagan bo'lsa, Xivadagi karvonsaroylardan biriga joylashtirilgan. Yirik shaharlardagi karvonsaroylar nafaqat savdogarlarning vaqtincha yashaydigan joyi, balki savdo-sotiq (ulgurji savdo) ishlari olib boriladigan, kerakli soliqlar yig'ib olinadigan joy vazifasini ham bajargani ma'lum. Xivadagi karvonsaroylarda bojxona to'lovlari ham yig'ilib,

¹⁵⁴ Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Муҳаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 124-144, 150-151. МУЛЛА ОЛИМ Махдум Ҳожи Туркистон тарихи 1992 йил

kelgan kishilar haqida batafsil ma'lumot (qaerdan kelayotgani, kimligi, kelishdan maqsadi, safar muddati va boshqalar) to'plangan. Bu holatda ayniqsa xorijliklar kelgan karvon boshlig'i bergan ma'lumotlarga katta ahamiyat berilgan. Xivada bosh bojxonachi vazifasini **birinchi Mahram** bajargan. U xonning ishonchli kishisi bo'lib, o'z mavqeiga ko'ra Yevropa qirolliklarida Kameron lavozimidagi amaldorga teng bo'lgan¹⁵⁵.

Xonlikka kelgan xorijliklar haqidagi xabar tegishli idoralar orqali Xonga yetkazilgan. Shundan keyin Xon ularni qabul qilish yoki qilmaslik haqida qaror qabul qilgan. Agar xorijdan kelgan kishi Xon va saroy nufuzini ko'tarishi uchun ahamiyatli deb topilsa, unday kishilar Xon qabuliga kirish huquqiga ega bo'lgan. Bunday holatda Xonning qabul haqidagi qarorini va qabul vaqtini qabul qilinuvchiga maxsus amaldor – **Yasavul** yetkazgan.

1862 yilning yozida Xivaga Istambullik Rashid afandi nomli darvish sifatida kelgan Venger sayyohi A. Vamberi asarida ham bu masalalar haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Undagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali Xiva xonligidagi saroy qabul marosimlaridagi o'ziga xos an'analar haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. A. Vamberining yozishicha, **Yasavul (saroy zobiti)** u joylashgan xonoqohga kelib, unga Xon sovg'asini topshiradi va kechqurun Arkka Xon qabuliga borish lozimligi haqida xabar beradi. Xon qabulidan maqsad Muqaddas yerdan¹⁵⁶ kelgan darvish Quronning birinchi surasini o'qib, Xonni duo qilishi edi. Belgilangan vaqtdan biroz oldin A. Vamberi saroyga yo'l olganini, yo'lda Xiva xonining Istambulda elchisi sifatida bo'lib, u yerda bir necha yil yashagan **Shukrullabiy** bilan saroyga kirib borganini, Yo'lda Shukrullabiy saroyda Xon qabuli paytida o'zini tutish, belgilangan tartib qoidalar haqida tushuntirish berganini yozadi¹⁵⁷.

¹⁵⁵ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картой Средней Азии. / Перевод с английского В. А. Ромодина. - СПб., 1865. – С. 95.

¹⁵⁶ Bu davrda o'zbek xonliklarida Usmonli turklar davlati hukmdoriga Xalifa sifatida qaralgan. Istanbul esa Muqaddas yer sifatida ulug'langan.

¹⁵⁷ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. ... С. 96.

Belgilangan tartibga ko'ra, A. Vamberi dastlab xonlikda nufuzli amaldor bo'lgan Mextar bilan uchrashib, Mehtarga o'zining Usmonli Sulton tomonidan berilgan muhrli farmonni ko'rsatadi. Mehtar bu farmonni berishdan oldin uni o'qib, peshonasiga surtadi. Mehtar bu farmonni olib Xon huzuriga kirib ketadi va ma'lum vaqtdan keyin A. Vamberini Xon qabuliga taklif etadi. Xon Istambuldan kelgan darvishni juda iliq qabul qilgani asarda batafsil tasvirlangan¹⁵⁸.

Umuman olganda, Vamberi o'z asarida Xon saroyidagi qabul tartiblari haqida birmuncha keng ma'lumot bergan xorijlik sayyoh hisoblanadi. Uning ma'lumotlaridan yuqorida keng foydalanganimiz bois tafsilotlarga boshqa to'xtalib o'tirmaymiz.

1757 yilda Xivaga razvedka maqsadida kelgan tarjimon Gulyaev qabul to'g'risida shunday hikoya qiladi: "Oltinchi fevral kuni meni xonning hovlisiga olib borib, u o'tiradigan xonaga kiritdilar, yasovul unga mening kelganligim to'g'risida ma'lum qildi. Men tiz cho'kdim va u esa o'ng yelkamga qo'lini tekkizdi, shundan so'ng yasovullar meni eshikkacha kuzatib, kutishni tayinlashdi. Xon mendan so'radi. Sog' – omonmisan ey elchi? Senning kelishing biz uchun tabarrukdir! – SHundan so'ng bir gap so'zlashganim ham kutmasdan yasovullar meni o'z xonamga kuzatib qo'ydilar.

Yuqorida keltirilganlarga xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Xiva xonligida nafaqat xorijlik elchilarni, shu bilan birga mamlakatga kelgan sayyohlar va savdogarlarni ham saroyda qabul qilish odati bo'lgan. Bu qabul tartiblari o'ta noziklik bilan, Sharq diplomatiyasiga xos an'analarga muvofiq o'tkazilgan.

¹⁵⁸ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. ... -С. 96-97.

Xulosa

Xiva davlati so'nggi o'rta asrlardagi o'zbek xonliklari ichida o'z davlatchilik an'analari, saroy tartiblari, boshqaruvidagi ayrim o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Yuqorida ko'rib o'tilganlarga xulosa sifatida quyidagilarni qayd qilib o'tish mumkin.

Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshirishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Bu borada XVII asrning o'rtalarida Abulg'ozixon, XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxon I tomonidan o'tkazilgan ma'muriy va boshqaruv sohasidagi islohotlar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, Muhammad Rahimxon I islohati natijasida xonlikda quyidagi o'zgarishlar yuz bergan:

1. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli bekliklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklardagi hukmdorlar esa o'z qo'llariga juda katta yer-mulklarni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. SHuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I xonlik hududida bekliklarga bo'linishni bekor qildi va mamlakatni ma'muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo'ldi. Keyinchalik esa 26 ta hokimlik tashkil etildi.

2. Viloyat hokimliklari esa, o'z navbatida, masjid-qavmlarga bo'lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid-qavm bo'lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan, masjidning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan. Hokim va mahalliy hukmdorlar el orasida hurmat-e'tibor qozongan kishilardan tayinlanadigan bo'ldi.

3. Davlat hokimiyatining boshqaruv tizimi tartibga keltirildi, u ixchamlandi va qisqartirildi. Ma'lumki, Abulg'oziy Bahodirxon zamonida xonlikning boshqaruv tizimida 360 ta lavozim ta'sis etilgan bo'lib, bu davlatni idora qilishda ancha qiyinchiliklarni tug'dirib kelayotgan edi. Endilikda boshqarish tizimida ortiqcha lavozimlar bekor qilindi va quyidan yuqorigacha 100 ta lavozim ta'sis etildi. Boshqaruv apparatining lavozimlariga xon tomonidan bilimli va tajribali amaldorlar tayinlanib, ularga vazifasiga qarab ish haqi belgilandi. Davlat

apparati xodimlariga to'lanadigan ish haqi uchun fuqarolardan o'zboshimchalik bilan pul to'plash huquqlari qat'iy ta'qiqlandi.

4. Oliy Kengash deb ataluvchi boshqarish organi ta'sis etildi. Oliy Kengash davlat hokimiyatining eng yuqori organi bo'lib, u qonun chiqaruvchilik, ma'muriy boshqarish va Oliy sud vazifalarini bajardi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi choragi Xiva xonligi tarixida muhim o'zgarishlar davri bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon I o'tkazgan islohotlar tufayli davlat hokimiyati markazlashdi. Ma'muriy boshqarishning ancha takomillashgan tizimi qaror topdi, xonlikning iqtisodiy va harbiy qudrati mustahkamlandi. Lekin bu jarayon uzoqqa bormadi. 1873 yilda Xiva xonligi ham O'rta Osiyoning boshqa xonliklari qatori, chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Xiva xonligi chorizmning sof mustamlakasi bo'lib qoldi. Xonning butun faoliyati Rossiya hukumati nazorati ostiga o'tdi. Xonning muntazam harbiy qo'shinlari tarqatib yuborildi. Xivada maxsus rus qo'shinlari saqlandi. Xonlikning moliyaviy ishlari, soliq tizimi va xazinasi rus harbiylari nazorati ostiga olindi. Oliy Kengash ishida ham rus ofitserlari qatnashadigan bo'ldi. Hukumat lavozimlariga ham ular ma'qullagan amaldorlarga tayinlangan. Xiva xoni davlatni idora qilishda o'z mustaqilligidan batamom mahrum bo'lgan edi.

Saroy qabul marosimlari masalasiga kelsak, o'rnatilgan tartibga ko'ra xonni taxtga o'tqazish marosimi asosan poytaxt maqomidagi shaharda bo'lib o'tgan. Siyosiy boshbodoqlik, taxt uchun kurash kuchaygan yillarda bu tamoildan chekinish hollari ham bo'lga. Umuman olganda, Xorazm davlatida poytaxt Xivaga ko'chirilguncha dastlab Vazir shahrining, keyin esa Kuhna Urganchning Xorazm poytaxti sifatidagi siyosiy mavqei yuksak bo'lgan.


Manbalardagi ma'lumotlarni tahlil qilsak, Xorazm xonlarining dastlabki ikkitasi, ja'mi bo'lib to'rttasi Vazir shahrida taxtga o'tqazilgan. 1517 yildan boshlab Xorazm hukmdorlarini Ko'hna Urganchda Xon bo'lishi rasm bo'ldi. Bu shaharda Xonlik taxtiga o'tirgan birinchi hukmdor Hasanqulixon (Abulakxonning o'g'li) hisoblanadi. U Sultonxoji (Belikach Sultonning o'g'li) vafotidan keyin taxtga ko'tarilgan. Endilikda yangi xon taxti Vazirda emas, balki Urganchda

joylashgandi. Shu davrga qadar Urganchda ark bo'lmagan. Eshsulton degan amaldor shahar arkini qurdirgan.

Shundan so'ng, 1517 yildan boshlab to XVI asr oxirigacha Ko'hna Urganchda ja'mi 7 ta hukmdor taxtga o'tqazilgan. 1602 yidan boshlab, keyingi Xonlarni taxtga o'tqazish marosimlari esa yangi paytax Xivada bo'lib o'tgan.

Shu tariqa, Xiva xonligida saroy qabul tartiblarini, saroy marosimlari tarixini o'rganish orqali o'zbek davlatchiligida so'nggi o'rta asrlarga xos bo'lgan bir qator an'analarni, o'ziga xosliklarni ko'rish mumkin. Ularni o'rganish bo'yicha kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar bu masalada yangi ma'lumotlarni ilmiy doiraga kiritilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida o'zbek davlatchiligi va davlat boshqaruviga, saroy qabul tartiblari va saroy marosimlariga xos yangi jihatlarni aniqlashtirilishda muhim o'rin tutadi.

Nikolay Muravevning Turkmaniston bilan Xivaga sayohati xaqida.



Nikolay Muravev (1794-1866) – mahalliy harbiy mutaxassis, 1812-1814 yillari Rossiyaning Eron va Turkiyaga qarshi olib borgan urushlarida ishtirok etgan, 1816-1828 yillari Kavkaz armiyasida xizmat qilgan. 1819-1820 yillari rus armiyasining Kavkazdagi bosh qo'mondoni general Yermolovning topshirig'i bilan Boku - Kaspiy dengizi - CHElekan orli - Qoraqum orqali Xivaga borgan.

N. Muravev kuzaturvchan odam edi. Mazkur safari haqida yozib qoldirgan asarida («Путешествие в Туркмению и Хиву гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева», ч.1-11;-Москва: 1822) Xiva xonligi haqida muhim harbiy, iqtisodiy, tarixiy va etnografik ma'lumotlar to'plagan.

Asarda Xiva xonligining hududi, yirik shaharlari, xalqi va uning mashg'uloti va mudofaa sadohiyati (harbiy qudrati) haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar keltiriladi. Unda xususan quyidagilarni o'qiymiz:

«Xiva xonligi shimolda Orol dengizi va uning shimolida joylashgan cho'l bilan chegaradosh. CHo'lda qozoqlar istiqomat qiladilar. SHimoli-g'arbiy tarafi cho'l va qumliklardan iborat. Bu hududda turkmanlarning Taka qavmi istiqomat qiladi.

G'arbiy tarafi 800 verstga cho'zilgan sahro bo'lib, u yerlarda Kaspiy dengizi atrofidagi qavmlar istiqomat qiladilar».

Xiva xonligining beshta katta shahari bor. Ular Xiva, Yangi Urganch, SHovot, Kot va Gurlan.

«**Xiva**»-poytaxt shahar. Aytishlaricha, qadimda Xivaq deb atalgan. Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirmasdan avval, bunyod etilgan . U katta shahar. Mashhur imoratlari madrasa, xon saroyi va ibodat qiladigan masjid bo'lib, masjid gumbazi feruza rangli koshin bilan qoplangan. Xonning hovlisi ko'p hakm katta bo'lmay, unda ham bir necha kichik masjid mavjud. Uylari loydan qurilgan, ko'chalari tor. SHaharda bir necha kichik do'konlar ham bo'lib, (bozorida) haftada ikki marta oldi-sotdi bo'ladi. (Xivada) 3000 ga yaqin xonadon bo'lib, xalqi 10 000 jon atrofida. SHahar xonlikdagi boshqa shaharlar singari, ekinzorlar va katta bog'-rog'lar bilan o'ralgan. Bog' o'rtasida kichik-kichik qal'alar va uylar joylashgan».

Yangi Urganch – shu kunlarda xonlikning yangi poytaxti, xon noibi Qutli Murod inoqning turar joyi. U Xivadan kattaroq, xonlikning tamom savdo-sotig'i shu yerga

to'plangan, aholisining ko'pchiligini sartlar tashkil qiladi. Do'konlari ko'p va gavjum bo'lgan bu shaharda SHarq mamlakatlarida yetishtiriladigan har xil qimmatli matolar, zeb-ziynat mollarini xarid qilish mumkin. Haftada bir necha kun savdo-sotiq bo'ladi. Yangi Urganchliklar boshqa mamdakatlariga va xonlikning boshqa shaharlariga ham o'z mollarini olib borib, savdo-sotiq qiladilar. Yangi Urganch mustahkam devor bilan o'ralgan».

«**SHovot** bilan **Kot** bir qadar kichikdir. Birinchisida 2 000 ga , ikkinchisida 1 500 ga yaqin xalq yashaydi. Har ikkala shahar ham mustahkam devor bilan o'ralgan. Xonlikning beshinchi shahri **Gurlan** deb ataladi. Unda tijorat ahli ko'p. Uylari loydan qurilgan va g'arib. Masjiddan boshqa yaxshi binolari yo'q. Devorlarining asosi toshdan. Uylari loydan bo'lishiga qaramay, pishiq qilib qurilgan...

(Xorazmda) savlo-sotiqda shahardan qolishmaydigan katta qishloqlar ham ko'p. Buxoro yo'lida joylashgan Hazorasp, Qipchoq, Qo'ng'iroq, Oqsaroy, Xon qal'a, Moyjoygil va boshqalar shular jumlasidandir.

Yangi Urganch Ko'hna Urganch o'rnida emas, undan olisroqda, Xivaning g'arbiy tarafida, katta masofa ulug'vor imoratlarning vayronalari, pishiq g'isht va toshdan yasalgan buyumlarning parchalari bilan to'lib toshib yotibdi. O'sha joylarda hozir ham oltin topish mumkin. Bu hol Amularyoning eski o'zani bo'ylarida (qadimdan) shahar va xonadonlar bo'lganidan guvohlik beradi. SHulardan Luazan qal'asi, Qizil qal'a, SHlhasnam, O'tin qal'a va boshqalarning xarobalari hozir ham ko'zga tashlanib turibdi. Xivaning g'arbiy tarafidagi cho'lda saqlanib qolgan uylar va nahrlarning izlari qadimdan bu yerlarda madaniyati gullagan Xiva yoki Xorazm davlati bo'lganidan darak beradi...

Xiva xonligida istiqomat qilgan xalq ko'proq g'alla yetishtirish va bog'dorchilik bilan mashg'ul. Ularning daromadi asosan g'alladandir. Hamma yerlarda obod qishloqlar, kanal va ariqlarning bo'ylarida ekinzorlar, uzumzorlar va serhosil bog'lar...

Ularning egalari boy-badavlat va farovon hayot kechiradilar. Yetishtirilgan g'alla va meva istexmol talabi darajasidan ortiqroq. G'alla va mevaning iste'moldan

oshib qolgan qismini tevarak-atrofdan ko'chib yurgan qabilalarga, qozoqlar va turkmanlarga, Abulxon va Mingqishloq xalqiga olib borib sotadilar.

Xivaliklar ko'proq bug'doy ekadilar va g'alla ularning yurtida yaxshi bitadi. Uning katta qismi sotuvga yuboriladi. (Xivaliklar) bug'doydan boshqa yana sholi ekadilar, lekin ko'zlangan miqdorda hosil ololmaydilar, chunki sholi suvda o'sadi, suv esa kam. SHunga qaramay, xivaliklar uni ekadilar, chunki undan tayyorlangan taom o'ta shirin bo'ladi...Lekin uni sotishga chiqarmaydilar, o'zlariga zo'rg'a yetadi. Xonlikda kunjut ham yaxshi o'sadi. Undan moy oladilar va ko'p qismini qo'shni yurtlarga olib borib sotadilar. Harakat qilsalar uni bundan ham ko'proq miqdorda yetishtirish mumkin. Kunjut moyi xonlikda ko'proq yetishtiriladi. Lekin arpa bilan kanop Xivada yaxshi o'smaydi. SHu sabadan uni kam ekadilar. Uanop moyi o'rniga kunjut moyini ko'proq ishlatadilar...

Ot yemi uchun ko'proq yulg'un deb atalgan o't ishlatiladi. Urug'i ovqat uchun ishlatiladi, lekin uni ko'p qaynatish kerak bo'ladi. Bu taom ko'ja deb ataladi...

Bog'larida ko'p miqdorda turli navli uzum yetishtiriladi. Aholi uni quritib sotadilar. Biz uni kig'mish deb ataymiz. Uni uzumning shunday atalgan navidan tayyorlaydilar, uning urug'i bo'lmaydi.

Xivaning bog'larida ko'p miqdorda turli navli olma ham yetishtiriladi, olmurut, bodom, nok, gilos, olcha, tut va anor, shuningdek, boshqa mevalar yetishtiriladi.

Sabzavotdan, Rossiyada o'sadigan karam, sholg'om va kartogkadan boshqa ham sabzavot yetishtiriladi. Piyozi yirik bo'ladi.

Xivaning qovuni va tarvuzi katta va shirin bo'ladi.

Xiva xonligida bundan (g'alachilik, bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikdan) tashqari, hunarmandchilik bilan ham shug'ullanadilar. Ular o'zlari uchun zarur bo'lgan kiyimlardan tashqari, o'zlari ishlab chiqargan ipak va ip matolardan va Buxorodan sotib olib kelingan matolardan kiyim-kechak tikadilar. Ular to'qilgan gazmol chiroyli va nafis bo'lmasa-da, pishiqligi bilan ajralib turadi. Korxonalar yo'qligi sababli kiyim-kechak bilan o'zlarini zo'rg'a ta'minlaydilar, boshqa yurtlarga mol chiqarolmaydilar. Xivalik turkmanlar tuya junidan chodir, arqon, chiroyli va pishiq shilamlar to'qiydilar. Xivaliklar (bundan tashqari) chiroyli ipak

belbog'lar ham tikadilar. Lekin, u ham, boshqa qo'l mahsulotlari singari, chetga chiqarilmaydi, Xivaning o'zida qoladi. Xivaliklar boy-badavlat va to'kin-sochin yashamaydilar, pullari kam. Topgani kundalik tirikchilik va xonga soliq to'lashdan ortmaydi.

Umuman olganda, xivaliklar hunarmandchilikda ko'p ham madakadi emaslar. Umuman temir idish va buyumlarni yasamaydilar, ularni rus asirlari yasaydilar. Garchi mis o'sha yerdagi konlardan qazib olinsa-da, undan buyumlar yasashni bilmaydilar. Misdan yasalgan idish-tovoq va boshqa buyumlarni rossiyadan olib keladilar. Oyna haqida esa hech narsa bilmaydilar, ko'pchilik uni hatto ko'rmagan ham. SHu sabadan Xivada oyna juda kam va qimmat».

Xiva xonligining harbiy ahvoli haqida Nikolay Muravyov mana bu ma'lumotlarni keltiradi:

«Muhammad Rahimxon saltanat kursisiga o'lturgunga qadar qabilalar orasida avjiga mingan o'zaro urush-talashlar va tashqaridan qilingan bosqinlar oqibatida xalq, (ayniqsa) badavlat kishilar o'zini bosqin va talon-tarojdan saqlash uchun uylarini mustahkamlab qal'aga aylantirganlar. Bu mustahkamlangan (kichik) qal'alar, yoki qo'rg'onlar ko'pincha o'zlarining dalalari, yoki bog'lari o'rtasida qurilgan. Uning ichida turar joylar, hovuzlar, qo'rg'on sohibi va xizmatkorlarining uylari, tegirmon, qushxona, molxona, omborxona va boshqalar favqulodda yuz bergan hodisalar vaqtida 100-150 kishini saqlaydigan narsalar bor.

Bu qal'alar to'rt burchakli, paxsadan bino qilingan, ba'zilarida devor tagiga tosh qo'yilgan. Devorining past qismi to'rt arshin, tepa qismi yarim arshin, balandligi – uch sajen atrofida, devor tashqarisida, (har yer-har yerda) paxsadan dumaloq suyanchiqlar qo'yilgan. Devorning tepa qismiga ko'ngiralar qilingan.

Xonlikning yuqorida tilga olingan beshta shahari Xiva, Yangi Urganch, SHovot, Kot va Gurlan ham mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan. SHu sababdan xivaliklar ularni qal'a deb ataydilar...Qal'alarda bironta ham zambarak yo'q, ularda askar ham yo'q. SHaharlarini aholining o'zi himoya qilishi kerak bo'ladi.


Xivaliklarda muntazam qo'shin yo'q. Urush chiqib qolgudek bo'lsa, qo'shin o'zbeklar va turkmanlardan tuziladi. Qo'shin asosan sipohiylar tabaqasidan. U

xonning buyrug'i bilan belgilangan yerga to'planadi va asosan otliq askardan iborat bo'ladi.

N.Muravbyovning esdaliklarida o'zbeklarning fe'l-atvori, tabiati va qiyofasi haqida e'tiborga loyiq ma'lumotlar keltirilgan. Unda xususan o'qiymiz: «O'zbeklar umuman aqlli va yoqimli, hazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan, biron ishga jazm qilgudek bo'lsa, qarorida qat'iy, to'g'ri so'z, yolg'onni va egrilikni yomon ko'radigan, ruhi tetik, xushbichim va jismoniy kuchli xalq...

Xarb ishlarida horib-charchamaydilar, qo'rqmas va jasur kishilardir...»

Dmitriy Gladishev va Ivan Muravinlar Xiva xotiralari



Sirdaryoning quyi oqimidagi shahar va qishloqlar, Orol dengizini o'rganish uchun 1740 yili davlat arbobi va tarixchi olim V.N.Tatishchevning tashabbusi bilan Xivaga poruchik D.Gladishev va kontr-admiral, yer o'lchovchi I.Muravinlar yuborilgan.

Orskda olgan ko'rsatmaga binoan, ular 1717 yili Pyotr I zamonida Rossiya tobeligiga o'tgan Kichik Juz xoni Abulxayrxon (1695-1748 yy.) bilan uchrashishi zarur edi. Lekin, bu paytda Abulxayr Orolga edi. Mamlakatni esa Eron podshohi Nodirshoh bosib olgan edi. SHuning uchun Gladishev bilan Muravin Abulxayrxonning inisi Nurali va tog'asi Niyoz bilan birga Orolga jo'nab ketdilar va xon huzuriga yetib bordilar. Ertasi kuni Xivaga bordilar. O'sha vaqtda Abulxayr xon deb e'lon qilingan edi. Gladishev bilan Muravin SHovotda 9 noyabr kuni Nodirshoh huzurida bo'lganlar va unga Abulxayrxon bilan Xiva Rossiyaning tabaqalari ekanligini aytib, Xivaga mehru shavqat qilinishini so'raganlar. Zobitlarning so'zlariga qaraganda, ularning iltimosi ijobat topgan. Lekin ular Abulxayrxon bilan uchrasha olmaganlar. SHunday bo'lsa-da, Abulxayr shlhdan cho'chib 12 noyabrda rus zobitlari bilan birga Orolga qochib ketdi. Bu yerda ko'p tortishuvlardan keyin Nurali xon deb e'lon qilindi. Abulxayr Gladishev bilan Muravinni olib Odam ato arig'i bo'yida joylashgan eski o'rdasiga qaytdi. Gladishev va Muravin 1741 yilning aprel oyida u krdan Orskka qaytib keldilar. Ularning mazkur sayohati paytida to'plagan ma'lumotlari «Gladishev – Muravin. Poezdki iz Orskka v Xivu i obratno 1740-1741 godax poruchikom Gladishevim i geodezistom Muravinim, IRGO, vip.1U, -SPb.,1850, s.519-599» deb atalgan.

Gladishev va Muravin to'plagan ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, ularda Orol dengizining sohillari, Xorazmning Xiva, SHohtemir, Xojayli, Xonqa va SHovot shaharlari haqida, shuningdek, o'zbek, qozoq, qoraqolpoq va turkman aholisi haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

Bulardan ba'zilar keltirildi:

Gladishev hamrohlari bilan Xivaga kelishi bilan uni xon qarorgohiga olib bordilar. Unda xon bilan birga Orol biylari va xonning amirlari o'ltirishgan ekanlar. Xon Gladishevdan so'radi: «Sen qaerdan bo'lasan?» Gladishev javob qildi: «Meni

imperator hazrati oliylari jo'natdilar, marhamatli maktub bilan»,- dedi va maktubni xonga uzatdi. Xon maktubni olib, muhrini peshonasiga surdi va uni yozib (kotibiga) uzatib, «hammaning huzurida o'qi!» deb buyurdi. Maktub o'qib bo'lingach, huzurida o'ltirganlarga qarab dedi: «Ko'rdilaringmi, umid bog'lab turgan oldimdagi chirog'ni ko'ryapsizlarmi? SHu nur yordamida sizlarni (Nodirshohdan) himoya qilmoqchiman». SHundan keyin menga qarab dedi: «Sening haqingda eshitganman. Yo'lda senga ozor yetkazibdilar. Huzurimga eson-omon yetib kelishing uchun odam bilan maktub yubordim. CHunki, ma'lumki, Eron podshosi Nodirshoh Xiva shahrini egallash uchun kelayotir. Men esam o'zim ham, bu shahar ham men kabi imperator hazratlarining qo'l ostida bo'lishni istaymiz. Men uning huzuriga bormoqchiman. Sening ham uning huzuriga borishingga to'g'ri keladi. Imperator hazratlarining sen olib kelgan maktubini Xivadan unga yuboramiz, toki shaxsan men bilan janjallashib yurmasin». Gladishev xonga javob qildi: «Men sizning huzuringizga yuborilganman. SHunday bo'lgach, sizning amr-farmoningizda bo'laman».

SHundan keyin (Abulxayrxon) Gladishev odamlaridan ikki kishini, xususan yer o'lchovchi Muravin bilan tarjimon Usmon Arslonovni ajratib olib va imperator oliy hazratlari jo'natgan maktubni qo'llariga berib, ularga maktub bilan to'rt odamni – orollik bir qoraqalpoq va bir qozoqni qo'shib, Eron podshohi huzuriga jo'natdi. SHoh o'sha vaqtda Xivadan 35 verst narida joylashgan Xonqada turgan edi. Ular shohga «Abulxayrxon imperator hazratlarining tabaqasidir, ushbu shaharni ham u o'z tobeligiga qabul qildi», dedilar. Xon eshitdiki, Eron shohi Rossiya imperiyasi bilan ittifoq tuzmoqchi emish. SHu sababdan u Xivani va unga qarashli yerlarni talon-taroj qilmaydi», degan xabarni yetkazishlari lozim edi».

D.Gladishevning Xivada istiqomat qilib turgan rus asirlari haqida keltirgan ma'lumotlari ham o'ta muhimdir. U yozadi: «O'sha yerda asirda bo'lgan Yoyiq kazagi Andrey Borodindan eshitdimki, Xivada Bekovich-CHerkasskiy ekspeditsiyasidan asirga tushib qolgan ruslar, qalmoqlar va boshqa yerliklarning soni 3 000 kishiga yetadi. U (Andrey Borodin) ularni yaxshi biladi. Bahorda ularni Xiva tevaragidagi ariqlarni tozalashga haydab boradilar. Orolida shunday asirlar

soni 500 kishi. Taxminan shugcha asir Qozoq va Qoraqalpoq o'rdalarida yashab turibdilar...»

SHeldeltog'da ham rus asirlari turadilar. O'sha tog'da kumush va oltin konlari bor. Qazilgan rudalarni tekshirib qaraganlarida uning uchdan bir qismi sof oltin bo'lib chiqdi. Buni aniqlangan odam SHerg'ozixonga borib aytdi. Xon uni tiriklayin ko'mib tashlashni buyurdi, «toki u bu gapni boshqa birovga borib aytmasin, deb».

Xivaliklarning kasb-kori haqida ham Gladishev ayrim ma'lumotlar keltirgan: «Ular,-deb yozgan edi u,-bo'g'doy, arpa, jo'xori, tariq, kunjut, paxta va tamaki ekadilar. Yeri, ba'zi yerlari qumloq, ba'zilari loyqadan iborat, sug'orib ekadilar. Uni ho'kiz bilan haydaydilar...

CHorvalari: tuya, ot, mol, arg'umoqlar va oddiy otlar, eshak, qo'y, echki.

Qushlari: o'rdak, tovuq.

Mevadan: olma, anor, uzum, tut, shaftoli, jiyda, olmurut.

Poliz ekinlaridan: qovun, tarvuz, turp, sholg'om, karam, piyoz yetishtiriladi.


Daraxtlar: sada qayrag'och, terak, tol ...o'sadi. SHuningdek, tut meva beradi, bargi bilan pilla qurti boqiladi.

Xivada mis pul zarb qilinadi, miltiq dori tayyorlanadi...

Qamish va beda yetishtiriladi.

Daryolarida: Sirdaryo, Quvondaryoda, Ulug' daryoda kechuvlar bor. Ikki sajenlik, ikki yarim sajenlik qayiqlar mavjud. Ularda 5 boshgacha ot yuklab o'tish mumkin...Sirdaryo bilan Ulug' daryoda baliq ko'p.

Qamishzorlarda bars, bo'ri, shag'ol,tulki kabi yirtqich hayvonlar yashaydi».



Ruslar tamonidan 1854 yilda ishlangan O'rta Osiyo xaritasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Каримов. И.А. Хива шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Каримов. И.А. Асарлар. 6-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 375.
2. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.
2. Мунис ва Огоҳий. Фирдавсул иқбол. – Тошкент, 2010.
3. Мунис. Фирдавс ул-иқбол. // Қўлёзма. №Е 6(фотонусхаси). 64 а,б вар.
4. Огаҳий, Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли. Риёзут давла // Асарлар. VI жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. VI жилд;
5. Огаҳий, Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли. “Жомеал-воқеати Султоний”дан // Асарлар. VI жилдлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. VI жилд. – 7-126;
6. Огаҳий, Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли. Зубдатут таворих. – Тошкент, 2009;
7. Огаҳий, Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли. Шоҳидул иқбол. – Тошкент, 2009;
8. Огаҳий, Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли. Гулшани давлат. – Тошкент, 2012.
9. Баёний Муҳаммадйусуф. Шажараи Хоразимшоҳий / Мерос. Тўплам. . – Тошкент: Камалак, 1991.
10. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Фан, 1960.

11. Сайид Ҳомид Тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. – Тошкент: Академия, 2002.
12. Сафаров Б. Хоразм тарихи. – Тошкент, 1957. ЎРШИ-1, № 10231,
13. Сафаров Б. Хоразм тарихи. ЎзР ФА шарқшунослик институти, 1-фонд, 10231-рақамли қўлёзма.
14. Болтаев А. Хоразм тарихига оид хужжатлар // Қўлёзма, ЎзФАШИ. – №9320.
15. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.
16. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Фан, 1959.
17. Воҳидов Ш. Ҳолиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX-XX аср бошлари) – Тошкент: “Янги аср авлоди” 2006.
18. Муҳаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги (Муҳаммадшоҳ Қожор ва Оллоҳқулихон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1842 йил) / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 13–52;
19. Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм. Носириддиншоҳ ва Муҳаммад Аминхон ўртасидаги дипломатик алоқалар тарихидан. 1851 йил. / Форс тилидан И. Бекжонов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 53–231.
20. Матниёзов М. Хоразм тарихи. 1-2 китоб Урганч.: 1997.
21. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг. / Перевод с английского Ю.В. Готье // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – Л.: Полиграфкнига, 1937.
22. Ефремов Ф.С. Странствование Филиппа Ефремова Въ Киргизской степи, Бухарии, Хиве, Персии, Тибете и Индии и возвращение его оттуда через Англию въ Россию. Третье вновь переделанное, исправленное и умноженное издание. – Казан: Въ Университетской Типографии, 1811. – 160 с.

23. Гулямов Х.Г. Дипломатическая отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX в. – Ташкент: Фан, 2005.
24. Небольсин П.И. Очерки торговли России со Средней Азией. ЗИРГО. – СПб., 1855. Кн. X. – С. 1-335.
25. Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. – СПб, 1909. – № 9.
26. Вамбери А. Путешествіе по Средней Азіи изъ Тегерана черезъ Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспійскаго моря въ Хиву, Бухару и Самаркандъ, предпринятое въ 1863 году съ научною целью, по порученію Венгерской Академіи въ Пешть, членомъ ея А. Вамбери. – М.: Изд-во А.М. Мамонтова, 1867.
27. Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбецких ханов в XVII веке / Соч. в 9 томах. – М.: Изд-во вост. лит., 1964. Т. II. Ч.2. – С. 388-399.
28. Гулямов Я. История орошения Хорезма. – Ташкент, 1962.
29. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – СПб.: СЗКЭО Кристалл, 2003.
30. Николая Муравьёва «Путешествие в Туркмению и Хиву гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьёва», ч.1-11;-Москва: 1822
31. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трех частях. – Алматы: ТОО “Жалын Баспасы”, 1998. Ч. II. – С. 145-348.
32. Игнатьев Н. Поездка в Хиву и Бухарию. – СПб., 1858.
33. Агзамова Г.А. Среднеазиатские ханства и Россия: к истории караванной торговли (XVI – первая половина XIX вв.) Россия – Узбекистан. История и современность. Спецвыпуск. – М., 2008. – С. 13-25.
32. Юлдошев М.К. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. – Ташкент, Фан, 1964.
33. Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1957.

34. Хива – 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. – Урганч, 1997.
35. Ҳасан Мурод Муҳаммад Амин ўғли. Элбарсхонни Хоразм келиб хон бўлмоқ сабаблари. // Қўлёзма. ЎзФАШИ. - №12581. 24б.
36. Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000.
37. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006.
38. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
39. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008.
40. Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988.

III. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарк, 2000.
3. Равшанов Ф. Миллий раҳбаршунослик: тарих ва тажриба. – Тошкент: Академия, 2007.
4. Буниятов З.М. Хоразмшоҳ Ануштегинийлар давлати. – Тошкент, 2001.
5. Қўшжонов О., Дурдиева Г. Хива хонлиги туркманлари. – Хива, 2008.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. 11-жилд. – Б. 163-164.
7. История Хорезма с древнейших времен до сегодняшнего дня. Ташкент: Фан, 1976.
8. Иванов П.П. Очерк истории каракалпаков // Труды ИВ АН СССР. Т. VII.

9. Буриев О., Калганов А. Об одном участке Великого шелкового пути // На Среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. Очерки истории и культуры. – Ташкент: Фан, 1990. – С.106-116.
10. Ханыков Н. Описания Бухарского ханства. – СПб., 1843.
11. Лошков В. О древней русской дипломатии. – М., 1957. – С. 21.
12. Руи Гонсалес де Клавих. Самаркандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар) // Рус тилига 1811 йилда қилинган таржимадан ўзбек тилига О. Тоғаев таржимаси. – Тошкент: “O’ZBEKISTON” NMIU, 2010.
13. Темур тузуклари. – Тошкент, 2010.
14. Улжаева Ш. Амир Темур салтанати. – Тошкент, 2007.
15. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Т., 1997.
16. История Узбекской ССР. Том первый. Ташкент: Фан, 1967.
17. Ўзбекистон ССР тарихи. Иккинчи том. Тошкент, 1971.

IV. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Воҳидов Ш., Сабурова С. Хива хонлигида унвон, мансаблар ва уларнинг вазифалари (XIX-XX асрнинг бошларида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, №3. Б. 39-46.
2. Сабурова С. С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Т., 2002.
3. Полвонов Н. Хива хонлигида давлат мансабларига тайинлаш тартиби // Жамият ва бошқарув, 2009, № 4. – Б. 48-50.
4. Полвонов Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида мансаблар (Сафаров Бобожоннинг “Хоразм тарихи” асари асосида) // ТДЮИ Хабарномаси. 2010, № 3. – Б.32-38.
5. Полвонов Н.Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924 йиллар): Тарих фанлари номзоди ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2005. – Б. 13.

6. Машарипова Г. Қадимги ва ўрта асрлар даврида Марказий Осиё худудларидаги ўзаро этник муносабатлар (Абулғозий маълумотлари асосида) // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон (илмий-амалий анжуман). – Тошкент, 2003. – Б. 36-38.
7. Агзамова Г.А. Среднеазиатские ханства и Россия: к истории караванной торговли (XVI – первая половина XIX вв.) Россия – Узбекистан. История и современность. Спецвыпуск. – М., 2008. – С. 13-25.
8. Соловьев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участие натуралиста А. Лемана. – М.–Л., 1939. – С. 16-18.
9. Абд ал-Кадир ибн Мухаммад-Амин. Маджма' ал-ансаб ва-л-ашджар. Введение, перевод с арабского-персидского и тюркского, текст, факсимиле автографа, комментарии и указатели Ш. Х. Вохидова, А. М. Муминова, Б. Аминова. – Алматы: Дайк-Пресс. 2005. - С. 190.

IV. Internet saytlari

1. <http://www.academy.uz/>
2. <http://www.ziyouz.com>
3. <http://fr.academic.ru>
4. www.tarix.uzsci.net
5. <http://1.kitobxon.uz>

.....